

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SHaripov SHavkat Safarovich, Davlatov Karim,  
Nasriddinova Gulchehra Salohuddinovna

**KASBGA YO'NALTIRISHNING  
ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

O'QUV QO'LLANMA

Magistratura mutaxassisligi:  
5A142001 - Mehnat ta'limi metodikasi

Toshkent – 2007

**SH.S.SHaripov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova.**

Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2007. 146 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada talabalarda umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

O'quv qo'llanma asosan mehnat ta'limi metodikasi mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, shuningdek undan amaliyotchi o'qituvchilar, kasbga yo'naltirish muammolari bilan ilmiy izlanuvchilar va psixologlar ham foydalanishlari mumkin.

**Pedagogika fanlari doktori, professor  
U.Nishonalievning umumiy tahriri ostida**

**Taqrizchilar:**

**Tolipov O'tkir Qarshievich** – O'zPFITI direktor o'rinbosari,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Muslimov Narzulla Alixanovich** - TDPU Kasb ta'limi fakulteti  
dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Ilmiy Kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan. 2007 yil 29 martdagi 9-raqamli bayonnoma.

## KIRISH

*Magistrantlar uchun “Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari” fanidan ushbu o’quv qo’llanmani yaratishdan maqsad va vazifalar “Ta’lim to’g’risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilab berilgan vazifalarni ilmiy asoslarini ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik-psixologik nuqtai nazardan o’zlashtirish hamda amaliy jihatdan qo’llashga yo’naltirilgan.*

*“Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari” kursining asosiy maqsadi bo’lajak mutaxassislarni umumiy o’rta ta’lim maktabi hamda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini o’quvchilarini kasbga yo’naltirishga muvaffaqiyatli rahbarlik qilishdagi bilim va ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat etib belgilangan. “Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari” kursi belgilangan maqsad asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning quyidagi vazifalarini hal etadi:*

- ilmiy, pedagogik, tadqiqotchilik sifatlarini rivojlantirish;*
- umumiy o’rta va kasb-hunar ta’limi muassasasida o’quvchilarni kasbga yo’naltirish faoliyatini tashkil qilish va unga rahbarlik qilishga tayyorlash;*
- o’quvchilarni kasbga, kasb tanlashga va kasb-hunarga yo’naltirish ishida yangi axborot, innovatsion va pedagogik texnologiyalarini o’zlashtirish, zamonaviy metodlardan samarali foydalana olish maqsadlarini shakllantirish.*

*“Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari” kursi bo’yicha ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlari o’tilishida magistrantlar turli manbalardan foydalanib o’zlarining ilmiy izlanish va ilmiy pedagogik faoliyatlariga, ayniqsa ilmiy tadqiqotlar olib borishga o’zlarini tayyorlashlari maqsadga muvofiqdir.*

### **§ 1. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASDA KASBGA YO’NALTIRISH ISHLARINING TIZIMI VA BOSQICHLARI**

Amaliy va ijtimoiy sheriklik tomonlari sifatida, fan va ishlab chiqarishning ishtiroki bilan kasb-hunar ta’limi hamda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish strategiyasining asosiy yo’nalishlari kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan.

Biroq, kasb-hunar ta'limiga ijtimoiy sheriklarni jalb qilishning real mexanizmi hali ishlab chiqilmagan. Ish beruvchilar bilan hunar ta'limi tizimi boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro munosabat davlat darajasida qonun yo'li bilan mustahkamlangan.

Tadbirkorlar, ayniqsa kichik korxonalar avvalo bozorda o'zlarining tovarlarini raqobatbardoshligini oshirishga intilmoqdalar. Ular kadrlar tayyorlashda ishtirok etishdan manfaatdor emaslar, sababi ular asosan davlat ta'lim tizimidan tayyor xodimlarni oladilar.

Bundan tashqari ko'pchilik korxonalar o'zlarining xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun etarli mablag`ga ega emaslar.

To'lov asosida, ya'ni buyurtmachi kadrlar tayyorlashga to'la yoki qisman pul to'lashi ko'zda tutiladigan shartnomalar tuzish hali keng tarqalmagan.

SHunday qilib, ishlab chiqaruvchilarni kadrlar tayyorlash ishiga jalb qilishni sekinlatadigan sabablardan biri, bu masala bo'yicha me'yoriy-qonuniy bazaning mavjud emasligi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlashga mablag` sarflaydigan korxonalar uchun soliq to'lashdagi mavjud imtiyozlar kam samaralidir.

Kadrlar tayyorlashning tashkiliy jihatdan ta'minlanishi quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- me'yoriy-qonuniy;
- moddiy-texnik;
- o'quv-metodik;
- kadrlar.

Me'yoriy-qonuniy ta'minlash kasb-hunar ta'limi faoliyat ko'rsatishining asosiy negizi hisoblanadi. Islohot davrida bu yo'nalish hammasidan ko'ra ko'proq qayta ko'rib chiqishga va o'zgartirishlarga duchor bo'lgan. SHu bilan birga, davr talabiga mos keladigan, muvaffaqiyatli qonunlar islohotlari nisbatan bazalar va muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. O'zbekistonda kasb-hunar ta'limini tashkil etishning tartibga soluvchi asosiy qonuniy hujjatlar ishlab chiqilgan.

O'quv-moddiy baza. Kasb-hunar ta'limining o'quv-moddiy bazasi avvalo ta'lim muassasalari tarmoqlarini o'z ichiga oladi. 1997 yilning oxirida respublikada xalq ta'limi Vazirligiga qarashli 442 ta hunar-texnika o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan.

1998 yil mart oyidan ushbu o'quv yurtlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi boshqaruviga berildi. Bugungi kunga kelib, mavjud o'quv yurtlari negizida 35 ta yangi turdagi o'quv yurtlari tashkil etildi, shu jumladan 22 ta kasb-hunar kollejlari va 13 akademik litseylar. Respublikada 2005-2006 o'quv yili boshlanishiga 1800 akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'z ichiga olgan yangi ta'lim muassasalari tarmog'ini yaratish vazifasi qo'yilgan. Ularda 618200 o'quvchi o'rniga ega bo'lgan 925 ob'ektlar yangi qurilish yo'li bilan barpo etiladi.

O'quv-metodik ta'minlanishi. Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng shu bugungacha ta'lim tizimining barcha zvenolarida o'quv dasturlari va darslarni isloh qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Ko'pgina gumanitar fanlar va iqtisodiy fanlarning ta'lim mazmuni qayta ko'rib chiqildi.

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarga tadbirkorlik sohasidagi bilimlarni singdirish maqsadida 90 soatlik dastur bo'yicha "Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish" nomli yangi o'quv predmeti kiritildi. SHuningdek, o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqildi, nashr etildi va ular asosida "menejer yordamchisi", "referent", "kichik va xususiy biznes uchun xisobchi" va shu kabi yangi ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash boshlandi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga ko'ra, kasb-hunar kollejlari o'qish muddati 3 yil. Buni hisobga olgan holda o'quv vaqtining taqsimoti bilan namunali o'quv rejasining modeli ishlab chiqildi. Bu tuzilmada umumiy ta'lim fanlariga 34,5% vaqt ajratildi, qolgan vaqt umumkasbiy va maxsus fanlar o'rtasida taqsimlanadi, ularning hajmi va miqdori mutaxassisliklar murakkabligiga ko'ra belgilanadi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish institutida yangi talablarga mos ravishda o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqish boshlandi.

Kadrlar bilan ta'minlash. Bugungi kunda kasb-hunar ta'limi muassasalarida 22 ming nafar muhandis-pedagoglar yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan mashg'uldirlar, shundan 5 ming nafarga yaqini umumta'lim fanlari o'qituvchilari, 3 mingga yaqini umumtexnika va maxsus fanlar o'qituvchilari va 10 mingdan ko'prog'i ishlab chiqarish ta'limi ustalaridir, qishloq joylarida va shahar tipidagi posyolkalarda

istiqomat qiladigan davlat ta`lim muassasalari xodimlari o'zlari yashaydigan davlat va idoralarga qarashli uylarni bepul xususiylashtirish kabi imtiyozlarga ega.

O'zbekistonda ta`limni boshqarish va nazorat qilish tizimi davlat xarakteriga ega. Bu jarayonga hamma bab-baravar, shuningdek hukumatning mahalliy organlari vakillari ham jalb etiladi. Ishbilarmon doiralar, jamoat tashkilotlari va fondlar ta`limni boshqarishda ishtirok etmaydilar. Ularning ishtiroki ta`limni moliyaviy va moddiy jihatdan ta`minlashga ma`lum darajada imkoniyat tug`diradigan bo'lar edi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limini boshqarish va nazorati respublika qonunlari belgilangan vakolat doirasida faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday organlarga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi;
- Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi;
- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta`lim vazirligi;
- Qoraqalpog`iston Respublikasi xalq ta`limi vazirligi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- Xalq ta`limi hududiy boshqarmalari;
- O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi xududiy boshqarmalari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta`lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta`lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta`lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta`limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta`lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta`lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;
- boshqa davlatning ta`lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta`lim faoliyati bilan shug`ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

- qonun xujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta`lim to`g`risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

- davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash;

- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma`lumot to`g`risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

- davlat grantlari miqdorini va ta`lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

- davlat oliy ta`lim muassasalari rektorlarini tayinlash;

- ta`lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta`lim muassasasidan boshqasiga o`tkazish tartibini belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta`minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha – bu uzluksiz ta`lim bo`lib, u kadrlar tayyorlash tizimining asosi hisoblanadi.

Uzluksiz ta`lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma`naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta`lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta`lim standartlari asosida turli darajalardagi ta`lim dasturlarining izchilligi asosida ta`minlanadi va quyidagi ta`lim turlarini o`z ichiga oladi:

- maktabgacha ta`lim;
- umumiy o`rta ta`lim;
- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi;
- oliy ta`lim;
- oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim;
- kadrlar malkasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta`lim.

Bu borada magistrantlar mazkur mavzu yuzasidan mavjud boshqa manbalardan foydalanib O'zbekiston Respublikasida kasbga yo'naltirish ishlarining tizimi va bosqichlariga xos qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitib, chuqurlashtirib va kengaytirilgan holatda, "Kasbiy yo'naltirishda mehnat resurslarini ishlatish ta'sirini kengaytirish omillari"ni ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi nuqtai nazaridan batafsil yoritishlari kerak. Keyin 8-9 sinflarga taaluqli materiallarda ta'riflangan mehnat resurslarini ishlatish texnologiyasi hamda ularni kasbiy yo'naltirishdagi ta'sirini kuchaytirish holatlarini tahliliy izohlash maqsadga muvofiqdir. Pedagogik mahoratni kasbga yo'naltirish ishlariga tadbiiq qilishni ishlab chiqishlari lozim.

Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari ko'pincha shu qadar murakkabki, ularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas. Maktabda o'rganilayotgan ko'pgina fakt va qonunlar o'zaro bog'liq holda aniq ro'yobga chiqarilgan taqdirdagina o'zlashtirishi mumkin. Misol uchun kasbga yo'naltirish masalasini olib ko'raylik.

Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va g'oyat xilma-xil sohalarida ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta.

SHu bilan birga bu mutaxassislarning har biri to'la aniq ma'lumot olgan, muayyan ish tajribasiga ega xodimlardir. SHu boisdan ular kasbga yo'naltirish sohasidagi o'z faoliyatida o'zlariga ma'lum bo'lgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa ba'zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug'diribgina qolmay, kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarining qo'yilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. SHu sababdan ham kasbga yo'naltirishga oid bilimlar mazmunining yagona tizimini hamda kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga



yo'naltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosiga oid e`lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o'quvchilarning e`tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni kasbga yo'naltirishga doir etarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida qaratish lozim. Jumladan, mintaqa sharoitlarini, milliy an`analarini hisobga olib o'quvchilarni kasblarga uchun ta`lim muassasining kasbga yo'naltirish bo'yicha kompleks tadbirlarini ishlab chiqish, kasbga yo'naltirish vazifalarini amalga oshirish bilan o'quvchilarning umummehnat va kasbiy tayyorgarligi o`rtasida uzviy aloqadorlikni ta`minlash alohida dolzarflik kasb etadi .

Respublikamizda etarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan bu kabi muammolarni hal qilishda mamlakatimiz mintaqa xususiyatlarini, milliy an`analarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim bo`ladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talabalari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yo'naltirish shakl va metodlarini takomillashtirishning yangi yo'llarini qidirishga to'g'ri keladi.

Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim o`rin tutadi. Bular orasida xalq xo`jaligini rivojlantirish va kad muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog`liq tarzda talabalarning mustaqil mashg`ulotlarida ko`rib chiqishi tavsiya etiladi.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo`lgan maktabning roli har qachongidan ko`ra o`sdi.

SHu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta`lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi.

Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi.

Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi.

Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'ektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda.

Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy ta'lim maktabida mehnat poletexnika ta'limi sharoitida

kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Kasbga yo'naltirish o'quvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

YOsh avlodga mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo'ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga etkazish, bolalarni o'rab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo'llar faqat mehnatdagina "mohir qo'llar"ga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o'rganib bo'lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur.

Umumiy ta'lim maktablarida, zavod va fabrikalarda, o'quv yurtlarida kasbga yo'naltirish ishlarini o'tkazish zaruriyatini turmushning o'zi taqozo etmoqda. Bu narsa qayta qurish yangi marralari yil sayin tobora keng avj oldirilayotgandir. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: o'quvchi tanlagan kasb og'zaki tushunchagina bo'lib qolmasligi, o'quvchi o'z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko'rishi, ushbu kasb to'g'risidagi tushunchasi qanchalik to'g'ri ekanini xolisona tekshirib ko'rishi lozim.

O'z-o'zidan ma'lumki, bunga o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog'langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin.

Har qanday kasbda eng muhimi - uning mehnat mazmuniga ega bo'lishidir. SHu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat jo'shqinligiga ko'chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan

boshlanadi. Ana shu paytdan e`tiboran bolalarni bo`lg`usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o`rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak.

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma`lumotni ola turib, shu asosda o`zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. “Kim bo`lsam, ekan?” muammosi “Qanday odam bo`lish kerak” muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o`quvchilarini kasbga yo`naltirishga oid ishlarni ta`lim yo`llari oraqil mutassil va izchillik bilan olib borish kerak.

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

**1. Kadrlar tayyorlashning tashkiliy jihatdan ta`minlanishi qanday asosiy yo`nalishlarni qamrab oladi?**

- A) me`yoriy-qonuniy, moddiy-texnik, o`quv-metodik, kadrlar.
- B) moddiy-texnik, kasb-hunar ta`limi, o`quv-metodik, o`quv-moddiy baza.
- C) me`yoriy-qonuniy, o`quv-moddiy baza, o`quv-metodik, ishlab chiqarish.
- D) moddiy-texnik, kadrlar, o`quv-metodik, o`quv-moddiy baza.

**2. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limini boshqarish va nazorati kim tomonidan amalga oshiriladi?**

- A) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan
- B) O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi Vazirligi tomonidan
- C) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan
- D) Respublika qonunlarida belgilangan vakolat doirasida faoliyat ko`rsatuvchi davlat organlari tomonidan.

**3. Uzluksiz ta`lim tizimining faoliyat olib borishi qanday ta`lim turlarini o`z ichiga oladi?**

- A) maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, oliy ta`lim, oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

B) maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta`lim.

C) maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, maktabdan tashqari ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

D) maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

## **§ 2. UMUMIY O`RTA TA`LIMDA KASBGA YO`NALTIRISH ISHLARINING TUZILMASI VA MAZMUNI**

Umumiy o`rta ta`lim maktablarini bitirgan o`quvchilarning taxminan 90% kasb-hunar kollejlarga, 10% esa akademik litseylarga o`qishga borishlari mo`ljallangan. Bunday ijtimoiy talablarni qondirish maqsadida maktabda kasbga yo`naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo`lga qo`yish zarurligi yuzaga kelmoqda. Dars jarayonida xalq ho`jaligida bevosita ishlab

chiqarish bilan mashgʻul mehnat ahllariga hurmat va izzat tuygʻularini singdirib borishga alohida eʼtibor qaratish lozim.

Kasb-hunarga yoʻllash boʻyicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari oʻquvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.

Maktabda kasb-hunarga yoʻnaltirish ishlarini yoʻlga qoʻyishda anʼanaviy amaliy mashgʻulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik oʻyin, konferentsiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda oʻtkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Umumiy oʻrta taʼlim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yoʻnaltirish boʻyicha mashgʻulotlar 8-9 sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida “Oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimidagi tayyorlov yoʻnalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi” asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda oʻquvchilarga kasb egallash yoʻllari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va hokazolar tushunchalari berib beriladi.

Maktabda oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish birgina mehnat taʼlimi oʻqituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Maktabda fan oʻqituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bogʻlab oʻtishsa, maktab psixologi va rahbariyati oʻquvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda taʼlim-tarbiya ishlarini olib borishsagina oʻquvchilarga kasb tanlashlarida koʻmak bergan boʻlishadi. SHu bilan birga takrorlash zarurki, magistrLAR Oʻzbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi oʻquvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yoʻnaltirish tizimini takomillashtirish – ish oʻrinlarini boʻshab qolish jarayonlari jadallashadigan va ishchilarning malakalariga qoʻyiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini ratsional va samarali bandligini taʼminlashdagi kasb-hunarga yoʻnaltirishning asosiy roli shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan

tanlovi ularni mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishda zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi kasb-hunarga bo'lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta'lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo'riqish holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Bu borada asosiy yo'nalish qilib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", halqaro mehnat tashkilotining Nizomlari, konventsionalari va takliflar, bir qator boshqa hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olindi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari tomonidan bosqichma-bosqich va muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan rasmiy jihatdan qabul qilingan qarorlardan birida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan umumiy qoidalarda quyidagilar ta'kidlangan:

1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-sonli "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan tashkil etilgan.

2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi har bir tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari tuzilmasida, o'z hududlari doirasida bolalar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashhis qo'yish, ularning qobiliyati va moyilligini aniqlash, bolani 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilish to'g'risida tavsiyanomalar berish, o'quvchilarni har yili tibbiy-pedagogik tekshirishlardan o'tkazish, bolalarga va ota-onalarga o'quvchilarni o'qitishda, tarbiyalashda va ijtimoiy moslashtirishda psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, shuningdek, maktab o'quvchilariga, ularning qobiliyatlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini hisobga olgan holda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta'lim yo'nalishini tanlashda ko'maklashish maqsadida

tuzilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi va u orqali boshqa tashkilotlarning ilmiy-metodik rahbarligida:

- o'quvchilarning kasb-hunarga layoqat yo'nalishlari va qobiliyatlari darajasini tashhis etish ishlarini maktablarda muntazam ravishda olib borilishini;

- har bir o'quvchi haqida uning qiziqishlari, intilish va layoqatlari, erishgan yutuq va kamchiliklari, aqliy va umumiy rivojlanishi haqidagi ko'p yillik psixologik va pedagogik tashhis ma'lumotlari bankini tashkil etilishi, tartibga keltirilishi, maxsus daftar va dasturlar yordamida qayd etib borilishini;

- Kasb-hunar klassifikatori va hududda mavjud bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha axborot to'playdi va targ'ibot qilishni tashkil etadi.

Maktab pedagogika kengashi bilan birgalikda attestatsiya yakunlariga ko'ra 9 sinflarning bitiruvchilari o'qishni akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida davom ettirish to'g'risida asosli tavsiyanomalar beradi.

YAngi tashxis metodikalarining yaratilishida, sinab ko'rilishida tajriba maydonchasi vazifasini o'taydi, metodik va ommabop qo'llanmalar yaratishda ishtirok etadi.

Markaz ta'lim muassasalarining tibbiy-sanitariya holatini nazorat etadi, ularning tegishli mutaxassislar bilan ta'minlanishida xalq ta'limi va sog'liqni saqlash bo'limlari, maktablar rahbariyati bilan hamkorlik qiladi, davriy ravishda ularning hisobotlarini talab etadi, davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan bajarilishi lozim bo'lgan faoliyatlarni muvofiqlashtiradi.

Ta'limda iqtidorli bolalarning rivojlanishini maktab psixologlari orqali nazorat qiladi, iste'dodli deb topilgan o'quvchi-yoshlarning hududiy bankini yaratadi. Ularning ijtimoiy-oilaviy muhiti haqida ma'lumotlar yig'ishni tashkil qiladi, intellekt ko'rsatkichlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini hisobga oladi, ehtiyojga qarab tegishli metodik, psixologik, tibbiy yordam usullarini qo'llaydi.

Markaz o'z hududi doirasidagi yashovchi bolalar orasidan jismonan zaif va aqliy



rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni nazoratga oladi, ular haqida alohida ma'lumotlar bankini yaratadi, maktab jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda ularga oilada, shuningdek tegishli maxsus ta'lim muassasalarida bilim olishlari uchun tavsiya beradi, ularga metodik, psixologik va tibbiy yordam berishni tashkil qiladi.

Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasb-hunarga yo'naltiruvchi tadbirlarning o'tkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. O'z hududi doirasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni Mehnat vazirligining bo'linmasi orqali oladi, o'rganadi va zarur bo'lgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va ko'rik-tanlovlar, turli musobaqalar uyushtirishda yordam ko'rsatadi.

Yilda bir marta hududdagi maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishda tuman, shahar sog'liqni saqlash bo'limlari faoliyatlarini maqsadli muvofiqlashtiradi, jismonan zaif, kasal bolalarni sog'lomlashtirish ishlarining nazoratini maktab tibbiy xodimlari, ota-onalar, jamg'armalar, kasaba uyushmalari va boshqalar bilan birgalikda amalga oshiradi.

Bu borada magistrantlar o'zining ilmiy izlanish hamda ilmiy-pedagogik izlanishlarida quyidagilarga e'tiborni kuchaytiradilar:

1. Maktab sharoitida:

- o'quvchilarni barcha o'quv predmetlar mazmunidan kelib chiqqan holatda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari modelini ishlab chiqadilar;
- shu fanlarning amaliyoti yuzasidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga shu fanga xos kasblar yuzasidan dastlabki amaliy ishlarni tashkil qilish ko'nikmalarini hosil qiladilar.

2. Kasb-hunar kollejlari sharoitida:

- o'quvchilarni barcha o'quv predmetlari mazmunidan kelib chiqqan holda maktabda tanlagan kasbiga mavjud "moslashish" jarayonini shakllanishini ta'minlaydi;
- shu fanlarning amaliyoti yuzasidan o'tkazilayotgan mashg'ulotlar va amaliy ishlar jarayonida o'quvchilarga shu ishlarga xos kasblar yuzasidan shakllangan

elementlarni kasbiy darajaga ko'tarishni ta'minlaydi.

Magistrantlar mazkur ishlarni bajargandan keyin "Kasblarning psixofiziologik tahlili va kasbiy talablarning ilmiy-pedagogik asoslari"ga xos materiallarni "Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi"ni belgilab beruvchi asosiy hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi IX bob 37-moddasida kasb-hunarni tanlash, egallash va ulardan foydalanishga batafsil to'xtash, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Davlat ta'lim standartlarini ta'riflashga o'tish lozim. Bu magistrantlar "ishlab chiqarish va kasb-hunarga yo'naltirish asoslari"da mazkur mavzuga oid (8-9 sinflar uchun chop etilgan qo'llanmalardagi) materiallarni ilmiy-pedagogik asoslarini mukammal o'zlashtirishga kirishish lozim.

I-IV sinflarning o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular-mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejelashtira va nazorat qila bilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish, toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish, materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasini ballarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etganlan keyin bular keyinchalik kasbni blgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi - o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-eh-tiyolariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Mehnat ta'limi darslari kasbga yo'naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. Buni mehnat darslari kasbga yo'naltirishga qaratilgan yo'lining tahlil misolida ham ko'rish mumkin. I-IV sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri-o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muxabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. shu boisdan ham mehnat ta'limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan.

SHu bilan birga darslarda bolalar odamlar mehnat faoliyatining asosiy sohalari bilan, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid eng ko'p tarqalgan kasblar bilan tanishtiriladi. O'qituvchi ilgari tuzgan kasbga yo'naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo'naltirish darsi oldiga maqsad qo'yib, kasbga yo'naltirishga oid ma'lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biron-bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat operatsiyalarini o'rgatishdan, kasb jihatidan muhim xislatlarini tarbiyalashdan, o'quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o'rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo'shib olib borishdan iborat bo'lishi mumkin.

Quyi sinflarning o'quvchilari xilma-xil materiallar (qog'oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog'och, fanera, plastmassa, tolali materiallar) bilan ish ko'radilar, ular ishlashga oid o'zlariga bop, ma'qul bo'lgan operatsiyalarni o'rganadilar. Ular texnik va texnologik tUSDagi masalalarni echishni o'rganadilar, turli materiallar hosil qilish va qo'llanish ishini, bu materiallarning odamlar turmushidagi ahamiyatini bilib oladilar, u yoki bu texnologik opratsiyalarni bajarish uchun

mo'ljallangan eng oddiy asboblardan foydalanish yo'llari bilan tanishadilar va foydalanishni o'rganadilar, tegishli kasblar to'g'risida ma'lumotlar oladilar. CHunonchi, o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan (transport) konstruktori bolalarni 18 xil turli transport mashinalari va kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi.

O'quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to'g'risida, qurilish bilan bog'liq bo'lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma'lumotlar oladilar, qurilish ob'ektlarini modellashtirishni o'rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, makonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga hurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi.

Texnik konstruktor bilan ishlash chog'ida bajariladigan topshiriqlar o'quvchilarni mashinasozlik elektrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, unchalik murakkab bo'lmagan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar, ana shu kasblarning mehnat mazmuni bilan tanishtiradilar.

“O'simliklarni o'stirish va hayvonlarni hayoti bilan tanishtirish” bo'limlari bolalarni qishloq xo'jalik asoslari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. O'quvchilar xonaki o'simliklarni parvarish qiladilar, piyoz, xonaki o'simliklar etishtirish yuzasidan tajriba o'tkazadilar. Ular maktab o'quv-tajriba uchastkasida ishlab, erda mehnat qiladilar; tuproqni yumshatadilar, o'simliklarning o'sishini kuzatadilar, o'z mehnatining natijalarini ko'radilar, odamlar mehnatini qadrlashni, erni e'zozlashni o'rganadilar.

O'quvchilar chorvachilik kasblari bilan ham tanishadilar, hayvonlarni to'g'ri parvarish qilishni o'rganadilar.

O'qituvchining o'quvchilarda erga omilkorlik bilan qarash hissini shakllantirishi, qishloq xo'jaligidagi mehnat to'g'risida to'g'ri tasavvur berishi, o'z mehnati va o'z jamoasi mehnati natijalaridan xursand bo'lishni o'rgatishi muhimdir. SHu boisdan ishni shunday rejalashtirish kerakki, bolalar chorva mollarni parvarish qiladigan, hosilni yig'ishtirib oladigan, mehnat natijalarini hisob-kitob qiladigan bo'lsinlar.

Bunday hollarda bolalarning ishga qiziqishi kuchayadi va kasbga yo'naltirish ishi alohida mazmun kasb etadi.

YUqori sinflarda o'quvchilar kasblar bilan professiogrammlar yordamida tanishadilar. kichik yoshdagi o'quvchilar uchun esa hikoya qilib berish, suhbatlar o'tkazish, kasb namoyondalari bilan uchrashish, diafilmlar, kinofilmlar ko'rish, albomlarni ko'zdan kechirish, sayohatlar o'tkazish ko'proq maqbuldir.

Bu sohada olib borilayotgan barcha ish shakllaridan suhbat o'tkazish hammadan ko'p foydalanilmoqda. Suhbat bolalarning faol ishtirokida o'tishi muhimdir. SHu maqsadda o'qituvchi kasblar to'g'risida, ayniqsa ota-onalari, qarindoshlari yoki tanish-bilishlari mazkur kasblari haqida ma'lumotlar to'plash yuzasidan o'quvchilarga topshiriqlar berishi mumkin. suhbatlar hikoya qilib berish, fotosuratlarini namoyish qilish, ta'limning texnik vositalarini qo'llanish bilan to'ldirishi mumkin. Informatika va hisoblash texnikasi imkoniyatidan foydalanish ayniqsa muhimdir.

Darsning amaliy qismi mazkur kasbdagi odamlarning mehnati bilan bog'lansa ayni muddao bo'lur edi. Masalan, "Tolali materiallar bilan ishlash" bo'limini o'rgana turib, o'quvchilar bichiqchi kasbi bilan tanishadilar; turli choklash ishlarini bajarib, tugmalar qadab, kiyimlarni mayda tuzatish ishlarini ado etib, olgan ma'lumotlarini mustahkamlaydilar.

O'quvchilarni dasturda ko'zda tutilgan kasblar bilan tanishtirishdan tashqari kasbini targ'ib qilish, ya'ni bolalarni ushbu hudud uchun zarur bo'lgan kasblar bilan tanishtirish, ularda yana shu kasblarga nisbatan hurmat-ehtiromni tarbiyalash, shu kasblarning jozibali jihatlarini ochib berish lozim.

Bu borada darslardan tashqari o'quv dasturida ko'zda tutilgan korxonalarga qilinadigan ekskursiyalar katta rol o'ynashi mumkin.

Kasbga yo'naltirish ishiga kompleks yondashish o'quvchilarni har tomonlama o'rganishni ham ko'zda tutadi. Bu tadbir o'quvchilar buyon ishlashning to'g'ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O'rganishni metodlar bilan o'tkazish, eng muhimi - bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish kerak.

Kuzatish - o'quvchilarni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta'limi darslari kuzatish o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin.

Quyi sinflarda o'tkaziladigan mehnat darslarida o'quvchilar faaoliyati natijalarini tahlil qilish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud. Chunki mehnatning turli ob'ektlarini tayyorlash chog'ida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari g'oyat ravshan namoyon bo'ladi: bir xil bola texnik konstruktorni yaxshi biladi, ikkinchi xil bola tikishda mahorat ko'rsatadi, uchinchi xil bola esa maktab uchastkasida o'z qobiliyatlarini namoyon etadi va h.k. O'quvchilarning hujjatlarini va amaliy ish - xarakterlarini tahlil qilish ham bola shaxsini o'rganishda o'qituvchiga yordam berishi mumkin.

O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining boladagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashimni muhimdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbga yo'naltirish ishi - o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik-shaxs etukligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o'quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularni ishga qiziqishni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg`ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo`naltirish ishida o`quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko`rsatib o`tish mumkin.

Birinchi bosqich (I-IV) sinflarning o`quvchilari bilan ishlash - moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnat bo`lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o`quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo`lishni, eng muhimi - jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo`lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo`ldan keladigan o`z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag`ishlashga va bundan ma`naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish eng ommalashgan kasblar to`g`risida qishloq maktablarining o`quvchilari uchun jamoa xo`jaligida, shahar maktablarining o`quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko`zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog`ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e`tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o`qitirib o`tiladi.

Ikkinchi bosqich (V-VII) sinflarning o`quvchilari bilan ishlash - biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma`lumki, ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchilarda bilishga bo`lgan qiziqish, odatda, kasbga bo`lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. SHu boisdan ushbu bosqichida kasbga yo`naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o`quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat ob`ektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo`lgan qiziqishni uyg`otish muhimdir. Kasbga yo`naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo`jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg`ulotlar, viktorinalar, o`yinlar katta rol o`ynashi lozim. Bu bosqichda o`quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo`naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich (asosan VIII-IX) sinflarning o`quvchilarini qarab oladi - bu bosqichida o`quvchilar o`z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko`radilar,

o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarining birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarni qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishning umumiy tizimida maktab tizimi dastlabki bosqich hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish ishi maktab tizimining vazifalari:

- shaxsning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashdan;

- politexnik va boshlang'ich kasbiy malakalarning muayyan tizimini egallagan bo'lg'usi malakali mutaxassisni tayyorlashdan;

- ham shaxsiy mehnat, ham jamoa mehnati muayyan tashkilotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kasb egallashgacha bo'lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga hozirlashga umumiy qismi bo'lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda o'rta maxsus yoki oliy ma'lumot olish jarayoni jadallashadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash - butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar va zavod jamoatchiligining ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. YOshlarni ma'naviy -psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e'tiqod bilan birga o'smirning shaxsi harakatlantiruvchi kuch kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslari va maktab yoshlarni boshlang'ich ishlab chiqarish tayyorgarligini kengaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ishchi kasblarini egallashga yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Mehnat tarbiyasi jarayoni birmuncha ilk bosqich amalga oshirilgan taqdirda bunga erishiladi.



O'rta va yuqori bosqich ta'limida davomiylik shu narsada ifodalanadiki o'quvchilar muntazam printsip asosida tuzilgan yagona dasturlar bo'yicha ishlaydilar. Bunday dasturlar asta-sekin murakkablashtirilib borishni, bilimlarni, ko'nikma va malakani, mehnatning muayyan usullarini egallashni ta'minlaydi.

Ta'lim va kasbga yo'naltirish bilan qo'shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko'p pedagogik samara beradi.

O'rta maktablarni tamomlab yoki kasb-hunar ta'limi tizimida, o'quv kombinatlarida zarur tayyorgarlikdan o'tib, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida darhol ishlay boshlagan yoshlarning soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Maktabda kasbga yo'naltirish sohasidagi hamma ishlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishini ta'minlash maqsadida maktab direktori raisligida kasbga yo'naltiruvchi kengash tuziladi.

Kengash tarkibiga maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet mudiri, mehnat ta'limi, o'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini kasbga yo'naltiruvchi o'qituvchi yoki tashkilotchi, bitiruvchi sinflarning minf rahbari, maktab kutubxonachisi, maktab o'quvchilar tashkilotining vakillari, maktab vrachi, ota-onalar qo'mitasining a'zolari, homiy korxonalar vakillari kiradi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning ish rejasi maktab kengashi ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning vazifalari kasbga yo'naltirish bo'yicha umummaktab va sinflarning tadbirlarini rejalashtirish va tashkil qilishdan, kasbga yo'naltirish ishiga oid ilg'or tajriba ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat. Kasbga yo'naltiruvchi kengash tuman maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, yoshlarni kasbga yo'naltirish va ishga joylashtirish komissiyasi, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari, bazaviy korxonalar va tashkilotlar, o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab turadi.

Kasbga yo'naltirish ishini rejalashtirilgan chog'da kengash mahalliy sharoitlarni va maktab ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kengashning

kasbga yo'naltirish ish rejasi maktab ta'lim-tarbiya ishi umummaktab rejasining tarkibiy qismidir.

Kasbga yo'naltirish kengashining majlislariga muassasalar, homiy korxonalar, oliy o'quv yurtlarining vakillari, balog'atga etmaganlar ishi bo'yicha komissiya a'zolari mehnat resurslaridan foydalanish o'rganlarining vakillari taklif qilinadilar.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishini o'tkazgan chog'da maktab xodimlari va maktab ma'muriyatining vazifalari o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid yo'riqnomalar, buyruqlar, qarorlar bilan tanishishdan, ilmiy-metodik adabiyotni o'rganishdan, chiqarilgan metodik tavsiyanomalarni o'rganish va o'z ishlarida foydalanishdan iborat.

Sinf rahbarining vazifalari avvalo o'quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning mayillari, qiziqishlari, qobiliyatlarini chuqur va har tomonlama o'rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o'qituvchilari, ota-onalar bilan, savol varaqasini to'ldirish va o'quvchining shaxsiy varaqacha-tavsifnomasini to'ldirgan holda uni muntazam ravishda kuzatish yordam beradi. Sinf rahbari o'quvchining shaxsini o'rganish negizida muayyan dastur asosida bir maqsadga qaratib kasbga yo'naltirish ishini olib boradi. Bunda sinf soatlaridan, fakultativ mashg'ulotlardan va ekskursiyadan foydalaniladi. Kasbga yo'naltirish ishi o'quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada o'tkaziladi.

O'quvchilar yiliga bir marta savol varaqasini to'ldiradi. Bundan maqsad-o'quvchilarning hayotiy rejalarini aniqlab olishdir. Sinf rahbarlari savol varaqasini asosida o'quv yili oxirida kasbga yo'naltiruvchi maktab kengashiga topshirish uchun u yoki bu kasbni ongli ravishda tanlagan yoki zarur malaka darajasi bo'yicha kasb egallagan hamda o'qish va ish xususidagi o'z istaklarini bildirgan o'quvchilarning ro'yxatlarini tuzadilar.

O'quvchilar mehnat ta'limi darslarida mehnatning har xil turlariga oid bilimlarnigina olib qolmay, shu bilan birga o'z faoliyatlari jarayonida maxsus malakalarga ham ega bo'ladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar, mehnatda o'z kuchlarini sinab ko'radilar. SHu boisdan mehnat ta'lim o'qituvchisi mehnat darsini

shunday tashkil qilishi kerakki, toki har bir o'quvchi mehnatni sevisini o'rganib olsin, odamlarga naf keltiradigan bo'lsin, ish jarayonidan va uning natijalaridan zavqlansin.

Mehnat o'qituvchisi o'z ishida bilim va malakani egallashda o'quvchilarga eng ko'p faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Laboratoriya - amaliy, o'quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari, tajribasi shunday ish shakllari va metodari jumlasiga kiradi. bu ishlar mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni o'z ichiga oladi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'qituvchi kasb qilib olingan mehnat to'g'risidagi ma'lumotlarni konkret mavzularni o'rganish bilan mantiqiy bog'lashi mumkin. CHunonchi, elektrotexnika fizikasi va bo'limini o'rgangan chog'da o'qituvchi xalq xo'jaligada elektr quvvatining roli va ahamiyatini, uni ishlab chiqarish hamda iste'molchiga etkazib berish usullarini ko'rsatishi, shuningdek ushbu tarmoq kasblari uchta katta guruxda bo'lishni tushuntirib berish mumkin. Birinchi guruxga elektrotexnika uskunalari, mashinalari, apparatlari va asboblarni ishlab chiqarish bilan bog'liq kasblar (elektrotexnika mashinalarini yig'uvchi slesar, sozlovchi slesar o'rovni elektromontyor, izolyatsiya qiluvchi va shu kabilar); ikkinchi guruxga elektr quvvati uzatish bilan bog'liq kasblar (podstantsiyalarning elektromantoyori, elektr tarmoqlarini ishlatuvchi elektromontyor va shu kabilar); uchinchi guruxga elektr quvvatidan foydalanish bilan bog'liq kasblar (elektromontajchi slesar, ta'mirchi elektromontyor va shu kabilar) kiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchining shaxsi juda katta rol o'ynaydi.

O'qituvchining shaxsi - o'qituvchining ijodiy rivojlanishini, yuksak pedagogik mahoratini, ishda doimiy novatorligini, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar majmuidir. Ayni shunday o'qituvchi o'quvchilarda o'ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas tug'diradi, o'ziga o'xshash bo'lish, u bilan do'stlashish eng ezgu istaklar, istiqbol to'g'risidagi, o'z kasbi haqidagi orzularni baham ko'rish ishtiyoqini yaratadi.

Maktabda qiziqishlar bo'yicha o'tkaziladigan xilma-xil mashg'ulotlar orasida to'garak ishi alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda to'garaklarning asosiy ko'pchiligini mehnat ta'limi o'qituvchilari olib boradi.

Bular - ishlab chiqarish - texnika to'garaklaridir. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarda ixtirochilik, konstruktorlik singari maxsus qobiliyatlarni ijodiy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega.

Mehnat ta'lim o'qituvchisi o'quvchi shaxsini o'rgangan chog'da kasbga yo'naltirish maqsadida quyidagi qoidalarga: shaxs kamol topadigan konkret vaziyatda konkret jamoada shaxsning xulq-atvorini kuzatish; faoliyat orqali shaxsni o'rganish; shaxsni qandaydir qotib qolgan narsa tariqasida emas, balki taraqqiyotda ko'rib chiqish; shaxsning vaqtincha psixologik holatini, o'rtoqlariga munosabatini hisobga olish kabi qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining ishida psixologik diagnostikasiga katta o'rin ajratiladi. Psixologik diagnostika jarayonida u maktab, kasb-hunar kolleji kasb maslaxatchisi bilan birgalikda har bir o'quvchining kelgusidagi kasbni tanlashi jarayonida shaxsiy xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

SHunday qilib, mehnat ta'limi o'qituvchisi ishida quyidagi yo'nalishlarni;

- kasbga oid bilimlar - o'quvchilarni mehnat faoliyati sohalari, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish;

- psixologik pedagogik maslahat - mehnat faoliyatining turlari to'g'risida, o'quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o'quvchiga gapirib berish;

- kasb tarbiyasi - o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarini shakllantirish;

- amaliy kasbiy ko'nikish - mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchining shaxsini o'rganish, mehnatga bo'lgan qiziqishlarni va kasbga qiziqishlarni shakllantirish kabi yo'nalishlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbga yo'naltirish ishi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarning butun bir kompleksi bilan, shu jumladan kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet faoliyati, sinf rahbarining, fan o'qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilar bilan mahkam bog'langandir. Mehnat o'qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog'lamay turib samarali ishlashi mumkin emas.

Mehnat ta'limi darslarida kasbga yo'naltirish ishini olib borgan o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ham hisobga olish lozim.

Maktabda har bir o'quv fani o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni amalga oshirishdagi o'ziga xos imkoniyatlariga ega, lekin u mehnat turlari, kasblarning xilma-xilligi va shu kabilar to'g'risida o'quvchilar bilimlarini shakllantirishning birdan bir manbai bo'lishi mumkin emas. SHu sababdan ham kasbga yo'naltirish ishida mehnat o'qituvchisining faoliyatini sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirish g'oyat muhimdir.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kasbga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish uchun:

- fan asoslarini o'qitishning, mehnat ta'limining va fakultativ mashg'ulotlarning fanlararo aloqalarini, davomiyligini, politexnik va kasbga yo'naltirish yo'nalishini ro'yobga chiqarish;

- politexnik ma'lumot, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishning o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnati bilann o'zaro aloqasini ta'minlash;

- o'quvchilarning bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarni bajarishlari;

- xalq xo'jaligining turli sohalarida o'quvchilarning qiziqishini rivojlantirishga shaxsiy, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;

- o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sohasida maktab o'qituvchilari bilan ishlab chiqarish jamoalarining birgalikda ish ko'rishi;

- sanoat qishloq xo'jalik kasblarini targ'ib qilish lozim.

Tabiiy - matematik turkum fanlarni o'rgangan chog'da o'quvchilar konkret iqtisodiy hududdagi etakchi kasblar bo'yicha mehnat mazmuni bilan tanishish, ana shu

kasblarni muvoffaqiyatli egallash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni olish imkoniyatiga egadirlar.

Maktab o'quvchilari gumanitar fanlar bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda kasb tanlash masalalarida g'oyaviy-axloqiy, dunyoqarashga oid bilim oladilar.

**Mavzu yuzasidan test savollari:**

***1. Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar nechanchi sinflarda amalga oshiriladi?***

- A) 5-6 sinflarda
- B) 7-8 sinflarda
- C) 8-9 sinflarda
- D) 5-7 sinflarda

***2. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari qaysi muassasa tomonidan bosqichma-bosqich va muntazam ravishda amalga oshiriladi?***

- A) Umumiy o'rta ta'lim maktablarida
- B) Kasb-hunar kollejlarida
- C) Kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazida
- D) Akademik litseylarda

***3. Kasb-hunarni tanlash, egallash va ulardan foydalanish haqida O'zbekiston Respublikasining qaysi bob va moddasida bayon qilingan?***

- A) IX bob, 38-moddasida
- B) IX bob, 37-moddasida
- C) X bob, 38-moddasida
- D) X bob, 37-moddasida

### **§ 3. TA`LIM JARAYONI KASBIY YO`NALGANLIGINI TA`MINLASH**

Ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli sohalar bo'yicha etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asarlarida va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta e`tibor berilgani bejiz emas.

Bu vazifani hal qilishda yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'llash, ularga to'g'ri maslahatlar ko'rsatish va o'z ijodiy qobiliyatlari darajasidagi kasbni egallashlari uchun shart-sharoit yaratish lozim.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun kasb tanlashga ta`sir etuvchi omillar mohiyatini bilmoq lozim. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim — tarbiya tizimida kasbga yullash faoliyatining mazmuni metodikalari majmuasini mukammal ravishda mujassamlashganligi.

Maktab ma`muriyati, sinf rahbariyatlari, amaliy psixolog va kasbga yo'llovchi fan o'qituvchilarining ish rejasida mazkur masala joy olganligi. SHuningdek, bu muammoga taalluqli ishlar, tadbirlar izchil amalga oshirilib turilishi, ularning

ta'sirchanligiga e'tiborning ortishi tufayli o'quvchi yoshlar orasida bu sohada tasavvur ko'lamining kengayishi. Rasmiyatchilikdan chekinib, umumiy va zaruriy masala

2. O'quvchilarning kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.

Alohida olingan fan o'qituvchilari va turdosh fanlarning namoyondalari jamlanmasi hamkorlik ish rejasyda kasbga yo'llash masalasining izchil ravishda qo'yilishi, har bir mavzu bo'yicha muloha almashishda, qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar ixtisosga oid bilimlarga e'tibor berilishi kasbiy tasavvurni vujudga keltiradi. Kasb - hunar mohiyati bilan tanishish unga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, mustaqil bilim olishga ishtiyoq paydo bo'ladi va odat maromiga aylana boradi. Maxsus tadbirlar o'tkazilishi, kasb nufuzi bilan tanishtirilishi kasbiy motivlar va motivatsiyalarni takomillashtirada, moyillik tuyg'usini uyg'otadi.

3. Sinf rahbarining ota - onalar bilan hamkorligini ongli kasb tanlash negizi ekanligi.

Sinf rahbari ota - onalar bilan individual va guruxlik hamkorlikni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qilsa, yuqori ko'rsatgichga erishishi mumkin: o'kuv faninig kasb tanlash bilan bog'liqligi, kasbning nufuzi, kasb tanlashning psixologik asoslari, kasbga nisbatan qiziqish, havas, qobiliyat, iste'dod kasbga yo'llashning asosiy maqsadi va vazifalari, professiogramma mohiyati, kadrlarga va mutaxassislarga nisbatan extiyoj darajalari, kasbning ijtimoiy ahamiyati, layoqatining umumiy va xususiy ko'rinishlari, o'quvchilar individual xususiyatlari, ilmiy manbalari, maktab psixologining bu sohadagi funktsiyasi va boshqalar.

4. Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.

YOshlar tashkiloti faoliyatida kasb tanlash masalasining ustivorligi, o'quvchilarning turli fondlarga jalb qilinishi, iste'dodlarning saralanishi, mukofotga tortilishi, moddiy va ma'naviy taqdirlanishi kabilar.

5. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi.

6. Maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda ishlar yo'lga qo'yilishi.



7. Maxsus muassasalar faoliyati.
8. Kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.
9. Ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi.
10. Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.

Kasbga yo'llash umumdavlat ahamiyatiga ega muammo hisoblanib, uni bosqichma bosqich amalga oshirish "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da alohida o'rin egallaydi.

YUqorida kasb tanlashga yo'llash omillari faoliyatini hamkorlikka aylantirish yuksak samaralar sari etaklaydi.

Bu borada ta'kidlash zarurki, magistrantlar o'zining ilmiy izlanishi va ilmiy-pedagogik faoliyatlarida O'zbekiston mustaqillik davrining dastlabki paytidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13 may, 203-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim dasturlarini tayyorlash, sinab ko'rish va joriy etish bo'yicha Respublika komissiyasi"ning 1998 yil 26 maydagi yig'ilishi Bayon qaroriga ko'ra hamda ta'lim standartlari va uning asosida ishlab chiqilgan tajriba o'quv dasturlarini ta'lim jarayonida sinab ko'rish mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'limni isloh qilish yuzasidan tashkil etilgan tadbirdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim islohotiga taaluqli bo'lgan qarorlari ijrosi yuzasidan ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni pedagogik amaliyotga joriy etish yo'llarini belgilashda:

1. O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy, ijtimoiy, iqtisodiy va milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olib, umumiy o'rta ta'limda tajriba-sinov ishlarining yangicha pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi;

2. Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilimlarini oshirib borishlari, asosiy o'quv ilmiy va umummadaniy bilimlarini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaminida har bir fanning tajriba-tekshiruv faoliyatini tashkillashtirish lozimligini ta'kidlanadi.

3. Tajriba-sinov materiallaridan amaliyotda foydalanish haqida ob`ektiv baholash va xulosa chiqarish talab etiladi.

4. Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida bolalarda ro'y beradigan hamma o'zgarishlarni yozma qayd qilib borish tavsiya etiladi.

5. Bolalar faoliyatini faollashtirib ularning erkin fikrlashlarini va har tomonlama kamol topishlarini ta`minlash, o'quv tarbiya jarayonining asosiy negizi deb hisoblanadi.

6. Bolalarning imkoniyatlarini, iqtidorlarini hisobga olib, ularda o'qishga hoxish-istaklarini uyg`otish, ma`naviy yuksalish darajasiga ko'tarishni ta`kidlaydi.

7. Umumta`lim maktablari o'quvchilarida bilim berish jarayonida fanlar majmuasida mehnat ta`limi va kasb tanlash negizidagi bilimlarni, malaka va tushunchalar tizimini, ijodiy faoliyat tajribasini, shaxsning muhim sifatlarini shakllantirish zarurligini ta`kidlanadi.

8. Tajriba-sinov jarayonida sodir bo'ladigan har bir tasodif va o'zgarishlarni qayd qilib borishni talab etiladi.

SHu asoslarga tayangan holda magistrantlar o'qish jarayonini kasbiy yo'nalganligini ta`minlashga qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Bu borada barcha umumta`lim fanlari, ayniqsa mehnat ta`limi negizidagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish imkoniyatlaridan to'la va unumli holatda foydalanish muhimdir.

Bu borada ta`kidlash zarurki, magistrantlar qayd etilgan 1-9 sinflar bo'yicha mehnat ta`limi, kasbga yo'llash hamda kasbkorlikka xos materiallarni, o'zlarining ilmiy izlanish va ilmiy-pedagogik faoliyatlari nuqtai nazaridan "Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" faniga xos: pedagogik fanlar tuzilmasi, undagi mantiqiy hamda tarixiy-pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishning shakl va metodlari; tadqiqotlarni amalga oshirishda tizimli yondoshuv va majmuaviy tadqiqotlarni amalga oshirish texnologiyaga binoan yakunlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur izlanishda o'quvchilar kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, tanlagan kasbga moslashtirish kontseptsiyalarini modellashtirish ishlarini bajarishiga alohida e`tiborni kuchaytirishlari lozim. Ularning diqqati kasbiy-pedagogik bilimdonlikka yo'nalgan bo'lishi lozim.

Kasbiy- pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig`ining yaxlitligiga va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko`ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonunityalari va yo`nalishlarini tushunish imkoniyatini ta`minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatini konstruktsiyalashni osonlashtiradi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to`rtta komponenti bilan tavsiflanadi:

- SHaxsga, insonga yo`nalganlik;
- Pedagogik voqeolikni izchil idrok etashi;
- Fan sohasiga yo`nalganlik;
- Pedagogik texnologiyalarni egallash.

Kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) - kasbiy ishning butun tizimida yakunlovchi bosqichdir. Ayni shu bosqichda xodimning tanlagan kasbga uzil-kesil muvofiqligi yoki nomuvofiqligi aniqlanadi. Lekin kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) metodlaridan kasbga yo`naltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin, deb hisoblash noto`g`ri bo`lur edi. U yoki bu kasbning egallagani holda dastlabki tibbiy-fiziologik va psixologik ko`rikdan o`tmagan yigit yoxud qizga tanlagan kasbi zid bo`lishi ham mumkin. SHu boisdan kasb tanlash boshlang`ich bosqichda ham, shuningdek yakunlovchi bosqichda ham o`tkazilishi lozim.

Kasbga yaroqlilik - mazkur kishining ushbu kasb bo`yicha mehnat vazifalarini bajarishi uchun yaroqli yoki yaroqsizligini qayot qilishdangina iborat emas, albatta. Kasbga yaroqlilikni boshqa jihatdan ham:

- 1) odam o`zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo`qligi;
- 2) hayot yo`lini tanlagan chog`da u nimalarga amal qilishi lozimligi;
- 3) uni o`qitish masalasiga qanday qilib bir muncha oqilona yondashish, ya`ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib g`oyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham ko`rib chiqish kerak.

Boshqacha qilib aytganda, u yoki bu kasblarni egallashga harakat qilayotgan odamlarning tibbiy ko`rsatkichlari bilan bir qatorda ularda diqqat, tafakkur, psixomotorika va shu kabi psixik funktsiyalarni rivojlantirish bilan bog`liq muayyan psixologik kayfiyatni ham shakllantirish shaxs fazilatidir. Kasbga yaroqlilikni

odamning kasbga nisbatan qo'yilgan talablarga mos bo'lgan tug'ma yoki hosil qilingan psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi deb qarash yaramaydi. Faqat ba'zi kasblar (sozanda, rassom va shu kabilar) uchun muayyan tabiiy ma'lumotlar talab qilinadi. SHu boisdan psixolog, mehnat o'qituvchisi va boshqalarning vazifasi o'quvchi kasb (mutaxassislik)ni yoki o'quv yurtini to'g'ri yoki noto'g'ri tanlaganini; tanlagan kasbi yoki o'quv yurti uning mayllari yoki qobiliyatlariga mos yoxud mos emasligini; kasbni yoki o'quv yurtini tanlash vajlari, ota-onalarning, o'qituvchilarning va shu kabilarning fikri qanday ekanligini aniqlashdan iborat. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari ana shunday ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishda o'qituvchilar va sinf rahbarlari; ota-onalar kengashi; to'garaklarning rahbarlari bevosita ish olib boradilar. Maktabdan tashqari muassasalar, odatda, qiziqishlari va mayllari etarli darajada namoyon bo'lgan bolalarni birlashtiradi. Bunday bolalarda ijodkorlik va tashabbus ruhi ustunlik qiladi, ular amaliy faoliyatining xususiyati esa muayyan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Maktabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar uyi, bolalar kutubxonalari, yosh tabiatshunoslar jamiyatlari, ratsionalizatorlar byurolari va shu kabilar) kasbga yo'naltirish umumiy ishi tizimida faol qatnashadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishda o'quvchilarning maxsus qiziqishlari shakllanadi va ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Bular umumiy ta'limni va mehnat politexnik ta'limini to'ldiradi, o'quvchilarda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishga yordam beradi, xalq xo'jaligi turli tarmoqlari bilan tanishishni kengaytiradi, o'quvchilarni qiziqtiradigan kasblar va mutaxassisliklarni, avvalo, o'z tumani, viloyatidagi kasblar va mutaxassisliklarni chuqur bilib olishga imkon beradi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha fakultativ kurs kasbga oid ma'lumot olish, uzil-kesil kasb tanlash, real ishga joylashish masalalari yuzasidan o'quvchilarga maslahat berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi shakllarini bir qancha belgilarga qarab quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

I. O'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadigan o'quvchilar soni qarab:

1. Bir necha parallel sinflar, aralash sinflar qatnashadigan tadbirlar.
2. YAkka-yakka o'quvchilar qatnashadigan tadbir.

## II. Tashkil etish usullariga qarab:

1. YAlpi tadbirlar - lektsiyalar, yig'ilishlar, konferentsiyalar, olimpiadalar, kinofilmlarni ko'rish; tematik kechalar, ishla chiqarish ilg'orlari bilan o'tkaziladigan uchrashuv kechalari; kasb bo'yicha kalendar kunlari.

2. Guruxiy tadbirlar - ekskursiyalar, maslahatlar, kasblar bo'yicha tanlovlar, yosh texniklarning musobaqalari, korxonalar va etakchi kasblar bilan tanishish maqsadida jonajon o'lka bo'ylab sayyohlik yurishlari.

3. YAkka-yakka o'tkaziladigan tadbirlar - kasb haqida maslahat beriladigan suhbatlar, kasb to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni o'qish, uchrashuvlar, konstruktorlik, tajriba ishi yuzasidan yakka tartibda beriladigan topshiriqlar; o'quvchini qiziqtiradigan fan va texnika sohasini chuqurlashtirish va rivojlantirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash.

## III. Mazmun manbalariga qarab;

Kasblar bilan tanishtirish; sayohatlar, malakali ishchilar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar, o'qituvchining hikoyasi yoki suhbat, kinolardan lavhalar, fotosuratlar, jurnal va gazetalardan olingan maxsus materiallarni namoyish qilish uchun proeksion apparatlardan foydalanish; taklif qilingan ishlab chiqarish ishchisini suhbat; kasblar haqida ma'lumotnomalar bilan tanishish; mehnat va ishlab chiqarish ta'limi bilan bog'liq kasblar to'g'risidagi ochrklarni o'qish; mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazish yordamida axborot materiallarini to'plash; fotosuratlar, fotoalbomlar ko'rsatish; ishlab chiqarish sharoitida malakali ishchilar kasbiy faoliyati to'g'rsidagi kinofilmlarni namoyish qilish; bazaviy xo'jalikda ishlab chiqarish tajribasi vaqtida kasblar bilan tanishish.

## IV. Kasbga yo'naltirish tadbirlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'yicha;

“Kasb egallash uchun qaysi ta'lim muassasasida tahsil olish kerak” ma'lumotnomasining nashr etish, kasblar va kasb-hunar kollejlari haqidagi plakatlar, e'lonlar, reklama varaqalari; mazkur iqtisodiy mintaqada mavjud kasblarning qisqacha tavsiflari bo'lgan to'plamlar; “Mehnat yo'lini tanlash”, “Mening kasbim - eng yaxshi

kasb” mavzusidagi kinofilmlar; reklama qilinadigan televizion filmlar, tsexlar, o’quv yurtlaridan olingan televizion reportajlar; kasblar va musobaqa ilg`orlari to’g`risida radioeshitirishlar, kasb-hunar kollejlari yoshlarining turmush va o’qishi haqida hikoya qiluvchi respublika va mahalliy gezatalarida chop etilgan maqolalar; katta ko’chalarning chorrahalarida kasblarini targ`ib qiluvchi stendlar va ko’rgazmalar; ko’chalar va maydonlardagi yoshlarni kasb-hunar kollejlariga o’qishga kirishga da`vat etuvchi yorqin bo’yoqli chaqiriqlar.

Maktab kasbga yo’naltirish ishi tizimini tarkib toptirish hali nihoyasiga etkazilgani yo’q. Kasbga yo’naltirish tizimi tarkibiy tuzilishi kasbga yo’naltirish maqsad va vazifalarini; maktab ta`limi bosqichlari bo’yicha uning mazmunini; homiy korxonalar, ota-onalar jamoatchiligi ishtirokida kasbga yo’naltirish ishining yo’nalishlarini; kasbga yo’naltirish tadbirlarini amalga oshirish shakllari, metodlari va vositalarini; muayyan ishchi kasblari bo’yicha unumli mehnatda maktab yoshlari ishtirokining konkret yo’llarini o’z ichiga olishi lozim.

O’rta maktabda o’quvchilarni kasbga yo’naltirishni rivojlantirish quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bular:

- I. Xalq xo’jaligi tarmoqlari bilan umumiy tanishtirish.
- II. Ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodiyotini umuman o’rganish.
- III. Kasblarning asosiy guruhlarini bilan tanishtirish.
- IV. Viloyat, tuman taraqqiy etgan biron tarmoqning, bazaviy korxonaning tanlagan kasbini dastlabki egallash bosqichlaridir.

Kasbga yo’naltirish maktab tizimining asosiy printsiplari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

a) Kasbga yo’naltirish har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning rejali ravishda amalga oshiriladigan uzviy qismi sifatida;

b) Ijtimoiy ishlab chiqarishning haqiqiy talabi asosida mehnat yo’lini tanlashning shaxsiy va ijtimoiy muammosini to’g`ri hal qilish;

v) Kasbga yo'naltirishning og`zaki metodlarini atrof-tevarakdagi korxonalar etakchi ishchi kasblari asoslarini egallash borasidagi konkret amaliy harakatlar bilan qo`shib olib borish;

g) maktabdagi barcha darslarda kasbga oid bilimlar va kasbni targ`ib qilishning pog`onali tuzilishi;

d) maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikdagi kuch-g`ayratlari bilan ishchi kasblariga qiziqishni tarbiyalashning faol metodlari.

Namunaviy dastur talablariga muvofiq har bir o`quv fani bo`yicha darslar mazmunini hisobga olib, kasbga yo'naltirishni sinfdan sinfga rejalashtiri masalalari eng murakkab ishdir.

Ommaviy maktablarda kasbga yo'naltirishning amaliy vazifalarini hal qilishga sistemali yondashish usuli qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirishning sinflar bo`yicha asosiy mazmuni quyidagicha bo`lishi mumkin;

Boshlang`ich sinflarda: atrof-tevarakdagi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va tabiatdan foydalangan holda mehnat faoliyati turlari bilan tanishtirish.

O`rta sinflarda: umumiy ta`lim turkum o`quv fanlari darslarida og`zaki metodlar yordami bilan hamma ishlarni o`z ichiga oladigan va birga qo`shilgan kasblarning asosiy guruhlari bilan, mehnat ta`limi darslarida esa metall ishlash, elektrotexnika, yog`ochga ishlov berish kasblari mehnat usullari bilan ko`rgazmali tanishtirish.

YUqori sinflarda: konkret ishchi kasblari asoslarini egallagan holda ishlab chiqarishning konkret sohalari negizida kasbga yo'naltirish.

SHunday qilib, ko`rib chiqilgan tarzdagi kasbga yo'naltirish maktab tizimi mazkur muammoning hamma jihatlarini qamrab olish imkonini yaratadi, hozirgi sharoitda tuman, shahar, viloyat va respublika doirasida yangi iqtisodiy tafakkur asoslarini hal qilishni hisobga olib, uni takomillashtirish yo'llarini belgilashga yordam beradi.

Maktab yosh avlodga barvaqt kasb-hunar o`rganish printsiptini rad etib, o`quvchilarning shaxsiy iste`dod nishonalari va qiziqishlarini har tomonlama rivojlantirishga intiladi, maktab o`quvchilari jamiyatga naf keltiradigan faoliyatga

qiziqishni, kasb tanlashga tayyorlash uchun negiz bo'lib xizmat qiladigan qiziqishni tarbiyalaydi. Bu esa mehnat tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biridir.

Maktab o'quvchilarga fan asoslaridan mustahkam bilim berishi, ularda dunyoqarashni hamda ish-harakat va hulq atvorda umuminsoniy yo'nalishlarni shakllantirishi lozim.

Darhaqiqat, maktab o'smirlarning shaxsiy qiziqishlari, iste'dod kurtaklari va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil ishlarni tashkil qilib, bola shixsini har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashadi, sevimli ishni aniqlab olishga yordam beradi. Xo'sh, maktab o'quvchilarining kasb-korlik masalasini muvaffaqiyatli hal qilish uchun barcha zarur ma'lumotlar bera oladimi, har bir o'quvchida kasb tanlash muammosiga puxta o'ylab munosabatda bo'lish his tuyg'usini tarbiyalay oladimi, shu muammoni hal qilishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib bera biladimi?

Afsuski, hozirgi vaqtda ko'pgina maktablar ana shu vazifani eplay olmayaptilar. Sakkizinchi sinflarning o'quvchilarigina emas, balki bundan yuqori sinflarning o'quvchilari ham kasb tanlash masalasiga ko'pincha chuqur o'ylab, jiddiy munosabatda bo'lmayaptilar. Ko'pgina maktablarda "Men kim bo'lmoqchiman" mavzuida o'tkazilgan anketa va ro'znoma sahifalarida hamda boshqa vositalarda iste'dod mavzuida davom etayotgan munozara ana shundan dalolat bermoqda.

O'quvchilarning qaytargan javoblarini tahlil qilish shuni ko'rsatadi, ularning kelgusida egallashi mumkin bo'lgan kasblari sinfdan-sinfga o'tishlari bilan o'zgarib turadi. Ko'pincha o'quvchi o'zining fiziologik, psixologik yoki aqliy imkoniyatlariga tamomila mos bo'lmagan kasb to'g'risida orzu qiladi. SHunday hollar ham bo'ladiki (bunday hollar kam emas), maktab o'quvchisi kelgusida kim bo'lishni umuman bilmaydi, buni oldindan ham o'ylab ko'rmagan.

Biroq, o'smirlarning "Men kim bo'lishni hoxlayman" degan savolga qaytargan javoblari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshqa bir narsa orzu qilinayotgan kasblar to'g'risida ularning g'oyat noaniq tasavvurlari va kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorgarchilik ko'rish munosabati bilan o'z burchlari haqida muayyan tasavvurga ega emasliklari fikr yuritishga majbur etmoqda.



Ko'pgina o'quvchilar o'z insholarida bo'lg'usi kasbga tayyorgarlik ko'rish borasida hozircha hech bir ish qilmayotganliklarini oshkora yozmoqdalar. Ularning ba`zilari u yoki bu kasbga tayyorgarlik ko'rish uchun umuman nima qilish uchun aytib o'tishga urinadilar-u, lekin o'zlari nima qilayotganliklari haqida lom-mim demaydilar.

Odatda javoblar quyidagichadir: “SHifokorning irodasi kuchli bo'lishi, qo'llari yumshoq va muloyim bo'lishi lozim, men esa shifokor bo'lish uchun ko'p narsani bilimshim va hamma narsani qila olishim kerak” yoki “O'qituvchi, shifokor yoki injener bo'lish uchun yaxshi o'qish, boadab, halol, intizomli bo'lish kerak, biz hammamiz bunga erishishimiz zarur”. Bundan ham umumiy tarzdagi javoblar bor. Bu javoblarda shunday deyilgan: “U yoki bu kasbni egallash uchun uzoq vaqt davomida astoydil ishlash kerak” yoki “Buning uchun esa ko'p narsani bilish lozim, demak yaxshi o'qish zarur”.

Ammo shunday o'quvchilar borki, ular u yoki bu kasb to'g'risida orzu qilibgina qolmay, balki bu haqda ko'p narsalarni bilishga ham intiladilar, shu kasb bilan bog'liq bo'lgan kitoblarni o'qiydilar. Biroq, ular zarur adabiyotni ko'pincha tanlab olishni bilmaydilar, tasodifiy kitoblarni o'qiydilar, ularni o'qigan chog'larida nimalarga e'tibor berish kerakligini bilmaydilar.

CHunonchi, ularning ba`zilari insholarida ko'p kitob o'qiyotganliklarini umumiy tarzda bayon qiladilar, boshqalari esa “barcha fanlarga oid” yoki muayyan fan bo'yicha, masalan, fizika, kimyoga doir adabiyot o'qiyotganliklarini aytadilar. Birmuncha aniq javoblar ham bor: “Salomatlik to'g'risidagi oynomani o'qidim”, “Opamning X sinf uchun mo'ljallangan astronomiyaga oid darsligini o'qiyman, ko'p narsalarni tushunmayapman, ro'znomalarda bosilayotgan raketa, yo'ldosh haqidagi xabarlarni o'qiyman” (astronom bo'lishni orzu qiladi), “Bolalar haqidagi va bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarni o'qiyman” (o'qituvchi bo'lmoqchi), “Adabiyotga oid kitoblarni o'qiyman”, “Dvigatellar to'g'risidagi adabiyotni o'qiyman” va h.k.

Ko'pgina o'quvchilar kasblar bilan tanishishni shu kasblar haqidagi adabiyotni o'qish bilan cheklaydilar, mazkur faoliyatga bo'lgan o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini barqarorligini tekshirib shug'ullanishga urinib ko'rmaydilar, u yoki bu

kasb uchun zarur bo'lgan o'z qobiliyatlarini qanday qilib rivojlantirish va boshqarish kerakligini bir tomonlama, sodda tasavvur qiladilar.

### **Mavzu yuzasidan test savollari:**

***1. Kadrlar tayyorlash masalasiga qaysi me'yoriy hujjatda katta e'tibor berilgan?***

- A) Pedagogik ta'lim kontsepsiyasida
- B) Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida
- C) Davlat ta'lim standartlarida
- D) O'quv dasturlarida

***2. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillarga nimalar kiradi?***

A) O'quvchilarning kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi, sinf raxbarining ota - onalar bilan xamkorligini ongli kasb tanlash negizi ekanligi, kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi, maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda ishlar yo'lga qo'yilishi, maxsus muassasalar faoliyati, kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi, ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi, kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

B) Ta'lim — tarbiya tizimida kasbga yullash faoliyatining mazmuni metodikalari majmuasini mukammal ravishda mujassamlashganligi, o'quvchilarning kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi, sinf raxbarining ota - onalar bilan xamkorligini ongli kasb tanlash negizi ekanligi, kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi, maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda ishlar yo'lga qo'yilishi, maxsus muassasalar faoliyati, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi, kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

C) Ta'lim — tarbiya tizimida kasbga yullash faoliyatining mazmuni metodikalari

majmuasini mukammal ravishda mujassamlashganligi, o'quvchilarning kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi, sinf raxbarining ota - onalar bilan xamkorligini ongli kasb tanlash negizi ekanligi, kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi, maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda ishlar yo'lga qo'yilishi, maxsus muassasalar faoliyati, kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi, ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi, kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

D) Ta`lim — tarbiya tizimida kasbga yullash faoliyatining mazmuni metodikalari majmuasini mukammal ravishda mujassamlashganligi, sinf raxbarining ota - onalar bilan xamkorligini ongli kasb tanlash negizi ekanligi, kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi, maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda ishlar yo'lga qo'yilishi, maxsus muassasalar faoliyati, kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi, ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi, kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniyaning ishtiroki.

***D. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik qanday komponenti bilan tavsiflanadi?***

A) SHaxsga, insonga yo'nalganlik; pedagogik voqeolikni izchil idrok etashi; fan sohasiga yo'nalganlik; pedagogik texnologiyalarni egallash.

B) Pedagogik voqeolikni izchil idrok etashi; fan sohasiga yo'nalganlik; pedagogik texnologiyalarni egallash.

C) SHaxsga, insonga yo'nalganlik; fan sohasiga yo'nalganlik; pedagogik texnologiyalarni egallash.

D) SHaxsga, insonga yo'nalganlik; pedagogik voqeolikni izchil idrok etashi; fan sohasiga yo'nalganlik.

#### **§ 4. KASBGA YO'NALTIRISH ISHLARINING TIPLARI HAMDA TASHKILY SHAKLLARI**

Hozirgi vaqtda har bir maktab va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha xonalar va burchaklar tashkil qilingan. Bularning ishida o'qituvchilar, shifokorlar, turli kasbdagi mutaxassislar, kasb-hunar kollejlari, jamoa xo'jaliklari, davlat korxonalari qatnashadilar.

Tumanlar va shaharlardagi kasbga yo'naltiruvchi kabinetlar korxonalarda, qurilishlarda, jamoa xo'jaliklarida kasb haqida maslahat beruvchi punktlarning faoliyati metodik rahbarlikni amalga oshiradi, maslahatlar beradi va ma'lumot sifatida ahborot ishlarini olib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9-sinf bitiruvchilari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ixtiyoriy majburiy ta'limni davom ettirishadi. Xuddi shu jarayonda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining ahamiyati ortadi. Agar kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samarali tashkil etilmagan bo'lsa, 9-sinf bitiruvchilarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda soha yo'nalishlarini tanlashlarida muammoli vaziyatlar vujudga keladi. Ular quyidagilardan iborat:

- ba'zi obro'li, zamonaviy kasblarga tanlov nihoyatda katta bo'ladi, ba'zi kollejlarda o'quvchilar soni etarli bo'lmasligi mumkin;

- iqtisod, huquq bilan bog'liq soha yo'nalishidagi kollejlarga yoshlar ko'proq qiziqadilar, noyob, fundamental fanlar o'qitiladigan soha yo'nalishlarida esa oz sonli o'quvchilargina o'qishni xohlaydilar;

- o'quvchilarning o'zlari ham, ota-onalari ham ta'lim olishni akademik litseyda davom ettirishni istaydilar, ammo bilim, individual, psixofiziologik xususiyatlar hisobga olinmaydi va h.k.

YUqorida qayd etilgan muammoli vaziyatlar vujudga kelmasligi uchun kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish zarur. Bunday holatda turli kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlari xodimlari, maktab o'qituvchilari, psixologlar, kasb-hunar kollejlari rahbarlari va o'qituvchilarning kasb-hunarga yo'naltirish sohasi bo'yicha faoliyatlarini uyg'unlashtirish hamda faollashtirish ehtiyoji vujudga keladi.

**Kasbga yo'naltirish** yoshlarga ularning qiziqish, layoqat, qobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq holda kasb tanlashga yordam beruvchi maqsadli faoliyatdir. U fanlararo rivojlanuvchi nazariya va amaliyotning birligi asosida vujudga kelib, o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bunda asosiy rolni nazariya egallaydi. YA'ni muayyan nazariya asosida u yoki bu g'oya shakllanadi, u amaliy ishni ilmiy-amaliy ishga aylantiradi. Nazariya faoliyat

kabi tez hosil bo'lib, yillar mobaynida rivojlanadi. Kuzatish va tadqiqot natijasida nazariya shakllantiriladi va u asosiy faoliyatni ixchamlashtirishga xizmat qiladi.

**Kasbga yo'naltirish nazariyasi** kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalar va tasavvurlar yig'indisi bo'lib, u ayni vaqtda ikki jarayonni bir-biriga bog'liqligi qonuniyatlari to'g'risida to'liq tasavvur beradigan ilmiy bilimlarni tashkil etish shakli, yoshlarni shaxsiy qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Kasbga yo'naltirish nazariyasining tarkibiy qismlariga: **dalillar, qonuniyatlar va tamoyillar** kiradi.

Kasbga yo'naltirishda ilmiy metodlar asosida olingan ishonchli **dalillar** juda oz bo'lishi sababli, bu boradagi muhim vazifalar yangi dalillarni yig'ish hisobiga, bir yoki bir necha farazlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, har bir hududda yoshlarni ma'lum bir kasbni tanlashlariga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos omillar mavjud.

Kasbga yo'naltirish nazariyasining ikkinchi tarkibiy qismi - **qonuniyatlardir**. Qonuniyatlarni bilish ilmiy tadqiqotning asosini tashkil etadi. Topilgan qonuniyatlar fanning maxsus tilida kasb-hunarga yo'naltirish tushunchasini boshqa fanlarga oid tushunchalar bilan o'zaro aloqadorligini ma'lum aniqlikda ifodalaydi.

Har bir nazariyaning rivojlanganlik darajasi faoliyat asosidagi mavjud **tamoyillar** tarkibi va sifati bilan aniqlanadi. Kasbga yo'naltirish tamoyillarini belgilashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- onglilik;
- muvofiqlik (shaxs qiziqishlari qonuniyatlari bilan jamiyat uchun zarur bo'lgan kasblarga nisbatan ehtiyojning mos kelishi);
- kasb tanlash faolligi;
- rivojlantirish (ushbu tamoyil kasbning shaxs rivojlanishiga xizmat qilishi lozimligi haqidagi g'oyani o'zida aks ettiradi).

SHuningdek, kasb-hunarga yo'naltirishda boshqa bir qator tamoyillar guruhi ham mavjudki, ular umumpedagogik tamoyillar bilan uzviy aloqada ifodalanadi. Bular quyidagilardan iborat:

- kasb-hunarga yo'naltirishning hayot bilan, mehnat va amaliyot bilan bog`liqligi;
- kasb-hunarga yo'naltirishning yoshlar mehnat tayyorgarligi bilan bog`liqligi;
- mehnat ta`limi va tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'yilishi; bunda o'quvchilarning texnikaviy ijodkorligini tashkil etish, ularning ijtimoiy foydali, unumli mehnatidan mohirlik bilan foydalanish kerak.

**Kasbga yo'naltirishning tizimligi va uzviyligi printsiplari** umumiy o'rta ta`limda I sinfdan to IX sinfgacha kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uzviyligini ta`minlaydi:

- kasb-hunarga yo'naltirishda maktab, oila, homiy tashkilot, kasb-hunar kolleji va jamoatchilikning o'zaro aloqadorligi printsiplari yoshlarning kasb tanlashlariga yordam berishni ko'zda tutadi. U maqsadli va muvofiqlashtiruvchi faoliyatni hamkorlikda amalga oshirish imkonini beradi;

- kasb-hunarga yo'naltirishning tarbiyaviy xarakteri shundaki, u uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda mafkuraviy, mehnat, iqtisodiy, axloqiy, estetik, huquqiy va jismoniy tarbiyani birgalikda olib borishni taqozo qiladi;

- kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda tashhis va tarbiyaviy yondoshishning o'zaro aloqadorligi. Bu tamoyil bir yondoshuvning ikkinchi yondoshuvga qarama-qarshi qo'yilishini bartaraf etadi;

- o'quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondoshuv ularning o'zlashtirish darajasi, yoshi, kasbiy qiziqishi, shakllanganlik darajalari, hayotiy rejalariga bog`liq ravishda amalga oshiriladi. Bir guruhda samarali bo'lgan vosita ikkinchi guruh uchun samarasiz bo'lishi mumkin. O'quvchilarni tabaqalashtirib, guruhlarga ajratish ta`sir etish vositalarini tartibga soladi. Tabaqalashtirish, o'z navbatida, individual yondoshishga sharoit yaratib beradi;

- kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini ommaviy, guruhli va yakka tartibdagi shakllari o'quvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishini, an'anaviy, ommaviy shakldan iloji boricha qochib, ish olib borishning hamma shakllaridan foydalanishni ko'zda tutadi;

- kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining mazmuni, shakl va metodlari shaxsning kasbiy rivoji va, ayni bir paytda, mahalliy hududning kadrlarlarga bo'lgan ehtiyojiga

mos bo'lishini nazarda tutadi.

**Kasbga yo'naltirishning metodologiyasi** kasbni ongli ravishda mustaqil tanlash bo'yicha ilmiy muammoning tadqiqot metodlari tuzilishi hamda asosiy yo'l-yo'riqlari to'g'risidagi ta'limot bo'lib, bunda jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda yoshlarning qiziqishlarini aniqlash, ularga kasb tanlashda ilmiy yordam berish tushuniladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etishga ta'sir ko'rsatadigan kontseptual xarakterdagi g'oyalar uning asosiy qoidalarini tashkil etadi. Bu g'oyalardan biri diagnostik tadqiqotlar asosida yoshlarning qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini tashhis qilib, ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etish hisoblanadi. Bu g'oya XX asrning 30-yillarida keng tarqalgan bo'lib, bunda testlar keng qo'llanilgan. Testlarning takomillashtirilmaganligi, noto'g'ri qo'llanilganligi va boshqa bir qator sabablarga ko'ra, tashhisli tadqiqot "tarbiyalovchi kontseptsiya" bilan almashtirildi va ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yildi. Ammo o'sha vaqtdayoq tashhis ham, tarbiya ham kasb-hunarga yo'naltirishning amaliy ishlarida birdek muhim ahamiyatga ega ekanligi aniq va ravshan edi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish boshlanib, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" amaliyotga joriy etilayotgan bugungi kunda tashhisning roli ortib bormoqda. Mamlakatimizning barcha tumanlarida kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazlarining ochilganligi fikrimiz isbotidir. Bugungi kunda kasb-hunarga yo'naltirish tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarga ularning qiziqish, layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini to'g'ri tashhis qilib, ixtiyoriy majburiy ta'lim tizimini, ya'ni akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida davom ettiriladigan ta'lim yo'nalishini ongli va to'g'ri tanlashlarida asqotadigan, ilmiy asoslangan, to'laqonli maslahatlar berishdir. Bu maslahatlar tavsiya xarakteriga ega bo'lib, haqiqiy tanlashni o'quvchining o'zi amalga oshiradi.

Umumta'lim maktablarining kasb-hunarga yo'naltirish ishining maqsad va vazifasi shu hudud ehtiyoji uchun zarur kasblarga - kasb-hunar kollejlarning mavjud soha yo'nalishlariga, o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tavsiya berishdan iborat. Buni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa kasb-hunarga yo'naltirish



tizimidagi turli yo'nalish bo'yicha olib borilgan ishlarning sifatiga bog'liq.

Kasbga yo'naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari: kasblar to'g'risida nazorat, dastlabki kasbiy tashhis, kasb tanlashga oid maslahatlar, kasb-hunarga saralab olish, ijtimoiy-kasbiy muvofiqlik, kasbiy tarbiya kabilardan iborat.

Kasblar to'g'risida axborot berish o'quvchilarni turli xil mehnat turlari, kasblar shajarasi, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari, xalq xo'jaligi jumladan, ular yashayotgan hududning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, eng yaqin joylashgan kasb-hunar kollejlari va ularda tayyorlanayotgan mutaxassisliklar tavsifi bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Kasblar haqida tartibsiz ma'lumot bermaslik uchun o'quvchilar oladigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish lozim. Kasblar haqida axborot berish o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

**Kasbga oid maslahatlarning maqsadi** o'quvchilarga o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari yo'nalishlari bo'yicha ta'lim turini tanlashlariga yordam berishdan iborat bo'lib, ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va boshqa xususiyatlarini o'rganishga tayanadi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Dastlabki kasb-hunarga oid maslahatni sinf rahbari, o'qituvchilar, psixolog-pedagoglar, mehnat ta'limi o'qituvchilari amalga oshiradilar. Ular o'quvchilarning kasb-hunar tanlashga oid dastlabki mulohazalari bilan tanishadilar. Bu boradagi niyatlar o'quvchilarning shaxsiy layoqatlari, qobiliyatlari, sog'liqlariga qay darajada mos kelish-kelmasligini muhokama qiladilar. Muhokama xulosasi yakkama-yakka suhbat paytida o'quvchilarga ma'lum qilinadi. Niyatning to'g'riligi ma'qullanadi yoki kasblarga oid axborot-ma'lumot natijalarini o'rganish haqida maslahat beriladi.

**Kasblarga oid axborot-ma'lumot maslahat** dastlabki maslahat natijalariga qarab beriladi. Mazkur ma'lumotlar quyidagi yo'nalishlarni o'zida jamlaydi: kasblar tasnifi, kasblar professiogrammalari, psixogrammalar, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to'g'risidagi axborotlar. O'quvchi ushbu ma'lumotlar asosida o'zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo'lgan kasbni tanlaydi.

**Kasbga oid boshlang'ich shakllantiruvchi maslahatda** o'quvchining bundan

oldingi bosqichlarga oid olgan bilimlari, mehnat va kasb ta'limiga doir dastlabki ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi va zarur maslahatlar beriladi.

**Kasbga oid muvofiqlashtiruvchi maslahatda** oldingi bosqichlarda o'tkazilgan tadqiqot, tashhis natijalari va individual psixofiziologik xususiyatlariga qarab o'quvchi tomonidan noto'g'ri tanlangan kasbiy ta'lim turidan uning shaxsiy ko'rsatkichlari, kasb-hunarga yaroqliligi, layoqatiga mos kasb ta'limiga muvofiqlashtirish maslahatlari beriladi.

**Kasbga oid shakllantiruvchi maslahat** shaxsning kasb ta'limi turidan olayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni davom ettirish, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishini tanlash va ma'lum bir mutaxassislikni egallash mazmuniga ega bo'ladi.

Kasbga oid nazorat **maslahatida** yuqorida keltirilgan maslahat bosqichlari to'g'ri amalga oshirilgan-oshirilmaganligi, asosiy konsultatsiyada shakllantirilgan ko'nikma va malakalar ixtiyoriy va majburiy ta'limda (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida) davom etayotganligi, ya'ni shu soha bo'yicha ta'lim olayotganligi nazorat qilinadi. Agar soha bo'yicha ixtiyoriy-majburiy ta'lim davom etmayotgan bo'lsa, sabablari o'rganilib, tahlil qilinadi va amaliy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, maktab o'quvchilarining 50 foizi yakka tartibdagi kasb maslahatiga muhtoj bo'ladilar. Bunday o'quvchilarni quyidagilar tashkil qiladi:

- u yoki bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o'quvchilar;
- ota-onalari bilan ziddiyat paydo bo'lgan o'quvchilar;
- o'zi tanlagan kasb yo'lining to'g'riligini isbot qilish istagida bo'lgan o'quvchilar;
- o'sib-ulg'ayishi va xulq-atvori murakkab tavsifiy harakterga ega bo'lgan o'quvchilar.

SHu sababli ham maktab kasb-hunarga yo'naltirish xonasining tumandagi kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi bilan birgalikda kasb-hunarga oid maslahat ishlariga alohida e'tibor bilan yondoshishlari talab etiladi.

Kasbga yo'naltirishning tarkibiy qismlaridan biri kasb-hunarga tanlab olish, ya'ni biror kasbni nisbatan yaxshi o'zlashtiradigan va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajaradigan shaxsni saralab olishdir.

**Kasbga yaroqlilik** shaxsning jismoniy sifatlari va psixofiziologik xususiyatlari bilan kasb talablarining mos kelishi darajasidir. Agar bu sifat va xususiyatlar zarur talablar darajasida bo'lmasa, zo'riqish hosil bo'ladi, natijada kasbiy yaroqsizlik vujudga keladi, bundan shaxs ham, jamiyat ham zarar ko'radi.

**Kasbga saralab olish** qiyin kechadi. SHu bois oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari abituriyentlari bilan pedagogik testdan tashqari kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik markazlarning ilmiy asoslangan tavsifnoma-tavsiyasi asosida suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

**Ijtimoiy kasbiy moslashuv** (ko'nikish) insonning kasbini nechog'lik to'g'ri tanlaganligini ko'rsatuvchi bosqich hisoblanib, bu bosqichda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari hamda kasb-hunarga tayyorgarlikning kamchiliklari, yangi qiziqish, ehtiyojlar shaxsning hayotiy rejasi qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi kabilar aniqlanadi. SHuning uchun ham moslashuv kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligining o'ziga xos mezon bo'lib xizmat qiladi.

**Kasbiy moslashish** umumta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurtida o'quvchi yoki talabaning o'zi tanlagan kasbga moslashishi va ko'nikishidan shuningdek, ishchi va xizmatchilarning kasbiy mehnat sharoitlariga muvofiqlashish jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida xalq xo'jaligini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash mustahkamlanadi.

Bu davr maktabda mehnatga tayyorlash, kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik, mehnat faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Bir qator tadqiqotchilar kasbiy moslashishni ikki bosqichga bo'lishadi: ishlab chiqarishgacha (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) va ishlab chiqarishda (bevosita ishda, ishlab chiqarish sharoitlarida) kasbga moslashish. SHu narsani hisobga olish kerakki, kasbiy moslashish mehnatga moslashish jarayoni sifatida bolalikdan boshlanadi (bola uyda gul o'stirayotganda, uy hayvonlarini parvarish qilayotganda, uy ishlariga yordamlashayotganda muayyan darajada ilk kasbga moslashish jarayoni boshlanadi).

9-sinfni bitirayotgan o'quvchilar uchun akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda keyinroq oliy o'quv yurtida yoki ishlab chiqarishda kasbga moslashish davom etadi.

Kasbiy moslashish deganda yana insonning egallagan kasbiga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan moslashish jarayoni ham tushuniladi. Moslashuv jarayonida shaxsning u yoki bu ijtimoiy, kasbiy guruhga faol ishtiroki, bu guruhdagi ijtimoiy psixologik munosabatlarni o'zlashtirishi amalga oshadi.

**Kasbiy tarbiya** shaxsni shakllantirish jarayonidir. Tarbiyaning tarkibiy qismlariga: mafkuraviy, ekologik, mehnat, axloqiy, jismoniy, aqliy va estetik tarbiyalar kiradi. Kasbiy tarbiya dars va darsdan tashqari faoliyat jarayonida amalga oshirilib, kasbni o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya jarayonini pedagogik yo'naltiradi. SHunday qilib, kasbiy tarbiyaning bosh maqsadi o'quvchilarning mehnatga va kasbiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirishdan iboratdir.

Kasbga yo'naltiruvchi xonalar – maktabda o'tkazilayotgan kasbga yo'naltirish ishlarining markazi bo'lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarni xalq xo'jaligi tarmoqlari va mehnatning kasbiy bo'linishi bilan tanishtiradi;
- ishlab chiqarish kasblarini targ'ib qiladi,
- maktablarni bitirib chiqqan yigit va qizlarni ishga joylashtirish to'g'risida, o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish qoidalari haqida axborotlar beradi.

Kasbga yo'naltiruvchi maktab xonalarining faoliyati quyidagilardan iborat: u o'quvchilar uchun metodik sektsiyalar, kengashlar va konferentsiyalar, seminarlar tashkil qiladi, ma`ruzalar o'qishni uyushtiradi, tematik konferentsiyalar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, bazaviy hisoblanadigan korxonalariga tematik sayohatlar tashkil qiladi, ilmiy-texnikaviy filmlarni va o'quv filmlarini namoiy qiladi, o'quvchilar bilan ishlash metodlari to'g'risida sinf rahbarlari uchun, maktab shifokori va o'smirlarning shifokori uchun doimiy ishlaydigan va davriy ko'rgazmalar, seminarlar, ota-onalar uchun ma`ruzalar uyushtiradi, maktablar uchun kasbga yo'naltirishga oid metodik materiallar tayyorlaydi va yuboradi, kasbga yo'naltirishga doir tavsiya etiladigan adabiyotlarning ro'yxatini tuzadi.

Kasbga yo'naltiruvchi maxsus xonalarda stendlar, ko'rsatmali qurollar bo'lishi lozim.

Kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishda boshqaruv tizimi xodimlarining malakasini oshirish masalasiga muhim o'rin beriladi. Boshqaruv tizimini kasbga yo'naltirish rahbar hoimlarining mazmun jihatidan xilma xil ishlari asosiy o'rin olishi lozim.

Kasb tanlashga ijobiy ta'sir o'tkazayotgan maktab o'qituvchilari va ota-onalarning roli ancha oshdi. Biroq shuni ham tan olish kerakki, 8-9 sinflarning talaygina o'quvchilari moddiy ishlab chiqarish sohasidan tashqari kasblarni tanlashni orzu qilmoqdalar.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, maktab, oila va ishlab chiqarish jamoalari birgalikda sobitqadamlik bilan ish olib borganliklari tufayli o'quvchilarning ishchi kasblarini egallashga ijobiy munosabatda bo'lishi o'sib bormoqda va kasbga bo'lgan qiziqishlar barqarorlashmoqda.

Mehnat ta'limi darslarining qo'yilishi yaxshilanganligi, ustaxonalarning ishlab chiqarish – o'quv, asbob-uskunalari bilan ancha to'ldirilganligi, kasbga yo'naltirishning faol metodlaridan foydalanilganligi, bitiruvchi o'quvchilarning kasb tanlashga mas'uliyatni sezib munosabatda bo'layotganliklari ishchi kasblari nufuzini 40 foizdan 80 foizgacha ko'tarish imkonini berdi.

Amaliy mashg'ulotlarning birmuncha mazmunli va qiziqarli tashkil etilganligi hamda maktabda, o'quv ishlab chiqarish kombinatida va bazaviy korxonalarda 8-9 sinf o'quvchilarining unumdor mehnati uchun yaxshi moddiy baza yaratilganligi tufayli ana shunday ahvolga erishish mumkin.

YUqori sinf o'quvchilarining hayotiy rejalarini o'rganish maktab va yoshlar tashkiloti butun jamoaning ishi bo'lib, onglilik, mustaqillikni tarbiyalash va kasbiy ahamiyatga molik qiziqishlarni shakllantirish maktablarni bitirib chiquvchi yoshlarga pedagogik yordam berishni ko'zda tutadi.

YOshlarni asosiy qismini akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga hamda ayrimlarini ishga joylashtirish tajribasidan shu narsa ma'lumki, o'quvchilarning

hammasi to'qqizinchi sinfni tamomlaganlaridan so'ng o'qishni asosiy qismi: 15% akademik litsey, 85% kasb-hunar kollejlarda davom ettirmoqchilar.

SHunday qilib, maktab o'quvchilarini faol kasbga yo'naltirish ishi bilan bog'liq holda mehnatga tayyorlashning asosiy bosqichlari:

- mavjud bilimlarni barqaror qiziqishlar va umumiy manfaatni ko'zlab mehnat qilish istagi manbaiga aylantirishga;
- har bir maktab o'quvchisining mehnat ahamiyatini va mamlakat turmushida uning rolini chuqur anglashiga;
- o'quvchilarda avvalo bo'lg'usi kasbni tanlashga samarali psixologik ta'sir o'tkazadigan mehnat malakalarini rivojlantirishga;
- maktab o'quvchilarida kasb jihatidan muhim shaxsiy xislatlarini (mustaqillikni, tashabbusni, jamoa oldida mas'uliyat hissini sezishni, erga, korxonaga, jonajon o'lkaga muxabbatni) tarbiyalashga ko'maklashmoqda.

Tushuntirish ishini tsexda, dastgoh yonida, ta'mirlash ustaxonasida, mexanizatsiyalashgan chorvachilik fermasida, texnik xizmat ko'rsatish punktlaridagi unumdor mehnatda o'quvchilarni faollashtirish bilan qo'shib olib borish ishchi kasblarini tanlashdagi psixologik to'siqni bartaraf etishning asosiy vositasidir.

Respublika yoshlarni kasbga yo'naltirishni boshqarish tizimining tarkibi quyidagi bosqichlar bo'yicha rivojlanadi:

1-bosqichda. Kasbga yo'naltirishning samarali shakl va metodlarini izlash. Amaliy faoliyatini asosan tuman doirasida maktab va kasb-hunar kollejlarda olib boriladi. Umumiy ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarda kasbiy yo'naltirish bo'yicha kengashlar, uchrashuvlar, kechalar, bahslar tuman xalq ta'limi bo'limlari huzurida esa kasbga yo'naltiruvchi kengashlar tashkil qilinadi. Qishloq yoshlarini dehqonchilik fermerlar kasblariga yo'naltirish borasida maktab, qishloq kasb-hunar kollejlari jamoa va davlat xo'jaliklarini birgalikda ishlashiga asos solinadi.

2-bosqichda. Respublika miqyosida boshqaruv tizimi bo'g'inlarini shakllantirish harakatlari amalga oshadi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha respublika, viloyat, shahar va tuman kengashlari, o'quvchilar orasida kasblar bo'yicha musobaqalar tashkil qilinadi.

3-bosqichda. Kasbga yo'naltirish bo'yicha amaliy faoliyatning mazmuni va metodlari takomillashtiriladi. Arxivdagi tegishli materiallar o'rganiladi. Bu tadbirlar boshqaruvning barcha bo'g'inlarida kasbga yo'naltirish ishlarini muayyanlashtirish imkonini beradi.

Natijada, respublikada tarkib topgan kasbga yo'naltirish boshqaruvi tizimining umumlashtirilgan sxemasini tuzish va uni taxlil qilish asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin bo'ladi:

Birinchidan, barcha tarmoq vazirliklari, idoralar, o'quv muassasalari, shulardan: maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar kasbga yo'naltirish tizimiga qamraladi;

Ikkinchidan, kasbga yo'naltirish ishlarining barcha bo'g'inlari muvofiqlashtiriladi va ularning o'zaro aloqasi yo'lga qo'yiladi;

Uchinchidan, boshqarishning har bir bo'g'iniga yuklangan vazifalar aniqlanadi.

Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida, Respublika ta'lim markazida mehnat ta'limi va boshqa bo'limlar faoliyat yuritmoqda.

Kasbga yo'naltirish bilan shug'ullanuvchi yangi tuzilgan va qayta tashkil qilingan bo'limlarning vazifasi tuman, viloyat va respublika miqyosida rahbarlikning tashkiliy tajribalarini umumlashtirishdan, kasbga yo'naltirish boshqarmasi bo'g'inlari ishini kuchaytirishning tashkiliy-metodik tadbirlarini ishlab chiqish va tajribada tekshirib ko'rishga yo'naltirilgan.

SHu tariqa respublikada kasbga yo'naltirishning boshqarish tizimining tarkib topishi va rivojlanishi xalq xo'jaligini malakali kadrlarga talab-ehtiyojini hisobga olib, kasb tanlashda o'g'il va qizlar yordam berishi: kasbga yo'naltirish ishini rejalashtirishi, uning mazmunini belgilash, vazirliklar, idoralar, muassasalar, korxonalar bilan birga ta'lim muassasalarining birgalikdagi kuch-g'ayratlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Kasbga yo'naltirishni ilmiy boshqarishni hukumat, korxonalar va tashkilotlarning ishchi reja asosida tayyorlash va yoshlarni ishchi kasblariga yo'naltirish sohasidagi harakatlari tizimi deb hisoblash lozim. SHu boisdan kasbga yo'naltirish ishining tashkilotchilari faqat tarmoqlarning emas, balki ayrim korxonalarining ham kadrlarga

talab-ehtiyojlarini bilishlari va shu haqda maktablar va o'qituvchilarga axborot berib turishlari, amaliy tadbirlar dasturini ishlab chiqishlari va uni bajarish uchun kuch va mablag'larni safarbar etishlari, boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlarida nazorat o'rnatishlari va ularga yordam berishlari lozim.

Bu borada maktab bitiruvchilari uchun mehnat va kasbgacha tayyorgarlik yo'nalishi (soha va kasbkorlik) bo'yicha o'qish va ishga joylashtirish imkoniyatlari kengroq.

Mehnat va kasbgacha tayyorgarlikni o'qituvchilar, muhandis-muallim, usta-hunarmandlar bilan ta'minlash va ularni kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga sharoitlar mavjud.

YUqoridagilarni hisobga olgan holda mehnat ta'limi, tarbiyasi va kasb tanlash ishlari quyidagi bosqichlar asosida rivojlanadi:

1-bosqich. Bu davrda davlatning yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish siyosatida muhim zveno bo'lib maydonga chiqadigan mehnat ta'limi, tarbiya va kasb tanlash ishlari uyg'unlashgan tizimi uchun ximoyaviy chora-tadbirlar talab qilinadi. Mehnat ta'limi, tarbiya, kasb tanlash ishlarining bu davrdagi asosiy vazifalaridan biri mehnat bozorini malakali raqobatbardosh ishchi kuchi bilan ta'minlash, mazmunini muvofiqlashtirish, o'quvchilar uchun ma'lum darajada ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirishdir.

2-bosqich. Iqtisodiy vaziyatning barqarorlashtirilishi va rivojlangan mehnat bozori shakllanishining boshlang'ich davri bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich davomida tajribalar jarayonida sinovdan o'tkazilib ma'qullangan yangi turdagi maktablar, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, mehnat va gimnaziya, bozorning aniq ehtiyojlarini qondirish hamda uzoq maqsadlarga qaratilgan mehnat va kasbkorlik ta'limining yangi ko'rinishlari faoliyati huquqiga ega bo'lish va real keng qo'llash lozimdir.

3-bosqich. Respublikada bozor munosabatlarini uzil-kesil barpo etish davriga mos keladi.

Bu o'rinda xalq ta'limining mukammalligi, o'qish-o'qitish ishlarini mustaqillik talablari asosida isloh qilish va yaxshilash, yangi avlod ta'lim-tarbiyasining ma'no va



mazmunini kengaytirish uchun bilimdon, mustaqillik gʻoyasi, mafkurasi va maʼnaviyati bilan qurollangan oʻqituvchi-xodimlar tayyorlash zarurligini hamisha esda tutish zarur. SHu vazifa va muammolarni hal etish toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: “nafaqat umumiy maʼlumot va tarbiyani, balki kadrlarning kasbkorga yoʻnalish olishini, ularni tayyorlash – qayta tayyorlash va malakasini oshirishni oʻz ichiga oluvchi yagona uzluksiz milliy taʼlim tizimini yaratish vazifasi qoʻyilmoqda”<sup>1</sup>.

Bu borada magistrantlar qayd etilgan fikrlarni oʻzlarining izlanishi va magistrlik dissertatsiyalarida boyitib, kengaytirib va chuqurlashtirib ifodalaydilar. Unda oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish, kasb tanlash, tanlagan kasbiga moslashtirish jarayonida “kasbiy layoqat va uni tiklanish muassosi”ga eʼtiborni qaratishlari lozim. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari: insonparvarlik, fanlararo aloqa, asoslanganlik va isbotlilik, tadqiqotlarda evristik va nazariy izlanishlar nisbatining oʻzaro mutanosibliigi oʻz aksini topishi lozim.

Magistrantlarni oʻqitish texnologiyasida muhim oʻrin egallashi lozim boʻlgan oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirilishida pedagogik madaniyat, umuman madaniyatda boʻlganidek, predmet hosila va texnik-texnologik jihatlar mavjudligiga batafsil toʻxtash lozim, shunda mazkur mavzuning koʻp echimlari oʻz javobini topadi.

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

**1. Kasb haqida maslahat beruvchi punktlarning faoliyati nimalardan iborat?**

A) Jamoa xoʻjaliklarida metodik rahbarlikni amalga oshiradi, maslahatlar beradi va maʼlumot sifatida ahborot ishlarini olib boradi.

B) Korxonalarda, qurilishlarda, jamoa xoʻjaliklarida metodik rahbarlikni amalga oshiradi.

C) Korxonalarda, qurilishlarda, jamoa xoʻjaliklarida metodik rahbarlikni amalga oshiradi, maslahatlar beradi va maʼlumot sifatida ahborot ishlarini olib boradi.

D) Korxonalarda, qurilishlarda, jamoa xoʻjaliklarida maslahatlar beradi va maʼlumot sifatida ahborot ishlarini olib boradi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқболи ва тараққиёт йўли. Т., “Ўзбекистон”, 1992, 64-бет.

## **2. *Kasbga yo'naltiruvchi xonalar qanday vazifalarni bajaradi?***

A) ishlab chiqarish kasblarini targ`ib qiladi, maktablarni bitirib chiqqan yigit va qizlarni ishga joylashtirish to'g`risida, o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish qoidalari haqida axborotlar beradi.

B) o'quvchilarni xalq xo'jaligi tarmoqlari va mehnatning kasbiy bo'linishi bilan tanishtiradi, maktablarni bitirib chiqqan yigit va qizlarni ishga joylashtirish to'g`risida, o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish qoidalari haqida axborotlar beradi.

C) o'quvchilarni xalq xo'jaligi tarmoqlari va mehnatning kasbiy bo'linishi bilan tanishtiradi, ishlab chiqarish kasblarini targ`ib qiladi, o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish qoidalari haqida axborotlar beradi.

D) o'quvchilarni xalq xo'jaligi tarmoqlari va mehnatning kasbiy bo'linishi bilan tanishtiradi, ishlab chiqarish kasblarini targ`ib qiladi, maktablarni bitirib chiqqan yigit va qizlarni ishga joylashtirish to'g`risida, o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish qoidalari haqida axborotlar beradi.

## **3. *Kasbga yo'naltiruvchi maktab xonalarining faoliyati nimalardan iborat?***

A) o'quvchilar uchun metodik sektsiyalar, tematik konferentsiyalar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, bazaviy hisoblanadigan korxonalariga tematik sayohatlar tashkil qiladi, ilmiy-texnikaviy filmlarni va o'quv filmlarini namoiy qiladi, o'quvchilar bilan ishlash metodlari to'g`risida sinf rahbarlari uchun, maktab shifokori va o'smirlarning shifokori uchun doimiy ishlaydigan va davriy ko'rgazmalar, seminarlar, ota-onalar uchun ma`ruzalar uyushtiradi, maktablar uchun kasbga yo'naltirishga oid metodik materiallar tayyorlaydi va yuboradi, kasbga yo'naltirishga doir tavsiya etiladigan adabiyotlarning ro'yxatini tuzadi.

B) o'quvchilar uchun metodik sektsiyalar, kengashlar va konferentsiyalar, seminarlar tashkil qiladi, ma`ruzalar o'qishni uyushtiradi, tematik konferentsiyalar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, bazaviy hisoblanadigan korxonalariga tematik sayohatlar tashkil qiladi, ilmiy-texnikaviy filmlarni va o'quv filmlarini namoiy qiladi, maktablar uchun kasbga yo'naltirishga oid metodik materiallar tayyorlaydi va yuboradi, kasbga yo'naltirishga doir tavsiya etiladigan adabiyotlarning ro'yxatini tuzadi.

C) o'quvchilar uchun metodik seksiyalar, kengashlar va konferentsiyalar, seminarlar tashkil qiladi, ma`ruzalar o'qishni uyushtiradi, tematik konferentsiyalar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, bazaviy hisoblanadigan korxonalariga tematik sayohatlar tashkil qiladi, o'quvchilar bilan ishlash metodlari to'g'risida sinf rahbarlari uchun, maktab shifokori va o'smirlarning shifokori uchun doimiy ishlaydigan va davriy ko'rgazmalar, seminarlar, ota-onalar uchun ma`ruzalar uyushtiradi, maktablar uchun kasbga yo'naltirishga oid metodik materiallar tayyorlaydi va yuboradi, kasbga yo'naltirishga doir tavsiya etiladigan adabiyotlarning ro'yxatini tuzadi.

D) o'quvchilar uchun metodik seksiyalar, kengashlar va konferentsiyalar, seminarlar tashkil qiladi, ma`ruzalar o'qishni uyushtiradi, tematik konferentsiyalar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, bazaviy hisoblanadigan korxonalariga tematik sayohatlar tashkil qiladi, ilmiy-texnikaviy filmlarni va o'quv filmlarini namoyish qiladi, o'quvchilar bilan ishlash metodlari to'g'risida sinf rahbarlari uchun, maktab shifokori va o'smirlarning shifokori uchun doimiy ishlaydigan va davriy ko'rgazmalar, seminarlar, ota-onalar uchun ma`ruzalar uyushtiradi, maktablar uchun kasbga yo'naltirishga oid metodik materiallar tayyorlaydi va yuboradi, kasbga yo'naltirishga doir tavsiya etiladigan adabiyotlarning ro'yxatini tuzadi.

## **§ 5. MEHNAT TA`LIMI MAZMUNINI KASB - HUNARGA YO`NALTIRISH ISHLARI BILAN UZVIYLIGI**

Mustaqil O'zbekistonning "Ta`lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy Dastur"i hamda ular asosida qabul etiladigan boshqa hukumat rasmiy hujjatlarida maktablar oldiga ulkan vazifalar qo'yilgan. Mazkur qonun va boshqa

muhim hukumat qarorlariga muvofiq o'quvchilar mehnat va boshlang'ich kasbkorlik ko'nikma va ishbilarmonlik asoslarini o'rganishlari lozim. Xalq xo'jalik boshqaruvida bozor iqtisodiyoti imkoniyatlari ko'chishi barcha sohalar singari ta'lim ishlarida ham, jumladan o'quvchilarni mehnatga tayyorlash masalalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Har yili umumiy o'rta ta'lim maktablarini 600 mingdan ortiq o'quvchilar bitiradilar. SHulardan ko'pi akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga kirib o'qishni davom ettiradilar. SHuning uchun maktab o'z tarbiyalanuvchilariga o'zining munosib o'rnini topishga ko'maklashuvi lozim. SHunda maktabdagi ta'lim-tarbiya ishining barcha vositalari, jumladan mehnat ta'limi darslari ayniqsa ana shunga qaratilishi kerak.

Mehnat ta'limi darslari o'quvchilarni har tomonlama etuk kamol topishi, kasbni to'g'ri tanlashi, xalq xo'jaligida mehnat axloqiy, psixologik va amaliy tayyorlanishi uchun xizmat qilishi kerak, o'smirlarni hozirgi zamon ishlab chiqarishning ilmiy asoslari bilan tanishtirish orqali ularning politexnik bilimi doirasini kengaytirish, ularga shaxsiy imkoniyat, qiziqish va mayllarga ko'ra hamda mamlakatning kadrlarga ehtiyojini hisobga olib o'z kasbiy mavqelarini ongli ravishda yordam berishdir.

Mehnat ta'limi to'g'risida gap ketganda ko'p yillar mobaynida an'anaviy mehnat darslarida asosan metall va yog'ochga ishlov berish, tikuvchilik va elektrotexnika asoslarini o'rganish ko'zda tutilgan. haqiqatdan, bu sohalar asosida mehnat ta'limi mazmunini tanlash to'g'ri, chunki ko'p xalq xo'jaligi tarmoq korxonalarini metall va yog'och bazasi asosida ishlab chiqarishni boshqaradilar hamda kadrlar talabi shunga qaratilgan.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida yangilanishlar yosh avlodni faol hayotga, mehnat va ma'lum kasb-hunarlariga tayyorlash ishini tubdan isloh qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Jamiyatimizning ro'y bergan turli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar inson shaxsi, dunyoqarashi turli fazilatlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish talablarini qo'yadi. Bu hol, o'z-o'zidan yangi zamon ta'lim tizimining asosini tashkil

etuvchi ta`lim mazmunini yangilashni taqozo etadi. Zero, eski ta`lim tizimida yangi zamon kishisini tarbiyalab bo`lmasligi ayon bo`lib qoldi.

Bozor iqtisodiyotini tez sur`atlar bilan rivojlantirilishi, mutaxassislar tayyorlash, kadrlarning kasbiy mahoratlarining takomillashishiga zaruriy talabni keltirib chiqarmoqda. Bu hol umummehnat tayyorgarligi va yoshlarni kelajakda maqbul kasblarga yo`naltirish tubdan yangilashni taqozo etmoqda. O`zining barcha ta`limiy, tarbiyaviy, ruhiy, pedagogik, didaktik imkoniyatlarini sarflab bo`lgan an`anaviy mehnat va kasb ta`limi tizimi endilikda yangi zamon talablariga mutlaqo javob bera olmay qoldi.

Taklif etilayotgan mehnat ta`limi va kasbga yo`naltirish yangi tizimi hozirgi va yaqin kelajak talablarini o`zida aks ettirib, majmuaviy maqsadli dastur sifatida namoyon bo`ladi.

Respublikamizda yoshlarning mehnat ta`limi, kasb tanlash, kasbga yo`naltirish kasb-hunar tayyorgarligini amalga oshirish ishlari uzluksiz ta`lim tizimining barcha bo`g`inlarida amalga oshiriladi.

Mehnat ta`limi asosan texnik, maishiy xizmat ko`rsatish, qishloq xo`jaligi va xalq hunarmandchiligi yo`nalishida (300 dan ziyod kasbiy faoliyat turlarida) amalga oshiriladi. YOshlarning kasb tanlashi emas, kasbiy bilimlar, axborot berish, kasbga yo`naltirish, kasbga moslashish va kasbiy tayyorgarlik kabi qismlardan iborat bo`lib, xalq xo`jaligining bara sohalarida kasbiy faoliyat ko`rsatishni o`rgatishni qamrab oladi.

YOshlarning umummehnat ta`limi barcha turdagi bolalar bog`chalarida dastlabki tushunchalarni paydo qilish, ish-harakat usullarini shakllantirish maqsadida ish olib borilmoqda.

O`zbekiston Respublikasida 18 yoshgacha bo`lgan, ya`ni o`quvchilik yoshidagi bolalar soni aholining qariyb yarmini tashkil etadi. 10,4 mln. yoshlar bevosita umummehnat ta`limi va kasblarga yo`naltirish ob`ektlari va 18 mln.ga yaqin kishi esa mehnat va kasbiy tayyorgarlik ishining ob`ektlari hisoblanadi.

SHuning uchun mehnat ta`limi va kasbga yo`naltirish kasbiy tayyorgarlik ishlarni tashkil etishda quyidagi davrlarga e`tibor berish zarur:

- 1-davr boshlang`ich ta`lim 1-4 sinflar;
- 2-davr tayanch majburiy ta`lim;
- 3-davr o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi.

Bu bosqichda qiz bolalar mehnati bilan o`g`il bolalar mehnatining o`ziga xosligi hamda normal rivojlanishidagi bilan anomal rivojlanishidagi, ya`ni aqliy va jismoniy zaif bolalar mehnatini tashkil etishning o`ziga xoslik tomonlarini hisobga olish talab etiladi.

O`zbekistonda aholining 39,5 foizini shaharlarda, qishloqlarda esa 60,5 foizini yashashi tufayli shahar va qishloq maktablari, shahar tipidagi qishloq qo`rg`onlaridagi mehnat ta`limi va kasblarga yo`naltirishni tashkil etish xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mehnat ta`limiga yo`naltirishni tashkil shahar va qishloqlardagi xalq xo`jaligi sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog`liqdir. Mehnat ta`limiga yo`naltirishning ishlab chiqarish sohasiga bevosita bog`liqligi sababli mazkur sohaning alohida moddiy, texnik va texnologik ta`minotiga muhtoj ekanligi muammo kelib chiqadi. Boshqa fanlarni o`qitishdan farqli o`laroq mehnat ta`limiga yo`naltirishning alohida moddiy texnik ta`minotiga asoslanishi, uni samarali tashkil etishning asosiy garovi hisoblanadi.

Mehnat va kasblarga yo`naltirishning o`ziga xos xususiyatlarining barchasini o`zida aks ettiradigan o`quv-metodik ta`minotini yaratishda ham o`ziga xoslikni hisobga olishni talab etadi, bir butun mazmundagi majmualarni yaratish, joylarda har bir ta`lim muassasasini o`z imkoniyatlaridan, kelib chiqib, o`ziga mos tushadiganini tanlashi yo`lga qo`yish shu sohadagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Mehnat ta`limiga tayangan holda o`quvchilarni kasbga yo`naltirishning o`quv-uslubiy majmuasini yaratishda dastlab tayanch umumta`lim bo`g`inida 4 yo`nalishni (texnik, maishiy xizmat ko`rsatish, qishloq xo`jaligi va xalq hunarmandchiligi) qamrab olishni, keyingi ixtisoslashgan ta`lim bosqichida esa xalq hunarmandchiligining barcha sohalari qishloq ho`jaligi, sanoat, qurilish, savdo, madaniyat, m ashiy xizmat ko`rsatish, san`at hamda xalq xunarmandchiligidagi

kasblarga yoshlarni tayyorlash mazmunini yagona tizim sifatida aks ettirish muammosi turadi.

Uzluksiz mehnat ta'limining o'quv-uslubiy majmuasi jami 113 ta nomni tashkil etib, umumiy hajmi taxminan 1000-1100 bosma taboq tashkil etishi kutiladi bunga kasb ta'limi bo'yicha bevosita mas'ul bo'lgan kasb-hunar kollejlari o'quv-uslubiy majmuasi kirmaydi.

Mehnat ta'limi mazmunidagi yangi yo'nalish – xalq milliy hunarmandchiligi sohalaridagi kasblardir. Ushbu soha mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning milliy hududiy, tarixiy va etnografik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi va o'zining 150 dan ortiq kasbiy faoliyat yo'nalishlarini qamrab olishi bilan hamda alohida yo'sindagi o'quv-uslubiy majmuasini mazmuniga yo'naltirilishi lozimligi bilan ajralib turadi.

Mehnat ta'limi negizida kasbga yo'naltirishni zamon va istiqbollardagi davrlar talabi darajasida tashkil etishning asosiy omillaridan biri, shu sohani o'rgatuvchi pedagog-mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda turli kasbiy mahoratini takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish shu kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bu hol oliy-pedagogik ta'limning o'quv-uslubiy majmuasini, ilmiy-metodik ta'minotni davr talablariga mos ravishda tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishni tashkil etishda mazkur soha bo'yicha ajratilayotgan o'quv yuklamalarining soha xususiyatlariga mos kelishi, ya'ni sinfdagi qiz va o'g'il bolalarni guruhlarga ajratib o'qitilishi. Amaliyligi va ishlab chiqarish mazmunida ekanligi dars soatlari miqdorini mos ravishda ko'paytirilib yo'naltirishni tashkil etish bo'yicha umumta'lim maktablarining 1-9 sinflari bosqichida, ya'ni 1-4 sinflarda 1 soat, 5-7 sinflarda 2 soatdan 4 soatgacha, 8-9 sinflarda 1 soatdan jami 6 soatdan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. SHu bilan birga mehnat ta'limi mashg'ulotlariga ajratilgan o'quv soatlari miqdori hozirgi vaqtda  $4180:4=1045$  soatni tashkil etadi. Ammo yaxlit o'quv-uslubiy majmuani yaratadigan nazariyotchi olimlar, dastur, darslik yaratuvchilar jami 4180 soatni doimo e'tiborga olishlari shart.

Bu raqam ya'ni dars soatlari miqdori mehnat ta'limi chuqurlashtirilib o'qitiladigan va maxsus maktablarda (aqliy va jismoniy zaif bolalarni o'qitadigan) muassasalarda o'zgarishi mumkin, ammo mazmun, odatdagidek davom etadi.

Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishni tashkil etishda 5-9 sinflarda mehnat amaliyotlarini o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo hozirgi davrda bu muhim tadbirni o'tkazish faqat yuzakichilik va rasmiyatchilikdan iborat bo'lib qolmoqda. Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish umummehnat tayyorgarligi jarayonida yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardosh va o'zlarini qiziqtirgan kasblarini egallashlari uchun zarur va etarli bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi va quyidagi maqsad va vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

Maktabgacha tarbiya bosqichida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat jarayoni, mahsulotlar, materiallar va buyumlar to'g'risida dastlabki tushunchalar, tasavvurlar, maqsadli ish harakati usullarini bajarish to'g'risida ma'lumotlar berish;

Umumta'lim maktablarini boshlang'ich 1-4 sinflarida mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlari ko'rsatilgan 5 ta asosiy yo'nalish negizi asosida mehnat harakatlarini bajara olish qo'lda yasalgan buyumlarning kichraygan nushalarini yasay olish, mehnat va kasb faoliyati jarayonlari to'g'risida dastlabki bilimlar berish, sodda qurilmalarni tuzish, inson va tabiat, inson va buyumlar munosabatini uyg'unlashtirish to'g'risida dastlabki tasavvurlar hosil qilish;

Tayanch maktablarida mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning asosiy bosqichi amalga oshirilib, o'quvchilarda xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilishga tayyorgaligiga zamin yaratiladi. Bu bosqichda mazkur ta'limning 5 umumkasbiy yo'nalishdagi 300 ga yaqin faoliyat turlari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshiriladi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bosqichida o'quvilar xalq xo'jaligining turli sohalariga (qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, mashinasozlik, xizmat ko'rsatish, savdo, san'athamda xalq xunarmandchiligi) tegishli aniq kasblar bo'yicha ma'lum mahorat darajasida egallashlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.



O'quvchilarning unumli mehnati natijasi bozor iqtisodiyoti, mehnat bozori munosabatlarida o'z aksini topadi, ular o'zi o'qiyotgan ta'lim muassasasi, oilasi va o'zining moddiy ta'minotiga sezilarli hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning mehnatini tashkil etishda huquqiy, qonuniy, mehnat xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalari, ruhiy, jismoniy rivojlanish xususiyatlari kabi omillar hisobga olinishi shart. O'quvchilarning mehnat va kasb tayyorgarligini amalga oshirishda iqtisodiy ustivorlik, aqliy hamda jismoniy rivojlanish mukammallikka erishish asosiy talablari hisoblanadi.

O'quvchilarni kasblarga yo'naltirishda umummehnat kasbiy ta'lim bosqichida o'tish jarayonida murakkab didaktik mexanizm amalga oshiriladi. Bu o'rinda ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik mahalla, davlat va xususiy ishlab chiqarish korxonalari, hunarmandlar uyushmalarining amaliy hamkorligini o'rnatilishi ular faoliyatining yagona maqsadga bo'ysundirilishi mazkur ta'lim samaradorligi oshishiga olib keladi.

Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning yaxlit maqsadli tizimini yaratish, yoshlarning bog'cha yoshidan boshla, kattalar ta'limigacha mehnat va kasb ta'limining bir butun tizimini yaratish mazkur sohaning hayotga uzviyligini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishni tashkil etishda iqtisodiy omillarning ustivorligini ta'mirlash. SHaxsning o'z mehnati natijalarini ko'ra olganda, bu natijalardan o'zi ham bahramand bo'la olgandagina u tashabbus va mustaqillik bilan faoliyat ko'rsatadi. Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishda o'quvchilar o'ziga xos erkinlikka mustaqillikka tashabbuskorlikka ega bo'lganlarida onglilik, faollik va ijodkorlik yuzaga chiqadi.

Mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning yaxlit maqsadli tizimini yaratishda 5 ta asosiy yo'nalishga (texnik, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va xalq milliy hunarmandchiligiga) rioya qilish, ixtisoslashgan ta'limda esa xalq xo'jaligining turli asosiy tarmoq (qishloq, sanoat, qurilish, mashinasozlik, savdo xizmati ko'rsatish va san'at) hamda xalq hunarmandchiligi sohalaridagi kasblariga tayyorlash texnologiyasining bir butunligini saqlashda eskilarni unutmasdan, yangilarni tadbiiq

etish va yaratish asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilarni xalq xo'jaligining turli sohalari va hunarmandchilik kasblariga yo'naltirishda ishlab chiqarish markazlari, maktablararo ishlab chiqarish bo'limlari, tsexlar ustaxonalar faoliyatlarini jonlantirish alohida ahamiyatga molikdir. Bunday markazlar, tsexlar, bo'limlarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda zaruriy sharoitlar yaratiladi. Bu maqsadda xo'jalik, otaliq tashkilotlar va o'quv muassasalarining moddiy-texnik negizidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ta'limi va kasb tanlash ishlarini tashkiliy, iqtisodiy, ilmiy-pedagogik boshqarish ishlarini takomillashtirish.

Respublikamizda 18 yoshgacha bo'lgan 10,4 mln. yoshlarning mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning yagona markaz va hududiy kasbga yo'naltirish xizmati markazlari tomonidan boshqarilishi, aholining bandlik xizmati va Mehnat Vazirligi bilan birga ma'lumotlar Banki tashkil etilishini taqozo etadi. YOshlarning mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning dolzarb muammolarini tadqiq etadigan ilmiy-uslubiy markaz (yoki bir necha xududiy markazlar) tashkil etish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarning mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirishning yagona maqsadli tizimini yaratish, axborotlar bankini tashkil etish shu sohani tartibga solishdagi dastlabki amaliy qadamlar hisoblanadi.

Bolalar mehnati yuklamalarni me'yorlash topshiriq va vazifalarni yosh, shaxsiy, jismoniy, aqliy xususiyatlariga qarab belgilash. Qizlar va o'g'il bolalar mehnatining xususiyatlari, mehnat sharoitida mahalliy omillarni hisobga olish, mehnat xavfsizligi (texnika, elektr, yong'in, suv, gaz, transportda yurish xavfsizligi) va sanitariya-gigiena qoidalariga rioya etish maxsus kiyimlar va jihozlar ta'minotini yo'lga qo'yish moliyaviy va huquqiy kafolotlanishi lozim.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish iqtidorli yoshlarni o'z kasbiy ko'nikma va malakalarni taqsimlashtirishga mamlakat va chet ellar ilg'or texnologiyalari bilan tanishtirish bolalar mehnati mahsulotlari ko'rgazmalarni tashkil etishga sharoit yaratish shu sohadagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlardan hisoblanadi. Bu borada magistrlar mazkr ishlarga ilmiy izlanish mavqeini berishda quyidagilarni

inobatga olishi zarur:

- O'zbekiston Respublikasining tabiiy iqlimi, aholisining yashash tarzi, milliy va mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda umumta'lim maktablarida mehnat ta'limiga yo'naltirishning majmuaviy maqsadi dasturini amaliyotga tadbiiq etish quyidagilarni ko'zda tutadi:

Uzluksiz ta'lim tizimida mehnat ta'limining davlat standartlarini ishlab chiqish;

Uzluksiz ta'limning boshlang'ich ta'lim bo'g'ini uchun (1-4 sinflar) mazkur sohaning o'quv-uslubiy majmuasini ishlab chiqish;

Tayanch ta'limi bosqichi uchun (5-9 sinflar) xalq ta'limi tizimining turli muassasalariga mo'ljallangan o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish;

Kasb-hunar kollejlari mo'ljallangan mehnat va kasb ta'limining uzluksizligini ta'min etuvchi variantli blok-modulli ilmiy-metodik majmuasini yaratish.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ishlarining pirovard maqs adli milliy rivojlanish g'oyalari sodiq, mehnat bozoridagi o'quvchini mehnat ta'limi olishga mavjud bo'lgan usullardan foydalanishga maslahat beriladi.

O'quvchilarning aniq bir qiziqqan kasbini tanlashda, uning tarbiya asoslariga alohida e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, yog'ochga ishlov berish texnologiyasidagi kasblar (duradgor, beshikchi, yog'och o'ymakori, mebel tayyorlovchi va hakoza). Agar bir kasb yuzasidan o'quvchilar axborotga ega bo'lsa, uning tanlagan kasbiga moslashishi tez va mustahkam bo'ladi.

Magistrantlar diqqatini mehnat ta'limi va tarbiyasini kasb-hunarga yo'naltirishda uni bevosita hamda bilvosita davomi – tadbirkorlik faoliyati bilan uzviylikni tushuntirishga jalb qilish lozim. Chunki, hozirgi kunda tadbirkorlik tushunchasi hayotning barcha sohalarida, shu jumladan ta'limning, ayniqsa, mehnat ta'limi hamda kasb tanlashda o'z aksini topmoqda. Zero, tadbirkorlik hayot talabiga aylanib bormoqda. SHunday ekan, tadbirkorlik to'g'risida tushunchaga ega bo'lish, tadbirkorlik malakalarini shakllantirish uchun ta'lim tizimi xodimlari tadbirkorlik psixologiyasi hamda pedagogikasi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishlari, mehnat ta'limi o'qituvchisi hamda kasbga yo'naltiruvchi uchun majburiy-zarurdir.

SHundan sung, magistrnlarning ilmiy izlanishi hamda ilmiy pedagogik jihatdan

o'qishida munosabat ta'sirli va jiddiy bo'ladi. Masalan, magistrlik dissertatsiyasi uchun tanlangan mavzuga "Kasbga yo'llash maqsadida o'quvchilarning shaxsini o'rganish"da uning iqtisodiy ta'lim fanlarini o'qitishning metodologik muammolariga yo'naltirilishi, "kasb", "kasb tanlash", "kasb tanlashga yo'naltirish", "tanlangan kasbga moslashtirish" hamda "kasb tanlashning pedagogik masalalari" shu mavzuga oid ko'p muammolarni o'z echimiga olib kelishi mumkin. Unda, tarixiylik, fundamentlilik, qadriyatlarga asoslanganlik hamda ustivor yo'nalishlar belgilanganligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar hamda ularda qo'lga kiritilgan ijobiy natijalar qo'yilgan talablarga javob bera oladi.

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

#### ***1. Mehnat ta'limi asosan necha yilliy yo'nalishda amalga oshiriladi?***

- A) 4 yillik yo'nalishda – texnik, maishiy xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va xalq hunarmandchiligi yo'nalishida.
- B) xalq xo'jaligining bara sohalarida
- C) 3 yillik yo'nalishda –maishiy xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va xalq hunarmandchiligi yo'nalishida.
- D) 2 yillik yo'nalishda –qishloq xo'jaligi va xalq hunarmandchiligi yo'nalishida.

#### ***2. Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish kasbiy tayyorgarlik ishlarni tashkil etishda qaysi bosqichlarga e'tibor berish zarur?***

- A) 1-bosqich boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar, 2-bosqich tayanch majburiy ta'lim, 3-bosqich o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.
- B) 1-bosqich boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar, 2-bosqich 5-7 sinflar, 3-bosqich 8-9 sinflar
- C) 1-bosqich boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar, 2-bosqich 5-9 sinflar, 3-bosqich akademik litsey va kasb-hunar kolejlari
- D) 1-bosqich umumiy o'rta ta'lim 1-9 sinflar, 2-bosqich akademik litsey va kasb-hunar kolejlari

#### ***3. Ta'lim tizimi xodimlari, mehnat ta'limi o'qituvchisi hamda kasbga yo'naltiruvchi uchun qanday bilimlar majburiy-zarurdir?***

- A) fizik
- B) kimyoviy
- C) tadbirkorlik
- D) matematik

## **§ 6. KASBLARGA QO'YILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK TALABLAR**

O'quvchilarni o'rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborliligi va berilishini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan xolatlar quyidagicha:

1. O'quvchilarda demontaj – montaj ishlarini bajarish, o'lchash, tahlil qilish, izlash, minimal qo'yimlarni taqozo etadigan aniq bo'g'imlarni tayyorlash orqali e'tiborlilik shakllanishini ta'minlaydigan ishlar;

2. O'quvchilarda nazorat topshiriqlari, planshetlar, hisoblash mazmunini o'rganish orqali, detallar, uzellar va mexanizmlarning sxemalari, chizmalari, jadvallari va konstruksiyalarini o'rganish orqali belgilashni ta'minlaydigan ishlar.

O'quvchilarda o'rganilayotgan kasbiga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- Analiz va sintez;
- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash.

Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni umumiy holatini izohlash uchun:

1. YOshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;
2. Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish.
3. Turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish.
4. Mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish.
5. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.
6. Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.
7. Umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xohlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos

kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

Bu borada kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalash muammolari haligacha to'la bartaraf etilmagan. Maktablarda o'qiyotgan yigit va qizlarga davlat alohida g'amho'rlik ko'rsatadi. SHu sababli korxonalar ularga zarur kasb tayyorgarligi va tarbiya berishni ta'minlashga da'vat etilgan. Tarbiyaviy ishlar – umumiy ta'lim maktabida olib borilgan ishlarning davomidir. YOshlarni kasbga tayyorlash jarayoni, mehnatga munosabatini tarbiyalash, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va shakllantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish sharoitida yoshlar tarbiyasiga yangi muhit – mehnat va ishlab chiqarish jamoasi katta ta'sir ko'rsatadi. YOshlar ishchi jamoaning an`analari bilan tanishadi, uning manfaatlarini o'z manfaati deb tushunadi va o'z mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglay boshlaydi.

Hunar ta'limi yagona tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang`ich ishlab chiqarish jamoalari doirasida o'quv-tarbiya jarayonlari ko'pincha bir kishi – o'rta bo'g`in ishlab chiqarish jamoaning muhandis – pedagog tomonidan amalga oshiriladi. Ayni shu muhandis – pedagog ishlab chiqarish jamoaga doimiy va uzluksiz pedagogik ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, bu jamoaning ayrim a`zolari korxonadagi kasb-hunar ta'limi tizimining turli zvenolaridagi tegishli o'quv gruppalariga jalb qilinadilar.

Pedagog olimlarga ishchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi, ularning ishlab chiqarish malakasi darajasi, umumiy va mehnat madaniyati, jamoa kasbiy faoliyat jarayonida o'quvchilar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar, jamoa foydalanadigan ma`naviy va moddiy rag`batlar kiradi.

SHaxsiy-psixologik omillarga esa e'tiqod ehtiyoji, moyillik, odatlar, ma'lum bir faoliyatning biror turini tanlash masalalari kiradi. Inson ongini o'rganishda shaxsning aniq vaziyatdagi, aniq maqsadi pedagogik-psixologik, kasbiy, texnik-texnologik faoliyatining asosiy maqsadi yoshlarda faqat moddiy boyliklar yaratish malakasini tarbiyalash emas, balki mehnat qilish ehtiyojini ham tarkib toptirishdir. Kasbiy yo'naltirish va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o'qituvchi yuksak

g`oyaviy, printsipial, siyosiy etuk va ma`naviy barqaror inson bo`lishi shart.

O`zining ishchi – o`quvchilarini bilish va hurmatlash, doimo ularning har tomonlama kamol topishi uchun qayg`urish, ehtiyoj va qiziqishlarini tushunish, har biriga yakka holda yondoshish kasbga yo`naltirish, pedagogik mahorat, o`z ustida uzluksiz ijodiy ishlash, o`z bilimlarini takomillashtirib borish, yuksak saviyaga erishishi muhim ahamiyatga ega.

Kasb tanlashda yoshlarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo`lib xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda ham shahar, tumanlarda yoshlarni kasb tanlashga yo`llovchi Tashxis Markazlari ishlab turibdi. Kasblar bo`yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo`lib ular bir biridan farq qiladi.

*A) Ma`lumot-axborot beruvchi maslahatlar:*

Kasbni mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. U sizni o`qa kasbni shaxsga nisbatan qanday talablar qo`yishi bilan tanishtiradi, bu kasbni qaerda, qanday qilib o`rganish yo`llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi: shu maslahatning o`zida siz kasb mahoratini oshirish yo`llari to`g`risida ham ko`pgina ma`lumotlarni bilib olishingiz mumkin. Odatda bunday maslahatlarni o`sha kasbda uzoq vaqtdan beri ishlayotgan tajribali mutaxassislar o`tkazadilar.

*B) Diagnostik kasb maslahati berish:*

Kishini har tomonlama o`rganish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jihatdan muhim bo`lgan ayrim sifatlarni aniqlab o`rganishga qaratilgandir.

Bunday maslahatdan maqsad – faoliyatning qanday sohasida siz muvaffaqiyatli ishlashingiz mumkinligini, ya`ni siz qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishingiz mumkinligini hamda o`z mehnatingizdan mumkin qadar ko`proq qoniqish hosil qilishingizni oldindan belgilab berishdan iborat. Diagnostik kasb maslahatini psixologlar o`tkazadilar. Ular shaxsni o`rganishning anketa to`ldirish, testlar bilan sinash singari har xil metodlarini qo`llaydilar.

*V) Tibbiy kasb maslahati:*



Odamning salomatligi u tanlagan kasb talablariga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab olishga yordam beradi. Agar siz mo'ljallayotgan kasb qandaydir bir sabab bilan sog'lig'ingizga to'g'ri kelmaydi, deb topilgudek bo'lsa, u holda vrach sizga boshqa bir kasbni, ya'ni sizning qiziqishingiz va sog'lig'ingizga zarar etmaydigan kasbni tanlashga tavsiya qiladi.

*G) Tuzatish kirituvchi kasb maslahati:*

Odam bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o'sha kasb muvofiq kelmagan hollarda bunday maslahat zarur bo'ladi. Bunday vaziyatda kasbiy rejani qaytadan ko'rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo'lib qoladi. YUqorida sanab o'tilgan kasblar bir-biri bilan o'zaro mahkam bog'liqdir. Meditsina kasb maslahatiga ma'lumot – axborot berish xarakteridagi va tuzatish kirituvchi xarakterdagi elementlar mavjud bo'lsa, diagnostik kasb maslahatida kasb maslahatlarining elementlari uchraydi va hakoza.

Kasb to'g'risida maslahat 3 ta bosqichga bo'linadi.

*A) Kasbga tayyorlash.* Bunga o'quvchining maktabni bitirgunga qadar bo'lgan jarayoni kiradi. Bunda maktabda o'quvchining qiziqishi, xohishi u yoki bu kasbga moyilligini hisobga olgan holda kasblarga tayyorlanadi, kasblar to'g'risida axborotlar berib boriladi.

*B) YAkunlovchi:* 8-9 sinfni bitirayotganda kasbga yo'llash ishlarini olib boriladi. Bu yakunlovchi turda o'quvchilarni qobiliyatiga qarab u yoki bu kasblarni egallashga yordam berish. Bu xil maslahat maktab doirasidan tashqariga chiqadi va ko'pincha akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, tashkilotlarda o'quvchi 8-9 sinfni bitirib chiqib borgan joylarda amalga oshiriladi.

*Kasbga ko'nikma hosil qilish.* Bu kasbga yo'llash ishi yakunlovchi ish bo'lishi kerak, chunki o'quvchi zavod va fabrikada, shuningdek o'quv yurtlarida o'z qiziqqan sohasi bo'yicha ishlaydi va o'qiydi. Ko'nikma hosil qilish sistemali ravishda rejani bajarish va musobaqalarda ishtirok etish natijasida mustahkamlanadi, ishlab chiqarishda qancha og'ir bo'lsa, shuncha ko'p yosh ishchiga e'tiborni kuchaytirish lozim.

*Kasbga layoqatliligi.* Kasbga layoqatliligini aniqlash 3 yo'l bilan amalga

oshiriladi.

- A) sog`lig`i to`g`risida;
- B) Kasbga taxminiy tayyorgarlikning puxtaligi;
- V) Psixofiziologik holati.

Bu layoqatligiga qarab mutaxassislar o`quvchilarga u yoki bu kasbga loyiq ekanligini aniqlashadi va kasbni o`zgartirish kerakligi yoki sog`liqqa zararligini, uning organizmi tanlagan kasbga loyiq emasligi to`g`risida ma`lumot berishadi. SHuning uchun o`rta maktablar kasb tanlash ishlarini olib borishda asosiy baza bo`lib hisoblanadi.

Magistrlar ushbu mavzu yuzasidan olib boriladigan ilmiy izlanish hamda ilmiy-pedagogik ishlarida – kasbga yo`naltirish masalalarida test metodlaridan unumli va maqsadli foydalanishga yo`naltiriladi.

Unda, ilmiy pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishning mantiqiy ketma-ketligiga: tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g`oyalarni o`rganish va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, yangi g`oyani ro`yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqotlarida magistrlik dissertatsiya mazmunini shakllantirishdan iboratdir.

Bu borada o`qituvchining samarali faoliyati uning chuqur va rang-barang kasbiy bilimlari, dars berish metodikasini egallaganligi, o`z mehnatining psixologik asoslarini hisobga olishi bilan bog`langanligi ravshan bo`lishiga olib keladi.

#### **Mavzu yuzasidan test savollari:**

***1. O`quvchilarda o`rganilayotgan kasbiga qiziqishini shakllantirishni ta`minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda nimalarga alohida e`tibor berish lozim?***

- A) Analiz va sintez, diqqat va kuzatuvchanlik, ajratish va umumlashtirish va isbotlash.
- B) Diqqat va kuzatuvchanlik, ajratish va umumlashtirish, klassifikatsiyalash va isbotlash.
- C) Analiz va sintez, ajratish va umumlashtirish, klassifikatsiyalash va isbotlash.

D) Analiz va sintez, diqqat va kuzatuvchanlik, ajratish va umumlashtirish, klassifikatsiyalash va isbotlash.

***2. Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni umumiy holatini izohlash uchun qanday masalalarni hal qilish zarur?***

A) YOshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

B) Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma'naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal

o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

C) YOshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining yoshlar uchun jozibali bo'lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

D) YOshlar tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish, turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo'llarini ishlab chiqish, kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta'siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish, umumiy ta'lim maktabining oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo'naltirish va kasbiy maslaxat bo'yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda "xoxlayman", "uddalayman" hamda engil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo'naltirish asoslarini mukammal o'zlashtirishni ta'minlash zarur.

***3. Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablarni anio'lashda ilmiy pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishning mantiqiy ketma-ketligi qanday?***

A) tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g'oyalarini o'rganish va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, yangi g'oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot

B) tadqiqot farazi va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, yangi g'oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot

C) tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g`oyalarini o`rganish va ishlab chiqish mantiqi, yangi g`oyani ro'yobga chiqarish bosqichlari hamda ilmiy pedagogik tadqiqot

D) tadqiqot farazi hamda izlanish materiallaridagi g`oyalarini o`rganish va ishlab chiqish mantiqi va metodlari, ilmiy pedagogik tadqiqot

**§ 7. KASBGA YO`NALTIRISHDA MEHNAT RESURSLARINI HUDUDIIY  
XUSUSIYATLARINI ANIQLASH HAMDA TA`LIM JARAYONIGA  
TADBIQ QILISH**

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'z modelini, ya'ni islohotlarni ravon va bosqichma-bosqich amalga oshirishga asoslangan modeli ishlab chiqilgan. U ko'pchilik mamlakatlarning bozor munosabatlariga keskin o'tishi va davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuviga asoslangan modelidan, shuningdek minimal darajada iqtisodiyotni demokratlashtirish bilan davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuviga asoslangan modelidan farq qiladi. O'zbekiston modeli iqtisodiy masalalarda davlatning faol ishtirok etishi zarurligi va bozor hamda demokratik o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kontseptsiyalariga asoslanadi.

O'zbekistonda davlatga bir vaqtning o'zida bosh islohotchilik va jamiyat ijtimoiy xayotining barqarorligini ta'minlovchi hamda kafolatlovchi bosh rol berilgan. Respublikada davlatning roli bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda ham, shuningdek iqtisodiy o'zgarishlarning salbiy oqibatlaridan aholini muhofaza qilishda ham ko'zga tashlanmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat o'tish davrida bosh masalalardan biri deb e'lon qilingan. Islohotning birinchi bosqichi uchun aholini ijtimoiy muhofaza qilishga ajratilgan harajatlar miqdori respublika byudjetining deyarli uchdan bir qismini tashkil etdi. Biroq bozor tomon siljigan sari ushbu muxofazaning mexanizmlari va nufuzi o'zgarmoqda. har bir konkret davr uchun o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda ijtimoiy moslashuv choralari qayta ko'rib chiqildi. Bu sohadagi kelajak strategiyasi aholini ijtimoiy muhofaza qilishning keng qamrovli tizimidagi, ijtimoiy kafolatlarni tizimiga asta-sekin o'tishi, shuningdek aholini davlat dotatsiyalari va subsidiyalari olishdan, xususiy biznes sohasida daromadlar olish imkoniyatlariga yo'naltirish ko'zda tutiladi.

Islohot boshlangandan buyon o'tgan davr ichida O'zbekiston aholisi 2700 ming kishiga (12,9 %) ko'paydi. Umumiy o'sishning deyarli to'rt qismi qishloq aholisiga to'g'ri keladi, uning solishtirma og'irligi 59,9 % dan 62,1 % ga o'sdi. Andijon, Qashqadaryo, Samarqand va Surhodaryo viloyatida 70 % ni tashkil etadi. Qolgan viloyatlarda 50 % dan 69 % gacha o'zgarib turadi. Respublikada ayollar soni erkaklar soniga nisbatan 101,7 % tashkil etadi.

90 yillarda o'sish sur'ati pasaydi, ko'payish yuqoriligicha qoldi. Tug'ilish ko'rsatkichi ham pasaymoqda. 1997 yil 26% tashkil etdi. 1996 yili ko'zda tutilgan iqtisodiy o'sish demografik tendentsiyalarning o'zgarishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. SHahar aholisi o'sish sur'ati ko'payib, qishloqnik pasaya bordi. Tashqi migratsiya qisqardi, nikohlar soni o'sa boshladi. Orolbo'yi regionining og'ir ahvolda ekanligini ta'kidlash joiz. Ekologik omilning salbiy ta'siri ilgari faoliyat ko'rsatgan ishlab chiqarish turlarini hamda ish o'rinlarini qisqartirishga olib kelmoqda, chunki dengizning mavjudligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan mazkur ekosistema uchun an'anaviy hisoblangan hunarmandchilik va boshqa tarmoqlar yo'qolib bormoqda. 1997 yili regionning mehnat birjasida 6,1 ming kishi ro'yxatga olingan.

1997 yilning oxirida O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining solishtirma salmog'i 49,5% ni (11,4 mln.kishi), 16 yoshgacha bolalar va o'smirlar – 42,8% ni (9,9 mln.kishi) nafaqa yoshdagi shaxslar 7,7 % ni (1,8 mln. kishi)ni tashkil etdi. YOshlarning 9 yillik maktabdan so'ng kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 3 yil ta'lim olishlari majburiy belgilanganligi, mehnatga layoqatsiz yoshni 18 yoshga olib keldi. Bu o'z navbatida mehnat bozoridagi vaziyatni birmuncha kamaytirishi mumkin. 1997 yilda mehnatga layoqatli fuqarolar soni 1991 yilga nisbatan 1592.1 ming kishiga (15,7 %) o'sgan. Bu o'sishning yarmidan ko'prog'i (863,1%) oxirgi 3 yilga to'g'ri keladi. Bundan vaziyat xozirgi kunda mehnat bozorida ba'zi bir keskinliklarni, kadrlar tayyorlash sohasi uchun esa qo'shimcha vazifalarni keltirib chiqaradi.

Respublikamizda mehnatga layoqatsiz yoshdagi shaxslar sonining katta miqdorda ekanligi, daromadlar, samarali bandlik, ijtimoiy sug'urta kafolatlarini ta'minlashga asoslangan, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish zarurligini belgilab berdi.

Bu borada bolalarni bo'sh vaqtlarida turli faoliyatlarga jalb qilib, ularni ko'rgazmalarga, muzeylarga borishni tashkil qilib, ota-onalar o'z farzandlarini oila sharoitidan kelib chiqqan holda qavmu-qarindoshlar, amaki-tog'alar, amma-xolalar, aka-ukalar, opa-singillar hamda mahalla-qo'shnilarni mehnat-kasblari bilan tanishtirishlari lozim. SHu bilan oiladagi o'g'il-qizlar, o'z kuchlarini va qiziqishlarini

hisobga olgan holda mavjud ishlarni “sinab ko’rish” tamoyiliga binoan bajarishlari maqsadga muvofiqdir.

### 1-jadval.

#### Maishiy xizmat ko’rsatish sohani, uning tarmoqlarini, korxonalarini o’rganish jarayonida o’quvchilarni mazkur sohaga tegishli kasblarni tanlashga yo’naltirish

Maishiy xizmat tarmoqlari		
Aholiga uy-ro’zg’or yuzasidan xizmat ko’rsatish	Savdo xizmati	Umumiy ovqatlanish xizmati
	Maishiy xizmatga mansub kasblar	
* sartaroshlik		* oshpaz
* tikuvchi	* sanoat mollari sotuvchisi	* kulinar
* xammom va kir yuvish qabulchisi	* oziq-ovqat mollari sotuvchisi	* qandolatchi
* teleradio ustasi	* molshunos ta`minotchi	* ofitsiant
* yotoqxonona navbatchisi		* shef-oshpaz
		* kassir
		* oshxona rahbari
		* oshxona xizmatchisi

SHu tarzda bolalarni oiladagi mehnat qilish “ota-kasb” tizimidagi kasblarni tanlashga olib keladi. Bu holat bolalarni mehnatga jalb etish asosida kasb tanlashga qisman foydalaniladi: qishloq holatidan ko’ra – shaharda yashovchi bolalarning yarmidan ko’pi doimiy mehnat topshirig`iga ega emaslar hamda oila sharoitidan kelib chiqib kasb tanlashga imkoniyatlari cheklangan.

SHunga qaramasdan, oila sharoitidan kelib chiqqan holatda, bolalarga mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnatning hamma turi qo’lidan keladigan ish mazmunini bajarishda mehnatga va kasb tanlashga qiziqishlarini rivojlantirish bilan chambarchasuzviy bog`langan. Bu borada, muntazam qiziqish bolalarni faollikka,



ijodga, yaxshi sifatli natijaga erishish uchun kuch jamlashga undaydi. Kichik yoshdagi bolalarning mehnatini tashkil qilishda quyidagilardan kelib chiqish kerak: mehnat ular uchun quvonchli hissiyotlar bilan to'la qiziqarli jarayon sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Kasbga yo'naltirishda mehnat resurslarini hududiy xususiyatlarini hisobga olmaslik natijasida bir necha kamchiliklarga yo'l qo'yilishini kuzatishimiz mumkin:

1. O'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabatni kasbning o'ziga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy xislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi. Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qaxramon shug'ullanayotgan ishga ham o'tiradi. Binobarin, o'smir unga taqlid qilish yo'lidagi muddaosiga qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o'xshash bo'lishni emas, balki o'zini ham ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa ishda ham namoyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ziga ko'pincha hisob bermaydi. Badiiy adabiyotlardagi, kinofilmdagi qahramonlar ko'pincha ana shunday munosabatni tug'diradi, tanish-bilishlaridan, qarindosh-urug'lardan birontasi, chunonchi o'qituvchilar taqlid qilish uchun ko'pincha namuna bo'lib xizmat qiladilar.

Taqlid qilish uchun o'qituvchi namuna bo'lgan chog'da o'quvchi unga bo'lgan yaqinligi, mehribonligi u o'qigan fanga ham tadbiiq etadi. SHunday ham bo'ladiki, masalan, o'quvchida biologik fanlarga bo'lgan qiziqish, havas aniq -ravshan ko'rinib turadi, lekin unga adabiyot o'qituvchisi yoqqanligi uchun u o'zining butun fikr-zikrini adabiyot bilan bog'laydi.

2. O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish. O'smir maktabdagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asoslanib, ko'pincha bo'lg'usi kasbni belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jihatdan qo'llanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi. U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqituvchi sohasinigina tanlaydi, bu sohada nimani istayotganini va nima qilish mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. Kasbni tashqi jihati bilangina qiziqish. O'smirlarni romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu - mutlaqo tabiiy hol, albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar.

CHunonchi, geolog kasbida o'quvchilarni ko'pincha sayohat qilish imkoniyati qiziqtiradi, ammo ular geologning kundalik og'ir ishini: uzoq vaqt davomida mashaqqatli kuzatishini, juda aniq o'lchashlar bilan shug'ullanishzarurligini, turli joylarda o'sha bir xil qidiruv ishini oy sayin takrorlash kerakligini esdan chiqarib qo'yadilar yoki bilmaydilar.

O'quvchi kasbi esa ko'pincha turli jasoratlar, odatdan tashqari tez parvozlari, qahramonona qutqaruv ekspeditsiyalari, dadil uchishlar va shu kabilar haqidagi tasavvurlar bilan bog'langan. Holbuki, uchuvchilar avvalo va hammadan ko'proq yo'lovchi, yuk va bagaj tashish bilan shug'ullanadilar, o'quvchining faoliyati esa shoferning ishini eslatadi.

O'quvchilar u yoki bu kasb to'g'risidagi o'z romantik tasavvurlarigagina amal qilib, kasb egallashga o'zlarini jiddiy tayyorlamaydilar va natijada maxsus o'quv yurtlarida yoki tajribada kasb qiyinchiliklariga duch keladilar.

4. Mehnatning aqliy mazmuni aqliy mazmuni ba'zi kasblarda, ayniqsa ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavurning mavjudligi navbatdagi kamchilikdir. YOshlarimiz, odatda, engil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblar ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun etarli darajada imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar. Kiyim tikishda zo'r qobiliyat ko'rsatayotgan qiz qanday bo'lmasin shifokor bo'lishni orzu qilishini, dastgohda yuksak mahorat bilan ishlayotgan yigit tokarlik kasbi haqida eshitishni ham istamayotganligi singari faktlarni ayni shu narsa bilan izohlash mumkin.

5. O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik. O'quvchi biron ishni ado etishi uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida barcha yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni qilish lozimligini unga ta'qidlayodilar. SHu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

SHunday hollar ham bo'ladi, o'smir chizgan surat va rasmlar o'rtamiyona bo'lsa ham u zo'r berib rassom bo'lishga yoki matematikani yaxshi bilmasa ham texnika ta'lim muassasalariga kirishga harakat qiladi.

Afsuski, bunday holda kam emas. Ana shunday yoshlar turmushda omadsizlarni, notavon xodimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

6. O'quvchilarning bu yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaslik. Masalan, mayda ish (soat zavodida, aniq asboblarda zavodida va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm xastaligi, o'smir geolog bo'lishni xoxolasa ham lekin yuragining zaif bo'lishi, radiolokatsiyada ishlashni tanlagan yoshlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda suzish va erdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir. O'smirlar o'zlari tanlagan kasblarga to'g'ri kelmaydigan bu nuqsonlarini bilmasliklari oqibatida mos bo'lmagan kasblar bo'yicha ishga yoki tegishli o'quv yurtlariga qabul qilmaganlarida juda ham xafa bo'ladilar, tushkunlikka tushadilar.

7. O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash. O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishni o'ylab ham ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash haqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xohlamaydi, chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. SHu tariqa "men ular bilan birga bo'laman, chunki menga baribir" deydi. Keyinchalik esa u qiynala boshlaydi, azob chekadi: noto'g'ri kasb tanlaganiga pushaymon bo'ladi, o'zini qiziqdirmagan, o'ziga yoqmagan kasbda ishlayotganidan xafa bo'ladi.

8. Tasodifiy sabablar ta`siri ostida kasb tanlash. Ba`zi o`smir mexanika zavodi xonadonimizga yaqin bo`lgani uchun slesar bo`lib ishga kirdim, deydi. Ammo o`zi bu kasbni uncha yoqtirmaydi. Pedagogika kasb-hunar kollejiga kirishga tanlov uncha katta bo`lmaganligi uchun o`sha bilim dargohida o`qishga o`qishga qaror qildim, deyishadi ayrim yoshlar. Biroq ular o`qituvchi bo`lishni hayoliga ham keltirmagan bo`ladilar. Ba`zi yigit yoki qiz; laborant bo`lib ishga kirdim, chunki tanishlarim yordam qildi, deyishadi. Lekin bu ishning o`ziga manzur bo`lish-balmasligini sira ham o`ylashmaydi.

O`smirlarning etarli darajada tajribaga ega bo`lmaganliklari va katta yoshdagi kishilarning durust, malakali yordam bermaganliklari oqibatida kasb tanlashdagi bunday xatorlari oldini qanday qilib olish mumkin?

Bunga faqat bir xil javob berish mumkin: bu borada katta yoshdagi kishilar bir maqsadga qaratib, mutassil, malakali yordam berishlari kerak. O`smirlar esa ana shu yordamga tayanib, kelgusidagi hayot yo`li to`g`risidagi masalani mustaqil hal qilishari lozim. Ommaviy maktab sharoitida ana shunday yordamni tashkil qilib, uning quyidagi asosiy vazifalarini nazarda tutish kerak.

- V-IX sinflarning o`quvchilarida kasb tanlash masalasiga jiddiy va mas`uliyatli munosabatda bo`lishni tarbiyalash;

- o`smirlarning qiziqishlari va qobiliyatlarini, fiziologik va psixologik xususiyatlarini hamda imkoniyatlarini o`rganish, har bir o`quvchi o`z hayotini bag`ishlashni istaydigan faoliyat sohasini belgilab olishida unga yordamlashish;

- V-IX sinflarning o`quvchilari ana shu sinflarda to`rt yil mobaynida ta`lim olgan chog`larida ularni xalq xo`jaligimizning asosiy kasblari bilan asta-sekin tanishtirish, ularda asosiy kasblarning sohibi bo`lgan odamlar faoliyatining xususiyatlari to`g`risida to`g`ri tasavvurlarni shakllantirish, hozirgi vaqtda davlat, viloyat, nohiya g`oyat muhtoj bo`lgan ommaviy kasblarga katta qiziqish uyg`otish lozim. Buning uchun har bir o`quvchining qiziqtiradigan kasb bilan chuqur tanishtirish, tanlab olinadigan mehnat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo`lgan malaka va xislatlarni hosil qilish, shu kasbga barqaror qiziqishni tanlagan faoliyatga o`xshash

bo'lgan ishda o'z imkoniyatlarini maktabdayoq tekshirib ko'rish istagini tarbiyalash yuzasidan puxta ishlashni tashkil qilish zarur.

Korxonalar va tashkilotlar, jamoa xo'jaliklari va davlat xo'jaliklari mustaqil iqtisodiy munosabatlarni o'tishi va ularni mulkchilikning muayyan turi tashkil qilinishi hamda ishning boshqa shakllar joriy etilishi tufayli kasbga yo'naltirish muammolariga munosabatlarni o'zgartirish to'g'risidagi masala ham ko'ndalang bo'lib qolyapti. SHunga muvofiq tarzda kasbga yo'naltirish vazifasi va V-IX sinflarda o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash ishi ham boshqacha tashkil etilishi lozim. Bunda barcha o'quvchilar kasblar bilan keng va puxta tanishtirilishi, qobiliyatlari va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq ularning muayyan faoliyat turiga bo'lgan barqaror qiziqishlarini aniqlash, kasbga oid guruh tarzida va yakka tartibda maslahatlar o'tkazish, IX sinfni tamomlagandan keyin maxsus o'quv yurtlariga o'qishga kirishni xohlovchi yoshlarning o'quv yurtlarini tanlashida ko'maklashish lozim.

X-XI sinflarda kasbga yo'naltirish ishi davom etadi, chuqurlashtiriladi va tobora ko'proq tabaqalashtiriladi.

YAngi iqtisodiy tafakkur hukm surgan hozirgi sharoitda kasbga yo'naltirishida tarbiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatini va bu sohada olib borilayotgan ishni umuman shaxsni shakllantirish ishini bir qismi, deb hisoblash kerak. Darhaqiqat kasb tanlash real voqelikdan ajralgan tasodifiy faoliyat emas. Yigit va qizning qanday qarorga kelishi va ular bu qarorni qanday qabul qilishi ko'pgina omillarga: damiyatning kadrlarga bo'lgan talab-ehtiyojlari muhimligiga, mazkur joyga ish kuchiga bo'lgan talablarga va ish sharoitlariga, xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan o'quv yurtlarining mavjudligiga va ular tanlovlarning kattaligiga bog'liq. O'quvchilar aloqada bo'lmayotgan odamlarning ta'siri ham katta ahamiyatga egadir. O'smirlarning hayot yo'lini belgilab berishda ota-onalarining roli naqadar katta ekanligi hammaga ma'lum. Ko'pincha o'quvchilar u yoki bu ishga do'stlari, o'rtoqlari, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlarning maslahati bilan ukiradilar. Bu borada maktabning ta'siri ham kam emas. Nihoyat o'quvchilardan so'rash ko'rsatganidek, bu sohada ijtimoiy axborot vositalari: vaqtli matbuot, radio, televedinie, adabiyot katta rol o'ynaydi.

**Mavzu yuzasidan test savollari:**

**1. Maktabgacha ta`lim muassasalarida kasb olami haqidagi dastlabki tushunchalar qanday beriladi?**

- A) boshlang`ich mehnat ko`nikmalari, o`yinlar orqali
- B) boshlang`ich mehnat ko`nikmalari, kasblar orqali
- C) kitoblar, o`yinlar orqali
- D) ekskursiyalar, kitoblar orqali

**2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida kasb-hunarga yo`naltirish ishlari 1-9 sinflarda uzluksiz tarzda o`quvchilarga nima asosida beriladi?**

- A) testlar asosida
- B) shaxsning qiziqish va qobiliyatlari asosida
- C) shaxsning psixologik-pedagogik tashxisi asosida
- D) shaxsning ko`nikmalari asosida

**3. Kasbga yo`naltirish ishlari kimlar tomonidan amalga oshiriladi?**

A) kasbga yo`naltiruvchi mehnat ta`limi o`qituvchilari, mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o`qituvchilari amalga oshiradilar

B) mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o`qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar

C) kasbga yo`naltiruvchi mehnat ta`limi o`qituvchilari, mutaxassislar, asosiy fan o`qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar

D) kasbga yo`naltiruvchi mehnat ta`limi o`qituvchilari, mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o`qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar

## **§ 8. O'QUVCHILARNING KASBIY LAYOQAT, MOYILLIK, QIZIQISH HAMDA QOBILIYATLARNI ANIQLASH METODLARI**

Ma`lumki, xalqimiz qadimdan yosh avlod tarbiyasi, xususan yoshlarni mehnatga tayyorlash, ularga hunar o`rgatishga alohida e`tibor berib keladi. Buni hunar-hunardan unar, yigit kishiga qirq hunar oz kabi maqollarimizda ham ko`rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng bu sohaga e`tibor yanada kuchaydi. YA`ngi turdagi ta`lim, jumladan maktabdagi mehnat ta`limi va uni negizida o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirib, kollejlarda o`qishni davom ettirishga tayyorlash uchun kasb-hunar ta`limi muassasalari tashkil etilishi jadallashtirilmoqda. Ularni o`z ishining ustasi bo`lgan, erkin fikrlaydigan barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatimizning ustivor vazifalari sirasiga kiritilmoqda, zero aynan shunday yoshlar davlatimizning buyuk kelajagini bunyod eta oladi.

Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o`z o`rnini topishi, kasbiy o`zligini anglashi, jamiyatda o`z o`rnini topishga intilishi va unga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda. Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, shaxsning unga moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish, shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bolalarga qiziqtirgan kasblar haqida ko`plab ma`lumotlarni maktabgacha ta`lim muassasalarida kasb olami haqidagi dastlabki tushunchalar, boshlang`ich mehnat ko`nikmalari o`yinlar orqali beriladi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida kasb-hunarga yo`naltirish ishlari 1-9 sinflarda uzluksiz tarzda o`quvchilarga berish, shaxsning psixologik-pedagogik tashxisi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonni kasbga yo`naltiruvchi mehnat ta`limi o`qituvchilari, mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o`qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar. Kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari bu ishlarni muvofiqlashtiradi hamda metodik rahbarlik qiladi. har bir umumiy o`rta ta`lim maktablarida har yili tuziladigan va maktab direktorii rahbarlik qiladigan kasb-hunarga yo`naltirish komissiyalari faoliyat ko`rsatadilar. Komissiyalar bitiruvchilarga tanlagan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tayyorlov yo`nalishlariga yakuniy xulosalar asosida tavsiyanomalar beradi. Kasb-hunarga

yo'naltirishning ayrim elementlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tahlili va oliy ta'lim muassasalarida, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining bo'linmalarida, mudofaa vazirligi va oliy ta'limdan keyingli ta'lim muassasalarida hamda maktab bitiruvchilarini akademik litsey, KHK va oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishi, korxonalarda ishlashida kasb tanlash ishlari ham amalga oshirilishi chuqur va kengaytirish holatlari davom etadi.

Mamlakatda kasbga yo'naltirish yaxlit tizimi asta-sekin shaklanmoqda. Mazkur yagona tizim hozirgi holatida maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, kasb-hunarga yo'naltirish markazlari, yoshlar ijtimoiy harakati, oliy o'quv yurtlari, bandlik xizmatining tegishli davlat tuzilmalari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar va muassasalar o'z tarkibiy tuzilmalarida hamda ularning o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik faoliyatlarni bugungi kunda mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar zaminida – o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi ishlarni asta-sekin tashkil etmoqdalar.

Bu borada qayd etilgan o'quv muassasalar, korxonalar va tashkilotlarni tegishli kadrlar bilan ta'minlash, ayniqsa: psixologlar, kasbiy maslahatchilar, psixofiziologlar, sotsiologlar va boshqalarni tayyorlashni ko'paytirish hisobiga shakllantiriladi.

Buni inobatga olgan holatda pedagogik institut va universitetlarda tayyorlanayotgan mehnat ta'limi va kasb-hunar o'qituvchilarini o'quv rejalarida bo'lajak o'qituvchilar faoliyatida – “O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish” kursining o'qitish metodikasiga e'tibor katta.

O'quvchilarni – bo'lajak kasbini ongli ravishda tanlashi, tanlagan kasbi yuzasidan to'la axborot va ma'lumotlarga ega bo'lishi uchun 8-9 sinflarning birinchi yarmida “ishlab chiqarish asoslari” kursida etarli materiallar kiritilgan hamda ularni to'la hajmida o'zlashtirishga xos imkoniyatlarni yaratilishi ko'zda tutilgan.

SHunday qilib, o'quvchilarni 5-7 sinflarida tanlangan mehnat ta'limi zaminida o'zlashtirgan bilim-ko'nikmalari, umumta'lim fanlari asosida kasblar to'g'risidagi bilib olgan axborotlar hamda maktab va maktabdan tashqari tizimlardagi dars va ommaviy mashg'ulotlarda kasblar to'g'risida olayotgan ma'lumotlar – ularga ongli ravishda aniq bir kasbni tanlashga olib keladi.



SHuni inobatga olgan holda, 9-sinfda – maktab tizimida olib borilgan kasb tanlash ishlarini, 9-sinflarda esa, kasb tanlashga xos tashkiliy-ommaviy va hamkorlik tadbirlarini olib borilishi rejalangan. Ular yuzasidan quyidagi o'quv-mavzu rejalar ishlab chiqilgan.

Mavzular tezis holatda yoritilgani uchun, ularni qo'shimcha materillar, sxema va boshqa ma'lumotlarni har tomonlama o'rganishga yo'naltirilgan. Unga kasb tanlashga xos pedagogik-psixologik va metodik materiallarni qo'shimcha manbalardan foydalanib to'ldiring, boyiting, chuqurlashtiring va kengaytiring. Qo'shimcha materiallardan ko'pincha hududiy, mahalliy va ilg'or tajribalar yuzasidan ma'lumotlarga e'tiborni kuchaytiring. Mavzuga taaluqli xududiy akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatlarini o'quv-tarbiya ishlarini, kasblarga yo'naltirilgan materiallarni kengroq qilib ifodalang. Azkur mavzularni o'quvchilar mustaqil holatda o'zlashtirishga alohida e'tibor bering. O'quvchilar o'zlashtirayotgan materiallarni tizim yoki model holatiga keltirishga ko'proq e'tiborni yo'naltiring. Bu borada, o'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonlarida ko'rsatayotgan harakatlarini quyidagicha yo'naltiring:

- 1) mavzuga xos materiallarni to'plash, tahlil etish, xulosa chiqarish;
- 2) turli manbalardan qo'shimcha materiallarni izlash va ularni asosiy materiallar bilan uyg'unlashtirish, kengaytirish va boyitish;
- 3) mavzuni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonida mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash, ularni echish holatini aniqlash hamda muammolarni bartaraf etish tadbirlarini belgilab olish;
- 4) agar mavzuni o'zlashtirish jarayonini tajribaga qo'yish va uni o'tkazish usullari bilan maqsadga erishishni talab etsa, demak, mazkur usullardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berish zarur;
- 5) mazkur mavzularni ayrimlarini tadqiqot usullari bilan o'zlashtirish metodikaini aniqlab hamda uni amalda tadbiq etish.

SHunday qilib, mazkur to'plamda kasbga yo'naltirish masalalarini o'quvchilar, asosan, mustaqil ravishda o'zlashtirishlariga qaratilgan. SHu bilan birga quyidagi

mavzulardan birini tanlab pedagogika, psixologiya va kasb tanlash bilan uyg'unlashtirilgan holda ifodalashni tavsiya etiladi:

1. Referat ishi mavzusini g'oyasiga binoan quyidagi shakllarda ishlab chiqiladi:

- loyihalar tayyorlash;
- modellar ishlab chiqish;
- takomillashtirilgan dasturlar;
- dasturilamal rejalar va hakoza.

2. Referat ishini himoya natijasidan kelib chiqqan holda komissiya qaroriga binoan amalga tadbiiq etish uchun viloyat rahbarlariga tegishli tavsiyalar beriladi.

3. Referat ishini to'la amalga tadbiiq etilishiga qarab tinglovchi-xodimni tegishli mahalliy tashkilotlar rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy taqdirlash masalalari qo'yiladi. Bitiruv ishi yuzasidan kafedradan tayinlangan ilmiy rahbar sizga amaliy yordam ko'rsatadi.

4. Referat ishiga tavsiya etilgan mavzular:

I. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasining dolzarb muammolari:

1. Kasb-hunarga yo'naltirilgan pedagogikasining dolzarb muammolari;
2. Kasb-hunarga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni optimallashtirish;
3. Muammoli ta'lim;
4. Qo'shimcha darslar;
5. O'quv jarayonidagi ishchi o'yinlar;
6. O'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish jarayonida faolligini oshirish;
7. Pedagogik mehnat ilg'orlarining tashkiliy-metodik tizimining asoslari;
8. Tayanch konspektlarni tuzish metodikasi;
9. Pedagogik tajriba va g'oyalar;
10. Pedagogning ilmiy laboratoriyasi;
11. Pedagogik tajriba va ijodkorlik;
12. Pedagogik mahorat;
13. Pedagogik faoliyatda mantiq;
14. Pedagog etikasi;
15. Pedagogikada notiqlik san'ati;

## II. Kasb-hunarga yo'naltirish psixologiyasining dolzarb muammolari:

1. Kasb-hunar ta'limi psixologiyasi;
2. Jamoaning psixologik muammolari;
3. Pedagog obro'ining shakllanishi;
4. O'quvchilarning psixologik xususiyatlari;
5. O'quvchilarning bilish va qiziqishlarini shakllantirish;
6. SHaxsning hissiy-irodaviy tavsifi;
7. Xotira va uni rivojlantirish yo'llari;
8. Muloqotning psixologik xususiyatlari;
9. Diqqat va uning o'quv-ishlab chiqarish faoliyatidagi roli;
10. Fikrlash, tasavvur, ta'lim jarayonida ularni rivojlantirish;
11. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashning psixologik asoslari.

## III. Kasb tanlashning dolzarb muammolari:

1. Kasb tanlashning ijtimoiy asoslari;
2. Kasb tanlashning iqtisodiy asoslari;
3. Kasb tanlashning psixologik asoslari;
4. Kasb tanlashning tibbiy asoslari;
5. Kasb tanlashning fiziologik asoslari;
6. Kasb tanlashning yuridik asoslari;
7. Kasb tanlashning pedagogik asoslari;
8. Kasb tanlashning tarbiyaviy asoslari;
9. Gumanitar predmetlardan kasb tanlash asoslari;
10. Fizik-matematik predmetlardan kasb tanlash asoslari;
11. Biolog-fiziolog predmetlardan kasb tanlash asoslari;
12. Mehnat va kasb ta'limidan kasb tanlash asoslari.

SHunday qilib, maktab tizimidagi hamda mehnat ta'limi negizidagi kasb tanlashni hamda maktabdagi sinf va sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish asoslarini muntazam ravishda olib borishi ishlab chiqildi, tadbiq etilishi belgilandi, mezon va darajalari keltirildi.

Keltirilgan materiallar turli shaklda, hajmda va holatlarda keltirilmoqda. Magistrantlar ulardan axborot, ma`lumot, tavsiya, qayta ishlab chiqish, maqola, risola va magistrlik dissertatsiya qo`llanishi uchun taqdim etilmoqda. Taqdim etilgan materiallar: rasmiy hujjatlardan, risola, maqolalar va boshqa manbalardan olingan.

Bu borada magistrantlar o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish bo`yicha umumiy o`rta ta`lim maktablari direktori, amaliyotchi psixologi, kasb-hunarga yo`naltiruvchi, sinf rahbarlarining asosiy vazifalarini kasb tanlash ishlari bilan uyg`unlashtirib olib borishlarini tashkiliy va ilmiy-pedagogik asoslarini taxlil qilishlari lozim.

O`quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish hamda qobiliyatlarni hisobga olinmasa quyidagi kamchiliklarni keltirib chiqarish mumkin:

O`qituvchining kasb-hunar tanlashda uning qobiliyati qizishi xisobga olinmasligi.

O`qituvchining kasb-hunarni tanlashdan uning aniq kasbga bo`lgan qiziqishi qobiliyati salomatligi va boshqa omillari har tomonlama o`rganilmaydi, natijada o`quvchining shaxsiy mayli qiziqishiga emas balki o`qituvchining o`quv rejasiga asoslanib umumiy kasb tanlashga xos o`qishga turli mazmundagi tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishga madaniy-axloqiy ishlarni tashkil etish va o`tkazishga majburan jalb etiladiganga o`xshab ketadi. Bunday tabiiy xolat oqibatida har ikkala shaxsda (o`qituvchi o`quvchi) ham kasb tanlash ishlarda faollik tashabbuskorlik ijodkorlik yo`qoladi.

O`qituvchining o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish talim-tarbiyaviy ishini aniq va ijodiy rejalashtirmasligi.

Bu sabab mehnat ta`limining yagona o`quv rejasi tarbiyasiga qo`yilgan talabning bir xilligi hamda ota-kasb va ustoz-shogird tizimlaridagi kasb manaviyatiga e`tiborsiz qarash natijasidir. Natijada o`qituvchi dars jarayonida reja va dasturdan kelib chiqib o`quvchini mehnat va kasb tanlashini manaviy shakllantirish imkoniyatlarining didaktik adabiyotlarga boy manaviy merosimiz durdonalariga diniy manbalarga o`lkashunoslik materiallariga tayangan holda ta`limining tarbiyaviy tomoniga aloxida e`tibor bermaydi. O`qituvchi dasturga yoki darslikka suyanib qolmasligi o`quvchilarning qiziqish va o`z imkoniyatlariga qarab tanlanlangan kasbga ota –kasb

va ustoz - shogird talablariga tayanib ish olib bormasligi. O'quvchi diqqatini, qalbini, ongi va foliyatini zabt eta olmaydigan xohlagan kasbini tanlashgan voz kechish ularning manaviy extiyojini qondira olmaydigan mohir ustalar va mutaxassislar ijodi va foliyatini ijodiy o'rganishdan uzoqligi salbiy ta'sir qiladi.

O'qituvchilarning mehnat jarayonida va ularni kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan talim va tarbiyadagi uzviy birlikning yo'qligi.

Mazkur yo'nalishdagi kamchiliklar shu bilan izoxlanadiki mehnat talimining dars jarayonida uning tarbiya va kasb-hunarga yo'naltirish qonuniyatlari undagi tarbiya jarayonini tashkil etishda talim qonunyatlariga etarlicha e'tibor qilinmaydi. Mehnat talimi dars jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quv materiallari vositasida to'plangan bilim malaka va ko'nikmalar ijtimoiy foydali madaniy foliyat jarayonida qo'llanilmaydi. Darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari ish sifatida tashkil etilmaydi uning natijalari darsda o'quvchilarning bilim foliyatini kasb tanlashning follashtirish uchun foydalanilmaydi.

Eng asosiy o'qituvchilarni kasb-hunarga yo'llash ta'limini tarbiyaviy xarakteriga etiborning nihoyatda pastligi hisoblanadi. Respublikamizdagi fan o'qituvchilari ish tajribalarini o'rganish natijasida aniqlanganki aksariyat o'qituvchi va ustozlar talimning tarbiyaviy jarayoni tashkil etishdan iborat deb bo'lmaydilar degan xulosaga keldilar.

Talimning tarbiyaviy xarakterini amalga oshirish uchun tarbiya qonunyatlarini o'quvchilarni kasb hunarga yo'llash talim qonuniyatlarini negiziga sindirib yuborish xar bir mavzuni o'rganishda asosiy maqsad puxta bilim berish emas balki har tomonlama voyaga etgan o'quvchi shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i ko'zda tutilishi kerak.

Har bir maktab O'zbekistonda migratsiya vazifasini hisobga olgan holda atrofdagi ishlab chiqarish korxonalarini fermer xujaliklarini agrosanoat majmualarni shaxsiy uylarda tashkil etiladigan yakka mehnat foliyatlarini istiqboliga tayangan holda mehnat ta'limi negizida o'quvchilarni bir necha kasb-hunarga yo'naltirishning kasb-korlik tayyorgarlikka uyg'unlashtirishgan holda mustaqil ravishda belgilab oladi.

Mehnat talimi jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdan asta-sekin

aniq kasb-korlikka tayyorgarlik mazmunida mehnat kasb ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi materiallar uyg'unlashtirilgan holda aks etiladi. Mehnat ta'limi mazmunidan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida ularni kamida 3 ta kasbga tayyorgarlik holatini o'quvchilar amaliy foliyatlarini bozor munosabatlari bilan uyg'unlashtirilgan holda aks etiladi. Negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish imkoniyatlarini aniq kasb-korlikka tayyorgarlik o'quv rejasi dasturlari va didaktik materiallari yagona tarkibda va uzluksiz tamoyillar asoslariga binoan ishlab chiqiladi.

Mehnat talimi zaminida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishgina umumiy mehnat umumiy texnika umumiy texnologiya umumiy ishlab chikarish umumiy kasblar yangi malumotlar bilan uyg'unlashtirilgan va uzviy bog'langan tizim xamda tamoyillar asoslarida o'zlashtirishni tashkil kilinadi.

Mehnat talimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularni kasb-korlikka tayyorgarlikning o'quv jarayonlarida noananviy vaziyatlar va yangi dars texnologiyalar uzluksiz hamda yangilangan holatda qo'llaniladi, kasb-hunarga yo'naltirishda ular o'quvchilarni o'zlashtirilgan mehnat va kasb-korlik bo'yicha tayyorlash jarayonlaridagi shakllanayotgan bilimlar ko'nikmalar mahoratlar malakalar va ijodkorliklar uzluksiz boyitilib kengaytirib va chuqurlashtirib boriladi, mehnat talimda o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirishni kasb-korlik tayyorgarligida nazariy bilimlarni o'zlashtirish xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning asosiy qismlarini o'quvchilar darsdan tashqari va amaliy mashg'ulotlar jarayonida mustaqil ravishda uzviy bog'lab o'rganishga maxsus etibor beriladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini uyg'unlashtirilgan mehnat va kasbkorlik bo'yicha tayyorlashda nazariy darslar amaliy mashg'ulotlar ishlab chikarish faoliyatlarni uzviy bog'langan jarayonda tashkil etiladi hamda boshqariladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash holatini uyg'unlashtirilgan mehnat va kasb-korlik bo'yicha tayyorlash jarayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda – ularda test reyting kim oshdi namoyishlarini ko'rgazmalarni ma'lum bir tizim va tamoyillar asosida uzviy bog'lab o'tkaziladi.

Mehnat jarayonlarini 1-sinfdan 9-sinfgacha o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib umumiy talim fanlar bilan uzviy bog'langan hamda ularni kasbiy

yo'naltirilgan holda boyitib kengaytirib va chuqurlashtirib olib boriladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish holatini uyg'unlashtirilgan mehnat va kasbkorlik buyicha tayyorlashni bog'cha –maktab –KXX ma'lum holda uzluksiz tizim va tarkibida tashkil qilinadi.

Uyg'unlashtirilgan mehnat ta'limi va kasb-korlika tayyorgarlikka manaviy marifat huquqiy ekologik asoslari bilan uzviy bog'langan holatda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirilgan jarayonlari o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Uyg'unlashtirilgan mehnat talimi va kasb-korlikka tayyorgarlikni maxsus tashkil etilgan o'quv-tarbiya jarayonlarini samarasini oshirishda ulardagi didaktik asoslarda muallifni ilmiy asoslangan o'quv materiallarning mazmunini tadqiqot shakllari metodlari va vositalari muntazam ravishda tadbiq etiladi shunda o'quvchilarni maktab sharoitida mehnat va kasbgacha tayyorgarlikka zaminni paydo bo'lgan hamda ular maktabni bitirgach kasb-hunar kolejlarga tegishli yo'nalishga tayyorlangan holda o'qishni davom etiradilar.

Bu borada quydagi materiallardan zamin asosida kulanilsa – maqsadga muvofiq bo'la oladi.

I. Mavzu: Prezident Islom Karimovning asarlarida ishlab chiqarishning isloh qilish ayrim masalalari.

II. Maqsad: O'quvchilarni – Prezident Islom Karimovning asarlarida ishlab chiqarishni isloh qilishga oid nutqlari bilan tanishtirish hamda shu yo'nalish bo'yicha ularni tafakkurini kengaytirilgan holatda mehnat ta'limi va kasb tanlashga uzviyligini yoritish.

III. Ko'riladigan masalalar:

1. Ta'lim tarbiyaning ma'no va mazmunini-o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni ishlab chiqarishda shakllanayotgan islohotlar bilan uyg'unlashtirish ahamiyati.

2. Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy ta'lim tarbiyani ishlab chiqarish asoslari bilan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni uyg'unlashtirib amalda tadbiqetishlari.

3. Mehnat ta'limi tayyorgarlikni o'quvchilarni kasbga yo'llash bilan

mumtoz hunarmandchilik bilan uyg'unlashtirish bugungi va kelgusi avlod tafakkurini kengaytirish asoslari.

O'zbekistonda mustaqillik davrining ta'lim-tarbiya tamoyillari birinchi navbatda ajdodlarimizning bu boradagi tajribalaridan faxrlanish tuyg'ularini tarkib toptirish va rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Binobarin, fan va madaniyatning mumtoz namoyondalari qoldirgan ilmiy nazariy me'ros bugungi va kelgusi avlod tafakkuri doirasini kengaytirishga bevosita yordam beradi. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov dastlab tarixiy tafakkur tarziga asosiy diqqat e'tiborni qaratadi.

Mazkur va boshqa asarlarida Prezident Islom Karimov respublikamizda keyingi yillarda ro'y berayotgan katta iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va xuquqiy o'zgarishlar haqida bayon etilgan. O'qituvchilarga tushunarli bulishi uchun o'qituvchi Islom Karimovning yuqorida nomlari keltirilgan risolalarning ko'rsatilishi, zarur bo'lsa ularning mazmunini qisqacha ta'riflab berishi mumkin.

“O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida” nomli mazkur asarda mamlakatimizda mustaqillik e'lon qilingandan keyingi davrda amalga oshirilgan ishlarga yakun yasalgan, sodir bo'lgan ijtimoiy siljishlar, iqtisodiy islohotlar, kishilar ongida ro'y berayotgan o'zgarishlar va boshqa zarur masalalar tahlil qilingan.

SHunday ekan O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning shu va boshqa asarlarini mukammal va atroflarcha o'rganish, unda olg'a surilgan g'oyalarni o'zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir. CHunki asar har bir O'zbekiston fuqarosini porloq kelajagimiz uchun halol va faol mehnat qilishga chorlaydi.

“Islohotlarning muvaffaqiyati har birimizning qo'limizda. O'zbekistonda yashovchi barcha aholining qo'lidadir. Mamlakatimizni erkin, boy ravnaq topayotgan mamlakat bo'lsin desak, farzandlarimiz baxtiyor va to'kin-sochin yashasin desak, islohotlarning ikkinchi bosqichida xam maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun butun kuch g'ayratimizni sarflamog'imiz darkor. Bu bosqich mamlakatimizning jadal rivojlanishi, uning qudrati xamda jaxon xalk ta'limiyatidagi obro' e'tiborni kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratishga qaratilgandir. Ushbu maqsadlarga erishish bizning muqaddas burchimiz, kelajak avlodlar oldidagi ezgu



majburiyatimizdir.”- deyilgan asarda. (I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-Toshkent: O'zbekiston, 1995. 267 b.)

SHunda mehnat ta'limi o'qituvchisi mazkur kursning davr talabiga binoan, o'quvchilarga davlatimiz oldida tutgan g'oyat muhim ishlab chiqarish bilan bog'liq vazifalar mamlakatni iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy isloh qilish, iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalashtirish, kelajak poydevori bo'lmish yuksak ma'naviyatdan Vatan ravnaqi yulida foydalanish masalalarini ularga sodda va tushunadigan misollar bilan uyg'unlashtirgan holda tushuntiriladi.

«Ta'lim to'g'risidagi» qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni qabul qilishdan maqsad, avvalgi 11 yillik ta'lim tizimi ilmiy jihatdan asoslab berilmaganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Sababi, balog'atga etmagan, mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlanmagan yoshlar oldida ikkita ulkan xavf-xatar: ishlab chiqarish uchun keraksiz bo'lib qolish va kasb-hunar egallay olmasliklari mumkin.

Amaldagi qonun va dasturlarini amalga oshirishning asosiy bo'g'inida uzluksiz ta'lim tizimi yotadi.

### **Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

1. “Maktab va hayot” ilmiy-metodik jurnali (2006 yil № 2)da chop etilgan “Iste'dod – inson kamoloti darajasi” maqolasidagi g'oya va fikrlarni ilmiy-pedagogik asoslari yuzasidan tajriba-sinov dasturini ishlab chiqib maktab va kollej sharoitlarida amalga oshirishni ta'minlash.

2. Tajriba-sinovda ishtirok etgan o'quvchilar o'rtasida reyting o'tkazish uchun o'quvchilarga qaratilgan 15 ta og'zaki savollar, daftar yuritish, 15 amaliy va 15 mustaqil ishga oid materiallar ishlab chiqish. O'quvchilarning bajarilgan har bir ish uchun quyidagi ballarni belgilash:

- Og`zaki so`rashga – 5 ball;
- Daftar yuritish – 5 ball;
- Amaliy ish – 10 ball;
- Mustaqil ish – 15 ball.

3. “Sinf dan va maktabdan tashqari kasbga yo`naltirish ishlari” yuzasidan ma`ruza matni tayyorlash.

4. “Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish va o`tzazish metodikasi” yuzasidan tabiiy hamda laboratoriya tadqiqotlarida izlanishni ta`kidlovchi faoliyatlarni ta`riflash hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish (aniq mavzu misolida).

## **§ 9. KASBGA YO`NALTIRISHDA O`QUVCHI SHAXSIGA INDIVIDUAL YONDOSHISH METODIKASI**

Individual mustaqil ishlar kasbga yo`naltiruvchi mehnat o`qituvchilari, maktab psixologi va sinf rahbarlarining kasb tanlash masalalari yuzasidan metodik va psixologik adabiyotlarni, shuningdek kasbga yo`naltiruvchi ekskursiyalar tashkil qilishni o`z ichiga oladi. SHu maqsadda o`quv yilining boshida butun yilga mo`ljallangan shaxsiy reja tuzib chiqadilar.

Kasbga yo`naltirishda o`quv materialini mazmuni fan va texnika taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o`quvchilarga tushunarli bo`lishi kerak. Bundan tashqari o`quvchilarni aqliy va jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak.

O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini turli anketa savollari va testlar yordamida ham aniqlasa bo'ladi. Quyida H.F.Rashidov, SH.T.Ergashev hamda S.Boltaboevlar tomonidan taklif qilingan o'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasini e'tiboringizga havola etamiz [10].

Ushbu metodikaga ko'ra sizga turli kasblar va mashg'ulotlarga oid savollar havola etiladi. Savollar tartiblangan bo'lib, javoblar varaqasidagi raqamlarga mos keladi. Siz o'z qiziqishlaringizni hisobga olgan holda har bir savolga bergan javobingizni 1,2,3 yoki 4 ball bilan baholashingiz lozim bo'ladi. Qo'yiladigan ballar quyidagicha izohlanadi:

- Umuman qiziqarli emas                      - 1 ball;
- Unchalik qiziqarli emas                    - 2 ball;
- Qiziqarli    - 3 ball;
- Juda qiziqarli                                    - 4 ball.

Savollar ichida sizga notanish bo'lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda siz "ushbu kasblar haqida nimalarni bilasiz?" degan savolga taxminan javob berishingiz lozim bo'ladi. Uzoq o'ylamang. Ko'proq hayolingizga kelgan dastlabki fikrlashingizni javob varaqasiga tushiring.

**Menga yoqadi:**

1. Mashina va mexanizmlar bilan ishlash.
2. Metroda sayr qilish.
3. Radiohavaskorlik.
4. Binolar maketini tayyorlash.
5. Suv o'tkazgichni tuzatish.
6. Rivojlanishi sust bolalarga yordam berish.
7. Traktorlarga texnik xizmat ko'rsatish.
8. Bolalarni maktabga tayyorlash.
9. Film ko'rish.
10. Pul, foyda va zararni hisoblash.
11. Radio-teleapparaturni sozlash.
12. Velosiped tuzatish.

13. Parashyut bilan sakrash.
14. Kompyuterda ishlash.
15. Rangli rasm solish.
16. Gaz plitalarini tuzatish.
17. Bemorlarni tinchlantirish va ularga yordam ko'rsatish.
18. Ekskavator bilan ariq va zovurlar kavlash.
19. Bolalar bilan ishlash.
20. Kuy chalish.
21. Jamoat tartibini saqlash.
22. Oziq-ovqatlar bezash, garnirlar tayyorlash.
23. Mashinalarni "kavlashtirish".
24. Avtobus haydash.
25. Radiodetallarni almashtirish.
26. g`isht terish.
27. Obodonlashtirish.
28. Dorishunoslik.
29. O'rmon kesish, daraxtlarni tartibga solish.
30. To'garak ishini tashkil qilish.
31. Raqsga tushish.
32. Aktsiyalar bozorini kuzatish.
33. Ko'pchilik uchun taom tayyorlash.
34. Metallarni biriktirish.
35. Samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish.
36. Xovliga chiroq tushirish.
37. YOg`ochga ishlov berish.
38. Rezba qirqish.
39. Bemorlarga yordam ko'rsatish.
40. Mevali ko'chatlar etishtirish.
41. Bolalarga kurash usullarini o'rgatish.
42. Ashula aytish.

43. Tejamkorlik bo'yicha maslahatlar berish.
44. Xaridni rejalashtirish.
45. Ob-huvoni oldindan aniqlash.
46. Ralli musobaqalarida qatnashish.
47. O't o'chirish.
48. Metallni payvandlash.
49. Aholini suv bilan ta'minlash.
50. Doya-enaga faoliyati.
51. Erga ishlov berish.
52. Suvda suzish, o'milish.
53. SHE`r yodlash va ifodali o'qish.
54. Matematik misollar echish va hisob-kitob qilish.
55. Zamonaviy soch turmaklarini o'ylab topish.
56. Bichish, tikish.
57. Daryoda yuklarni tashish.
58. Akkumlyator tuzatish.
59. Bino poydevorini quyish.
60. O'rin-joy, xonadonni yig`ishtiruvchi robot yaratish.
61. Bemorlarni parvarishlash.
62. Mashinada paxta terish.
63. Bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish.
64. Latifa aytish va eshitish.
65. Latifa aytish va eshitish. hujjatlar bilan ishlash.
66. Dazmol, kir yuvish mashinasi kabilarni tuzatish.
67. Mebel yasash.
68. Poezdga sayohat qilish.
69. Pochta aloqasi operatori.
70. Oyna qirqish.
71. Liftga qavatga ko'tarilish.
72. Nuqsonli bolalarga yordam berish.

73. O'simlik va hayvonlarni parvarishlash.
74. Sport musobaqalini tashkil qilish.
75. Loydan qo'g'irchoq yasash.
76. Tejamkorlik.
77. SHirinliklar tayyorlash.
78. Er osti boyliklarini izlab topish.
79. Avtopoygalarni tomosha qilish.
80. Kuygan lampochkalarni yangilash.
81. Devorgagulqog'oz yopishtirish, bo'yash.
82. Elektr-gaz payvandlash ishlari bilan shug'ullanish.
83. Dezinfektsiyalash.
84. Akvariumda baliq boqish.
85. Bolalarga o'qish-yozishni o'rgatish.
86. Afisha va e`lonlar chizish.
87. Bozordagi narx navoni kuzatib borish.
88. Dasturxon tuzash, mehmon kutish.

### Javoblar varaqasi

Savollarga javob berib bo'lganingizdan so'ng har bir qatordagi savolga berilgan javob ballari yig`indisini 2-ustunga yozing. Yig`ilgan ballarning eng yuqorisiga mos kelgan sohaga oid kasblarga sizdagi qiziqish va moyillik darajasi yuqori.

Savol raqami	Ballar yig`indisi	Kasb guruhi	Sohalar
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
1 12 23 34 45 56 67 78		1-guruh	Sanoat
2 13 24 35 46 57 68 79		2-guruh	Transport
3 14 25 36 47 58 69 80		3-guruh	Aloqa
4 15 26 37 48 59 70 81		4-guruh	Qurilish
5 16 27 38 49 60 71 82		5-guruh	Uy-joy kommunal xo'jalik
6 17 28 39 50 61 72 83		6-guruh	Tibbiyot

7	18	29	40	51	62	73	84		7-guruh	Qishloq va o'rmon xo'jaligi
8	19	30	41	52	63	74	85		8-guruh	Pedagogika
9	20	31	42	53	64	75	86		9-guruh	San`at va madaniyat
10	21	32	43	54	65	76	87		10-guruh	Ijtimoiy-iqtisodiy soha
11	22	33	44	55	66	77	88		11-guruh	Savdo va umumiy ovqatlanish

#### 1-guruh. Sanoat.

Sizda sanoat sohasiga mansub bo'lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyotsozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo va engil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari, shuningdek, matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

#### 2-guruh. Transport.

Sizda avtomobillarni boshqarish, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga moyillik yuqori. SHu bois siz transport vositalari bilan ishlaydigan mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari yoki matematika va fizika fanlari yo'nalishidagi akademik litseylarda tahsil olishingiz mumkin.

#### 3-guruh. Aloqa.

Sizda aloqa bilan bog'liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikatsiya, radio, pochta, elektron uskunalarni boshqarish, xalqaro aloqa, telefon, telegraf va boshqa sohalar bo'yicha kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o'rgatuvchi akademik litseylarga o'qishga borishingiz mumkin.

#### 4-guruh. Qurilish.

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish yuqori. Sizga qurilish avtomobillari va mashinalarini boshqarish, sanitariya-texnik tizimlar, temir-beton mahsulotlari va konstruktsiyalar, duradgorlik kabi kasblar bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishni tavsiya etamiz.

#### 5-guruh. Uy-joy, kommunal xo'jalik.

Sizda suv, gaz ta'minoti, turar joy va jamoat binolariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga qiziqish baland.

Siz uy-joy va kommunal xo'jalik sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejida yoki aniq fanlar yo'nalishidagi akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

#### 6-guruh. Tibbiyot.

Sizning sog'liqni saqlash sohasining umumiy amaliyot, stomatologiya, ortopediya, farmatsiya, tibbiy optika va laboratoriya tashxisi sohalaridagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyot yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari yoki kimyo va biologiyaga ixtisoslashgan akademik litseylarda o'qishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### 7-guruh. Qishloq va o'rmon xo'jaligi.

Siz qishloq ho'jaligi va o'simlikshunoslik bilan bog'liq bo'lgan kasblar yoqadi. Sizga qishloq xo'jaligi texnikalarini boshqarish. Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, gidromelioratsiya, fermer xo'jaligi, agronomiya, zootexnika, o'simlikshunoslik, chorvachilik sohaları o'qitiladigan yoki biologiya fani chuqur o'rgatiladigan akademik litseylarda tahsil olishni tavsiya etamiz.

#### 8-guruh. Pedagogika.

Sizda bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish va ularni qo'llab-quvvatlashga bog'liq kasblarga moyillik kuchli. Siz m aktabgacha ta'lim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, boshlang'ich sinflarda sport va musiqa ta'limiga oid kasblarga tayyorlaydigan kab-hunar kollejlari ta'lim olishingiz mumkin.

#### 9-guruh. San'at va madaniyat.

Sizni tasviriy san'at, rassomchilik, xoreografiya, teatr hamda madaniya oqartuv ishlari qiziqtiradi.

Sizga madaniyat va san'at yo'nalishidagi kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari ta'lim olish tavsiya etiladi.

#### 10-guruh. Ijtimoiy-iqtisodiy soha.

Sizda moliya, buxgalteriya, menejment-marketing, bank, huquqshunoslik, yong'in xavfsizligi, avtonazorat, ijtimoiy ta'minot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish yuqori.



Sizga ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlarda va aniq fanlar yoki ijtimoiy yo'nalishdagi akademik litseyda ta'lim olishni tavsiya etamiz.

11-guruh. Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish.

Sizda umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko'rsatish, radiotexnika va teleapparaturalarni ta'mirlash, maishiy gaz va mashinalarni ta'mirlash, kino-fototexnika xizmatlari ko'rsatish sohalariga qiziqish yuqori.

Sizga savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish bo'yicha kasblarga tayyorlovchi kasb-hunar kolleji yoki aniq fanlar akademik litseylarida o'qish tavsiya etiladi.

Bu borada sizlarga maktab sharoitidan kelib chiqqan holatda har bir fan o'qituvchilari eng avvalo, o'z fanlari mazmunidagi kasblar to'g'risidagi dastlabki tushunchalar berishga intiladilar. Matematika o'qituvchilari eng avvalo, o'z kasbi matematika o'qituvchisi, informatika kasbi, iqtisodchi, moliya xodimlari, qayd etilgan tarmoqlardagi boshqa kasb va mutaxassislar to'g'risidagi axborotlar bilan matematika bilim va ko'nikmalar negizida shakllanadigan boshqa kasblarni tanlashga tavsiya etishga zamin bo'ladi. Fizika fanida o'qituvchi o'z kasbi bilan bir qatorda elektr, atom, elektron, radar, mexanika, lokator, radio va boshqa fizika bo'limlari tarmoqlari bilan uzviyligi mavjud kasblar to'g'risida ma'lumotlar negizida shu sohalarda ishlaydigan kasb va mutaxassislar tarmoqlari bilan tanishtirishga barcha ma'lumotlarni darslik, televizor, internet, audio-video vositalardan foydalanish hamda mazkur kasblar bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarga maqsadlashtirilgan ekskursiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biologiya fani o'qituvchisi o'qituvchilarni o'z kasbi hamda shu kasb negizida uyg'unlashgan botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, o'simlikshunoslik va boshqa predmetlar, qishloq xo'jalik sohasining dehqonchilik, chorvachilik, o'rmonchilik, bog'dorchilik, paxtachilik, bug'doychilik, urug'chilik va shunga bog'langan boshqa o'nlab tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan yuzlab kasb va mutaxassisliklar bilan olib boriladigan kasb tanlash ishlari turli shakl va metodlardan foydalangan holda o'qituvchilarga o'z kelajagini tanlashga imkoniyatlar mavjuddir.

SHunday qilib maktab sharoitidan va imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilar 9 yil mobaynida 20 dan ortiq fanlarni o'zlashtirish jarayonida har biridan kamida 25 kasb va mutaxassislik faoliyatlarini o'rganib, unda: a) umumiy yondoshuv; b) integratsiyalash holatida; v) bevosita tanlagan kasbi yuzasidan bitta-ikkitasiga tanlangan kasb bo'yicha amaliy ish, faoliyat ko'rsatgan holda mehnri uyg'otishiga imkoniyatlar yaratilgan.

SHuni ham ta'kidlash zarurki, barcha yigit-qizlar, o'quv predmetlari qatorida alohida o'z mavqeiga ega bo'lgan murakkab predmetlardan biri – bu mehnat ta'limi fanidir. Mazkur fanni o'zlashtirgan o'quvchiga xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga xos kasblar yuzasidan materiallarni, asbob-uskunalar, mashina va moslamalarni nafaqat o'rganishi, ulardan foydalanish hamda ular yordamida unumli foydali maxsulotlar tayyorlashni uddalay olganlari 70-80 foiz maktab bitiruvchilari tashkil topganlar. Undan tashqari, maktab bitiruvchilari qayd etilgan asoslarga tayanib o'zlari sevgan kasblar tanlaganlar. Undaqa maktab bitiruvchilari yil sayin oshib o'zlarini o'rni zamonaviy kollejlarda o'qishni davom etib “kichik mutaxassis” darajali kasb egasi bo'lmoqdalar.

SHunday texnologiyalar asosida 6-7 sinflar bo'yicha materiallarni o'zlashtirgandan so'ng, 8-9 sinflardagi materiallar 5-sitnfdan tanlab olingan yo'nalishda ishlab chiqarish sohasini hamda shu sohadagi kasblar misolida ma'lumotlarni to'plab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

### **Mavzu yuzasidan test savollari**

***1. 9 yil mobaynida nechta fanni o'zlashtirish mumkin?***

- A) 25 ta
- B) 15 ta
- C) 20 dan ortiq
- D) 19 ta

***2. Kasb-hunar kollejlarini bitirganlarga qanday diplom beriladi?***

- A) “Mutaxassis” diplomi
- B) “kichik mutaxassis” darajali diplom

C) “mutaxassislik” diplomi

D) “bakalavr” diplomi

**3.8-9 sinflardagi materiallar qanday yo’nalishlarda o’qitiladi?**

A)6-7 sinf materiallari asosida

B) 5-sinfdan tanlab olingan yo’nalishda

C)3- sinf mehnat ta`limi asosida

D) boshlang`ich sinflar asosida

## **§ 10. KASBGA YO'NALTIRISH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILADIGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI**

Tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichida o'quvchilarni kasbga moslashtirish texnologiyasining darajasi tahlil qilindi. Bunda tajriba-sinov ishlari tajriba guruhida biz taklif etgan texnologiya asosida, nazorat guruhida esa an'anaviy dastur bo'yicha amalga oshirildi.

Uning natijalarini baholash uchun mehnat ta'limi bo'yicha ta'lim standartining taxlili asosida o'quvchilarning kasbga moslashtirish bo'yicha egallashlari lozim bo'lgan eng ahamiyatli turtta ko'nikmani aniklab oldik, ya'ni:

*Axborotlarni tahlil qilish ko'nikmasi.* Ushbu ko'nikma o'quvchilarning kasb tasnifi, uning asosiy turkumlariga xos umumiy xususiyatlarni bilishi, kasblarning murakkablik omillarini taxlil qila olishi bilan baholanadi;

*Gnostik ko'nikmalar.* U kasbi bo'yicha talab qilinadigan shart-sharoitlar bilan o'quvchining qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlarining o'zaro muvofiqligini aniqlash asosida baholanadi;

*Konstruktiv ko'nikmalar.* O'quvchi tomonidan kasbga doir shaxsiy rejaning mazmuni, bo'limlari va vazifasiing asoslanishi, kasbga tayyorgarlik va kasb mahoratini oshirish usullarini egallaganligi.

*Tashkiliy ko'nikmalar.* Kasbga moslashtirish va kasbga xos bilimlarni, malakalarni egallash hamda diagnostik kasb maslahatidan foydalanishni, akademik litseylar va kasb-xunar kollejlarning o'quvchilariga bo'lgan talablarni, ularning bir-biridan farqini bilishi.

So'ngra, mazkur ko'nikmalarni tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarida qay darajada shakllanganligani qiyosiy taxlil qilish maqsadida ularning har biri anketa savollari hamda amaliy topshiriq yordamida baholandi. Bu o'rinda anketa savollari nazariy, topshiriq esa amaliy bilim va ko'nikmalarni anikdigaga xizmat qilishi ko'zda

tutilib, har bir savol 5 balli tizimda baholab borildi.

Biz o'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish sifatini baholashning umumlashgan ko'rsatkichi - oxirgi natija bo'yicha taqoslashdan foydalandik. Bunda o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini keltirilgan o'rtacha o'zlashtirish bali orqali baholash eng samarali yo'nalish hisoblanib, u guruhlardagi o'rtacha o'zlashtirish bali farqi va o'rtacha ball atrofida ballarning yoyilish ko'rsatkichidan foydalanib anikdanadi.

Kasb-hunar tanlashda adashmaslik uchun o'quvchilar quyidagilarni bilishi va uddalashi kerak:

- A) mehnat va kasb turlariga bo'lgan o'z moyilligi, qiziqish va layoqat;
- B) Kasb-hunar bo'yicha mehnat sharoiti va mazmuni (predmeti, maqsadi, mehnat quroli, ishchining asosiy vazifalarini, bilimni, ko'nikmalarni, mehnat tashkillashtirish;
- V) Insonning shaxsiy xislat-lari va sog'ligiga kasb tomonidan qo'yiladigan talablarni;
- G) Kasb-hunar egallash va malaka oshirish yo'llarini (ishlab chiqarish jarayoni, kasb-hunar kollejlarda, maxsus kurslarda, OO'YUda va h.k.);
- D) Tanlagan kasb-hunar bo'yicha ishlash mumkin bo'lgan eng yaqin korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni, to'garaklarda ishtirok etish jarayonida o'z qiziqish va moyillarni amaliyotda sinash;
- E) Ma'lumotlar va maxsus adabiyotlar orqali kasblar bilan tanishish, mutaxassis bilan maslahatlashish, ishchi o'rni bilan tanishish;
- J) Kasb-hunarga yo'naltirish Markazidan maslahatlar olish, amaliyotdan o'tish, shifokor maslahatini olish;
- Z) Kasb-hunar to'g'risidagi ma'lumotnomalarni va adabiyot-larni "Kim bo'lsam ekan?" mavzusidagi materiallarni o'qishni, bo'sh ishchi o'rinlari to'grisida ish bilan bandlik tashkilotlari materiallari bilan tanishish va maslaxatlashishni.

Barkamol o'quvchi shaxsini tarbiyalashda kasbga moslashtirish ishlarining mazmunini belgilashdagi quyidagi fikrlarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarning kasbga moslashtirishning pedagogik texnologiya borasidagi

amalga oshirgan tadqiqotlarimiz ishlab chiqilgan texnologiyamizning samarali va ishonchli ekanligini tasdiqladi;

- o'quvchilarda shakllantirilgan kasb oid ko'nikma va malakalar, ularning bo'lajak mutaxassislar sifatida kasbiy shakllanishidagi ahamiyatini o'rganish uchun qo'llanilgan metodlar majmuasi olingan natijalarning haqqoniyligi va ijobiy tavsifdaligini tasdiqladi;

- darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning umumta'lim, umummehnat bilim va ko'nikmalari darajasini oshirishning ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyasini ta'lim tizimi amaliyotiga tadbiiq qilish mumkin, deb hisoblaymiz.

O'quvchilarni kasbga moslashtirishda mehnat ta'limi bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdikdadi. O'quvchilarning kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari diagrammalar hamda qiyosiy jadvallar yordamida tahlil qilishini natijasida darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasbga moslashtirish ishlarining maqsadga muvofiq tashkil etilishi bu mashg'ulotlarga muntazam ishtirok etuvchi o'quvchilarning umummehnat bilim va ko'nikmalari, umumta'lim fanlaridan o'zlashtirish darajasi qolgan o'quvchilarga nisbatan birmuncha yuqori ekanligada o'z isbotini topdi;

- kasbiy tarbiya tizimida kuyidagilarga amal qilinishi lozim deb hisoblaymiz:

- kasbiy tarbiya - tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror

hamda o'ziga xosligani hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat muvofikdigi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bulish;

- kasbiy tarbiya jarayonida uzluksizlikka va turli yoshdagi bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish.

Qayd etilgan materiallar negizida “Ilmiy pedagogik tadqiqot natijalarini rasmiylashtirishning namunaviy tartibi”da quyidagilarga tayanish: tadqiqot mazmuni, mantiqiy tuzilishi, asosiy tushunchalari hamda asosnomasi, tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqot muammosi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqot farazi, tadqiqot ob`ekti, tadqiqot predmeti, tadqiqot vazifalari, tadqiqotning nazariy ahamiyati, tadqiqotning amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning ishonchliligi va asoslanganligi, himoyaga olib chiqiladigan asosiy xulosalar, tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari, tadqiqot natijalarining amalga oshirilishi, tadqiqotlarni amalga oshirish istiqbollari, ishning mundarijasini tuzish. Mazkur ishlarning bajarilishida ilg`or tajriba va olimlarning fikrlari, g`oyalari bilan to`ldirilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Mavzu yuzasidan test savollari:**

***1. O`quvchilarning kasbga moslashtirish bo`yicha egallashlari lozim bo`lgan eng ahamiyatli ko`nikmalar qaysilar?***

- A) gnostik ko`nikmalar, konstruktiv ko`nikmalar, tashkiliy ko`nikmalar
- B) axborotlarni tahlil qilish ko`nikmasi, gnostik ko`nikmalar, konstruktiv ko`nikmalar, tashkiliy ko`nikmalar
- C) axborotlarni tahlil qilish ko`nikmasi, konstruktiv ko`nikmalar, tashkiliy ko`nikmalar
- D) axborotlarni tahlil qilish ko`nikmasi, gnostik ko`nikmalar, konstruktiv ko`nikmalar

***2. Maktabgacha ta`lim muassasalarida kasb olami haqidagi dastlabki tushunchalar qanday beriladi?***

- A) boshlang`ich mehnat ko`nikmalari, o`yinlar orqali
- B) boshlang`ich mehnat ko`nikmalari, kasblar orqali
- C) kitoblar, o`yinlar orqali
- D) ekskursiyalar, kitoblar orqali

***2. Umumiy o`rta ta`lim maktablarida kasb-hunarga yo`naltirish ishlari 1-9 sinflarda uzluksiz tarzda o`quvchilarga nima asosida beriladi?***

- A) testlar asosida

- B) shaxsning qiziqish va qobiliyatlari asosida
- C) shaxsning psixologik-pedagogik tashxisi asosida
- D) shaxsning ko'nikmalari asosida

## **X U L O S A**

Ma'lumki, o'quvchilar kasblarga oid ma'lumotlarning asosiy hajmini umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-9 sinflarida mehnat ta'limi jarayonida egallaydilar. Tadqiqot ishida dastlabki paragraflarda bu jarayonning muhimligini ta'kidlovchi ikki omil tahlil qilib berildi, ya'ni birinchidan, kasbga moslashtirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida o'quvchilar o'z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagini to'g'ri belgilab olishini ta'minlaydi; ikkinchidan, jamiyatimizning har bir jabhasida o'z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil



va ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga ega bo'ladi.

O'quvchilarni kasbga moslashtirishda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari mazmun-mohiyati tahlili asosida darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish maqsad va vazifalari, o'quvchi kasbiy sifatlarini dastlabki pedagogik-psixologik tashhis qilish, tanlagan kasbi to'g'risida axborot berish, o'quvchi shaxsini ijtimoiy-kasbiy moslashtirish, kasbiy maslahatlar, kasbiy-iqtisodiy tarbiya metodlarini qo'llash yo'llari ko'rsatib berildi. SHu bilan birgalikda darsdan tashqari mashg'ulotlari, ommaviy shakldagi darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda o'quvchilarning mehnat birlashmalari kabi mashg'ulot shakllaridan foydalanishga oid tavsiyalar berildi.

SHuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda kasbga moslashish ishlari texnologiyasining funktsional tuzilmasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra ta'lim jarayonini loyihalash va maqsadini belgilash bosqichining tashqi omillar, ta'lim jarayoni, ichki omillar ta'sirida amalga oshirilish mazmuni ko'rsatib berildi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish o'quvchilarni kasbga moslashtirish jarayoni bilan uyg'unligini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish maqsadida o'quvchilarni kasbga moslashtirish tuzilmasi ishlab chiqildi. Tuzilmaning ikki asosiy tashkil etuvchisi: mehnat ta'limi darslari jarayoni va darsdan tashqari mashg'ulot turlarining bir-birini rivojlantirishini ta'minlash uchun ularning har bir bo'g'inining o'zaro bog'liqlik asoslari ishlab chiqildi. Bu vazifani amalga oshirishda mehnat ta'limi davlat ta'lim standarti va tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan kasbga moslashtirishga asoslangan darsdan tashqari mashg'ulotlarning umumiy tuzilmasi asos sifatida olindi.

Kasbga moslashtirish ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi. Bu maqsadda ishlab chiqilgan "Ganchkorlik", "Tikuvchilik", "Esh hunarmand", "Naqqoshlik", "Elektrotexnika", "Esh duradgor" to'garaklarining o'quv reja va dasturlari o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi darsdan tashqari davrini qamrab olgan holda, umumta'lim fanlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilishi, nazariy va amaliy bilimlarining ta'lim standartlari darajasiga to'la javob bera oladigan

bitiruvchilar tayyorlash imkonini beradi.

O'quvchilarni kasbga moslashtirishning ishlab chiqilgan texnologiyasi hamda to'garaklar o'quv dasturlarini amaliyotga tadbiq etishning eng samarali echimi sifatida kasbga moslashtirish ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlarda o'quvchiga tushuncha berilayotgan kasbning turlari va nomlari bo'yicha real mavjud kasblarning miqdoriga nisbatan optimal munosabatni sakdash, kasb tanlash ishida mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlar asosida kasbga moslashtirishning ustuvorligi, bo'lajak kasb turi bilan bog'liq faoliyatning mazmuni va tuzilmasini asoslash, o'quvchining o'zi moslashtirilayotgan kasb ob'ektlarining xususiyatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishligi kabi holatlar o'z aksini topgan.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda o'quvchilar umumii o'rta ta'lim o'quv dasturi bilan uzviy bogliq ravishda kasbga moslashtirish oid tushunchalarni uzluksiz egallab bordilar. To'garaklar uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish murakkab pedagogik-psixologik hamda tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga olganligi sababli, tadqiqot ishida o'quvchilar qabul qilishi lozim bo'lgan barcha axborotlar oqimini guruhlar buyicha tizimlashgirib chiqildi. Bunda o'quvchilarni kasbga moslashtirish ishlarini axborot bilan ta'minlash tuzilmasini taxlil qilish asosida o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi asosida dars jarayonida tanishishi mumkin bo'lgan tanlagan kasbi va u to'g'risidagi axborotlar jamlandi hamda tizimlashtirildi.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijasida o'quvchilarni darsdan tashqari mashqulotlar jarayonida kasbga moslashtirishning tavsiya etilayotgan pedagogik texnologiyasini ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish yo'li bilan o'rganildi. Bunda dastlab, darsdan tashqari mashqulotlar jarayonida kasbga moslashtirish ishlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quvchi shaxsini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish shakllari va mazmuni ishlab chiqildi. So'ngra shu asosda ishlab chiqilgan ta'lim mazmuni va metodlari bevosita o'quvchilarning darsdan tashqari mashqulotlari jarayonida sinab ko'rildi. O'quv

qo'llanmada o'quvchilarni kasbga moslashtirish texnologiyasining ishlanganlik darajasi taxdil qilinib, ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning eng maqbul yo'nalishiga o'quvchilarni kasb moslashtirish ishlariga to'g'ri yo'naltirish orqali erishish mumkinligi ilmiy asoslandi.

### ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. 63 b.
2. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
3. Boltaboev S.A. Tolipov O'.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
4. Davletov K.D. va b. O'quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. –T.: O'qituvchi, 1984. 167 b.
5. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., SHaripov SH.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: FAN. 2004. 120 b.
6. Klimov S. A. va b. "Ishlab chiqarish asoslari". Kasb tanlash 2 - qism. -M. 1987.
7. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: FAN, 2004. 130 b.
8. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: OO'MTV, 2007. 173 b.

9. Nishonaliev U.N., SHodiev N.SH., Muslimov N.A. Mehnat ta`limidan “Kasbga yo’naltirish asoslari” kursi bo’yicha metodik qo’llanma. –Toshkent, 2004. 12 b.
10. Rashidov H.F., Ergashev SH.T., Boltaboev S. O’quvchilarni kasbiy yo’nalganligini aniqlash. Uslubiy qo’llanma. –T.:TDPU, 2004. 12 b.
11. Tolipov O’.Q., SHaripov SH.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg`ulotlar jarayonida o’quvchilarni kasb-hunarga yo’llash texnologiyasi. –Toshkent: O’zPFITI. 2004. 32 b.

**O’quv qo’llanmada mavzular bo’yicha berilgan testlarning javoblari**

T-b mavzu №	1-test				2-test				3-test			
	A	B	C	D	A	B	C	D	A	B	C	D
1	X							X		X		
2			X				X			X		
3		X					X		X			
4			X					X				X
5	X					X					X	
6				X	X				X			
7	X						X					X
8												
9			X			X				X		
10		X			X						X	

Илова

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'QUVCHI-YOSHLARNI  
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH  
KONTSEPTSIYASI<sup>2</sup>**

O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish Kontseptsiyasi O'zbekistoi Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi o'quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo'naltirish tizimni rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini qo'ymoqda. Kasb-hunarga yo'naltirish tizimni takomillashtirish – ish o'rinlarini bo'shab qolish jarayonlari jadallashayotgan va ishchilarning malakalariga qo'yiladigai sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini ratsioial va samarali bandligini ta'minlashda kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy o'rni shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidai kasbning ongli va ilmiy asoslangai holda tanlovi ularning kelgusi mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi kasb-hunarlariga bo'lgai mavjud ehtiyojlarni hisobga olgai holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta'lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo'riqish holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Kontseptsiyaga O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "Xalqaro mehnat tashkilotninig Nizomlari,

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасида ўқувчи-ёшларни касб-хунарга йўналтириш тизимини ривожлантириш концепцияси. «Мактаб ва ҳаёт» журнаliga илова. 13 (021) – нашр. –Тошкент, 2002.

Konventsionalari va takliflari, bir qator boshqa me`yoriy hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning ushbu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olindi.

### **1. *Kasb-hunarga yo`naltirishning holati va muammolari.***

Kasb-hunarga yo`naltirish ishlari O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi va viloyat, tuman, shahar Xalq ta`limi boshqarma va bo`limlarida faoliyat ko`rsatayotgan hududiy tashxis Markazlari tomonidai bosqichma-bosqich va muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarga kasblar olamidagi dastlabki tushunchalar, boshlang`ich mehnat ko`nikmalari o`yiilar orqali beriladi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida kasb-hunarga yo`naltirish ishlari 1-9 sinflarda uzluksiz tarzda o`quvchilarga tizimlashtirilgai kasbiy axborotlar va kasbiy maslahatlar berish, shaxsning psixologik-pedagogik tashxisi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonin kasbga yo`naltiruvchi mutaxassislar, psixologlar, asosiy fan o`qituvchilari va sinf rahbarlari amalga oshiradilar. Kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis Markazlari bu ishlarii muvofiqlashtiradi hamda metodik jihatdan rahbarlik qiladi. Har bir umumiy o`rta ta`lim maktablarida har yili tuziladigai va maktab direktori rahbarlik qiladigai kasb-hunarga yo`naltirish komissiyalari faoliyat ko`rsatadilar. Komissiya bitiruvchilar tanlagan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarninig tayyorlov yo`nalishlariga yakuniy xulosalar asosida tavsiyanomalar beradi. Kasb- hunarga yo`naltirishning ayrim elementlari o`rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta`lim muassasalarida, mehnat va aholining ijtimoiy muhofaza qilish vazirligninig bo`linmalarida, mudofaa vazirligi va oliy ta`limdai keyiigi ta`lim muassasalarida ham amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda kasbga yuyaltirishning bir butun yaxlit tizimi to`liq shakllanmagan. Buning sababi quyidagi muammo va kamchiliklarning mavjudligidadir. Maktablarda oxirgi yillarda chuqurlashtirilgan mehnat ta`limi va kasb-hunarga yo`naltirishning o`quv ishlab chiqrish negizining keskin kamayish holatlari kuzatilmoqda, ishlab chiqarish korxonolari ta`lim muassasalarining

o'quv-moddiy negizini rivojlantirish va takomillashtirishda o'z yordamlarini deyarli to'xtatib qo'ydilar. Aksariyat umumiy urta ta'lim maktablarida zamonaviy talablar asosida jihozlangan kasb-hunarga yo'naltirish xonalari yo'q, psixologik- pedagogik tashxis, kasbiy maslahat ishlarini o'tkazishda tashkiliy ishlar, axborot va kadrlar ta'minoti etarli emas. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tarmoqlarining shakllanib borishi bilan bir qatorda kasb- hunarga yo'naltirish ishlarining samaradorligini va o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari va moyilliklarini aniqlashga bo'lgan talablar ham ortayotgan bir paytda ixtisoslashtirilgan mehnat ta'limi darslarini tashkil etishda o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinmayapti va ularning kasbiy yo'nalganliklari psixologik jihatdan etarlicha asoslanmayotir. Kasb-hunarga yunaltirish hududiy markazlariga va umumiy o'rta ta'lim maktablariga asosiy ma'lumoti to'g'ri keladigan va amaliy ish tajribalari etarli bo'lgan kadrlarni tanlab olishda qiyinchiliklar mavjud. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarni moyillik va qiziqishlari bo'yicha qabuldan tanlov asosidagi qabulga o'tildi (asosan akademik litseylarda) yoki aksincha nufuzli bo'lmagan tayyorlov yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari yoppasiga qabul qilish hollari uchramoqda. Oliy o'quv yurtlariga esa abiturientlar test – sinovlari asosida shaxsiy xususiyat va qobiliyatlari o'rganilmasdan qabul qilinadi. Xalq xo'jaligi majmuasi tarmoqlaridagi tarkibiy va kasbiy – malaka o'zgarishlari to'g'risidagi axborotlarning o'z vaqtida yig'ilmasligi hamda ularning to'liq emasligi kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarasini pasaytirmoqda. Mulkchilik shakli turlicha bo'lgan ko'pgina korxonalar, o'quv yurtlari va bandlik xizmatlari kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha hamkorlikka etarlicha e'tibor bermayotirlar. Balog'at yoshidagi ish bilan band va band bo'lmagan aholi qatlamlarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy yo'nalishlari mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim bo'lgani holda hozirgi kunda aholining bu qatlamini kasb-hunarga yo'naltirish ishlari tashkiliy va moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlanmayapti. Mehnatga yaroqliligi cheklangan aholi qatlamlarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan emas. Kasb-hunarga yo'naltirish borasidagi ishlarni amalga oshiruvchi kasb-hunarga yo'naltirish

Markazlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, yoshlar ijtimoiy harakati, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda oliy o'quv yurtlari, bandlik xizmatining tegishli davlat tuzilmalari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar va muassasalar o'rtasidagi hamkorlik bugungi kun talablariga javob bermaydi va bu faoliyat me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan emas. Yuqoridagilar kasb-hunarga yunaltirishni bir butun tizimini shakllantirish va rivojlantirish lozimligini taqozo qiladi.

## ***II. Kasb-hunarga yo'naltirishning maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari***

Kasb-hunarga yo'naltirish – umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodni kasbiy tiklanishi, tabiat in'om etgan (tug'ma) qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'maklashish, insonga kasbiy o'zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora – tadbirlar majmuasi bo'lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta'lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarda jamiyatning g'amxo'rliqi sifatida namoyon bo'ladi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishining bosh maqsadi o'ziga xos usullar yordamida mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va aholining samarali bandligini oshirishga erishishdan iborat.

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb – hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

Kasb-hunarga yo'naltirish quyidagi ikki asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

- mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash;

- shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o'z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o'zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishining pirovard natijasi ijtimoiy- iqtisodiy omil



bo'lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi.

Kasb-hunarga yo'naltirishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;
- iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o'rganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;
- shaxsni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;
- O'zbekiston fuqarolarining va (lozim bo'lganda) boshqa davlat fuqarolarining o'qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat'iy nazar kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlaridan foydalanishga teng huquqligi;
- kasb tanlash yoki almashtirish, ta'lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarililigi;
- umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga psixologik-pedagogik va kasb-hunarga yo'naltirish xizmatlarini ko'rsatishning majburiyligi va bepulligi, aholining boshqa guruhlariga davlat darajasida kafolatlangan kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtieriyiligi;
- kasbiy tanlov, tashhis va maslahat xulosalarining ob'ektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi;

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy ob'ekti:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1 – 9 sinf o'quvchilari;
- oliy o'quv yurtlari talabalari va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari;
- band bo'lmagan aholining turli guruhlarini;
- ishdan bo'sh shaxslar;
- ish qobiliyati cheklangan shaxslar.

### ***III. Kasbga yo'naltirish ishlarining mohiyati va mazmuni***

Kasbga yo'naltirish-bu har bir individning o'ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir. U

insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo'naltirilgandir.

Kasbga yo'naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy- fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatta ega muammodir. Kasbga yo'naltirish insonning qobiliyati va iqtidorini maqsadli rivojlantirishda, uning kasb mahorati, ish qobiliyati va salomatligini asrashga imkon yaratadi hamda aholini ijtimoiy himoyalash va bandligi sohasidagi davlat siyosatining muhim elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirish shaxsning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirish hamda majburiy ishsizlikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Kasbga yo'naltirish tadbirlari inson tomonidan o'z kasbiy malakasini oshirishning qulay shakllarini izlash, ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuskorlik, intellektual va mehnat mustaqilligini rivojlantiradi.

YOsh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart – sharoiti sifatida qaraladi. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni barcha o'quv – tarbiya jarayoni bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi.

### **Kasbga yo'naltirish quyidagi qismlarini o'z ichiga oladi:**

Kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish.

Kasbiy axborot-ma'lum bir kasbni egallash xohishi bo'lgan shaxsga, turli mutaxassisliklarni egallashning shakl va sharoitlariga, kasbiy malakalarning o'sish imkoniyatlariga, mehnat bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqishlarning shakllanishiga, shaxsning istak va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar hamda eamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, targ'ibot qilish chora – tadbirlaridir.

Kasbiy maslahat – kasb tanlash, kasbni yoki faoliyat turini o'zgartirishda yordamga muhtoj bo'lgan shaxsning individual – psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlarini, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog'ligi va mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish asosida psixolog – maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o'zaro muloqot tizimidan iborat. Kasbiy tanlov va saralash – kasbiy faoliyatning alohida, turlariga

yaroqlilik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari (tanlash) yoki aniq bir kasbga bo'lgan psixofiziologik me'yoriy talablar (saralash) asosida shaxsni har tomonlama o'rganish tizimidir.

Kasbiy moslashish – ishlab chiqarishda kasbiy faoliyatning ijtimoiy- psixologik va tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvaffaqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralarning majmuaviy tizimidir.

Professiografiya (axborot, tashxis, korrektsiyalovchi, shakllantiruvchi va kasbiy tashxis (shaxsni o'rganishning psixologik, psixofiziologik, tibbiyo va boshqa usullarining majmui) kasbga yo'naltirishning axborot uslubiy ketma-ketligining asosi hisoblanadi.

#### ***IV. Kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari***

Aholini kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

–kasb – hunarga yo'naltirishning davlat tizimini huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy, uslubiy-axborot, moddiy-texnik va moliyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish, faoliyatning ilmiy-metodik va me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanganligiga erishish;

–davlat va hududlar bosqichida kasb-hunarga yo'naltirish tizimi tuzilmalari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish;

–kasb-hunarga yo'naltirish tizimi faoliyatiga kompleks yondoshish uning ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalganligini kuchaytirish;

–kasbga yo'naltirish xizmatini amalga oshiruvchi davlat tizimini mustahkamlash va nodavlat tashkilotlar tizimini tashkil etish;

–kasbga yo'naltirish sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakalarini oshirish;

–hozirgi zamon talablariga javob beradigan me'yorlar va standartlar majmuasini ishlab chiqish, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining shakl va usullarini doimiy yangilab borish;

–Kontseptsiyani amalga oshirish uchun zaruriy huquqiy-me`yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, amaldagi qonunchilik aktlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritish;

–kasbga yo'naltirish sohasida tajribalar almashish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

–amaldagi ta`lim tizimi bo'linmalarida, yoshlarning ijtimoiy xizmat, davlat bandlik xizmati, ishlab chiqarish va aholini ijtimoiy himoyalash tashkilotlarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish, kengaytirish va takomillashtirishda faol ishtirok etish;

–kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bilan band bo'lgan mutaxassislarning mehnat samaradorligini oshirish, ularning moddiy va ma`naviy manfaatdorligini oshirishning amaliy shakllarini joriy etish.

#### ***V. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini rivojlantirishning asosi bosqichlari***

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini rivojlantirishning asosi bosqichlari quyidagicha:

Birinchi bosqich (maktabgacha ta`lim yoshi) – maktabgacha ta`lim yoshidagi bolalarda (katta guruh) mehnat bilan band bo'ladigan insonlarga, ularning mashg'ulotlariga, shuningdek qo'llaridan keladigan faoliyat turlari bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikmalarini ijobiy, hissiy – ta`sirchan shakllantirish;

Ikkinchi bosqich (1 – 4 sinflar) – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilishga oid va o'yin ko'rinishidagi ijtimoiy – foydali mehnat faoliyatini amalga tatbiq qilish orqali, mehnatta hurmat, uning inson hayotida va jamiyatda tutgan o'rnini anglashini, ota-onalarining kasblariga hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish;

Uchinchi bosqich (5-7 sinflar) – o'smirlarda kasbiy yo'nalganlik bo'yicha kasb tanlash va jamiyatdagi o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan qiziqishi, qobiliyati, ijtimoiy qadriyatlarining izlanuvchan – sinchkov ko'rinishlarini shakllantirish;

To'rtinchi bosqich (8-9 sinflar) – o'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllanish davri, ya`ni o'quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma`noga

egalligini tushunib etishi, qadriyatlar to'g'risidagi o'z tasavvurlarini, faoliyat sohasini tanlashning jamiyat maqsadlari bilan qiyoslay olishini shakllantirish davri;

Beshinchi bosqich (akademik litsey va kasb – hunar kollejlarning birinchi kurs o'quvchilari) – ijtimoiy-kasbiy maqomni aniqlash, ya'ni aniq bir mehnat faoliyati sohasidagi bilim na ko'nikmalar haqida har taraflama tasavvurlarni shakllantirish, ularni o'zlashtirib kirishish, ishlab chiqarish mehnat jamoasining tartib – qoida va qadriyatlariga qo'shilishni shakllantirish davri;

Oltinchi bosqich (kasb-hunar kollejlarning oxirgi kurs o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari) – kasbiy faoliyatda kirishish. Bu kasbiy faoliyatda jiddiy tayyorgarlik hamda mehnat jamoasidagi ish va tajribaning shakllanish davri.

Ettinchi bosqich (katta yoshdagi mehnat bilan band bo'lgan odamlar, ishsizlar) – shaxsiy imkoniyatlar va oldingi kasbiy-ijtimoiy tajribalarni hisobga olgan holda, zarurat bo'lganda boshqa kasbiy faoliyatga qayta yo'naltirish.

### ***VI. Kasb-hunarga yo'naltirish tizimini boshqarish***

Kasb-hunarga yo'naltirish tizimining tashkiliy tuzilmasi aholining barcha qatlamlari tomonidan ongli ravishda kasb tanlashlarini ta'minlashga qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, o'smirlar va o'quvchi yoshlarni kasbiy o'zligini anglashga ko'maklashishga yo'naltirilgan asosiy ishni ta'lim tizimining ijtimoiy – psixologik xizmati amalga oshirishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktablararo o'quv ishlab chiqarish muassasalari, o'rta maxsus, kasb – hunar va oliy ta'lim muassasalarining shtatlariga kasb tanlash bo'yicha maslahatchi lavozimi kiritilmog'i lozim.

CHaqiriqqacha bo'lgan yoshlarni kasb – hunarga yo'naltirish ishlarini mudofaa vazirligi bo'limlari, «Vatanparvar» tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Ma'lum bir kasbiy tajriba va bilimga ega bo'lgan yoshlarning kasbiy shakllanishi yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy xizmatlari va tegishli jamg'armalar tomonidan qo'llab-quvvatlaniladi.

YOsh avlodni, xususan o'smirlarni kasb-hunarga yo'naltirishning tibbiy jihatlari tuman, shahar tibbiy muassasalarining vrachlari tomonidan hal etiladi.

Sog`liqni saqlash vazirligi na uning hududiy boshqaruv organlarida mazkur soha ishlari uchun mas`ul xodimlar belgilanmog`i zarur.

Iqtisodiyotning tarkibiy o`zgarishlari natijasida ishdan bo`shagan na aholining band bo`lmagan qismini kasb-hunarga yo`naltirish tegishli maslahat punktlari (byuro) va mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Har xil mulkchilik shaklidagi korxonalarda ish bilan band bo`lgan aholini kasb-hunarga yo`naltirish (ishlab chiqarishda kasbiy va ijtimoiy moslashish nuqtai nazaridan) mazkur korxonalarining ijtimoiy rivojlantirish va kadrlar xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kasb-hunarga yo`naltirish tizimi bilan bir qatorda fuqarolar va korxonalarga kasb-hunarga yo`naltirish masalalari bo`yicha pullik xizmat ko`rsata oladigan, jumladan tijorat yo`nalishidagi byuro, agentliklar tuzilishi mumkin.

CHeklangan mehnat qobiliyatiga ega bo`lgan shaxslarni kasb-hunarga yo`naltirish Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, Sog`liqni saqlash vazirliklari zimmasiga yuklatiladi. Tizimning barcha boshqaruv bosqichlarida mazkur vazirliklar shu ish uchun mas`ul xodimlar ajratadi.

Oliy va O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida turli patologiyalarga mansub nogironlarni kasbiy tayyorgarlik olishlari uchun maxsuslashtirilgan bo`linmalar tarmog`i yaratilishi lozim.

Kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini umumiy ilmiy-metodik ta`minoti, tegishli toifali xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tibbiy-fiziologik muammolari bo`yicha ilmiy tekshirishlarni muvofiqlashtirish ishlarini O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik respublika Tashxis markazi amalga oshiradi.

### ***VII. Kontseptsini amalga oshirishning shart-sharoitlari***

Mazkur Kontseptsyani amalga oshirish uchun tegishli huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy-texnik, axborot va moliyaviy shart- sharoitlar yaratilishi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish uchun quyidagilar zarur:

- kasb-hunarga yo'naltirish tizimini bozor, iqtisodiyotining davlat mexanizmiga uzviy tarkibiy qism sifatida kiritish;

- kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida yuksak psixologik shartlarni talab qiladigan mutaxassislikni tanlagan abituriyentlar uchun kasbiy tanlov va boshqa barcha mutaxassisliklarni tanlaganlar uchun kasbiy maslahatlar berish tartibini joriy etish.

### ***7.1. Tashkiliy-huquqiy ta'minot***

Huquqiy shart-sharoitlar yaratish uchun quyidagilar zarur:

- Mehnat to'g'risidagi qonunlar Kodeksi, «Aholining bandligi to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlariga lozim bo'lgan hollarda tegishli o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish;

- aholini kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyasi va tavsiyalarini ratifikatsiya qilish;

- «Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risida»gi, «Aholini kasbga yo'naltirish to'g'risida»gi, «Kasbga yo'naltirish hududiy Markazi to'g'risida»gi, «CHEklangan mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish to'g'risida»gi Nizomlarni ishlab chiqish;

- maktablararo o'quv ishlab chiqarish kombinatlarida, maktablarda, kasb-hunarga yo'naltirish Markazlarida kasbiy maslahatchilarning faoliyat doiralarini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

- yoshlar uchun ijtimoiy xizmat va talim tizimidagi ijtimoiy – psixologik xizmat to'g'risidagi Nizomlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

### ***7.2. Kadrlar bilan ta'minlash***

Respublikaning kasb-hunarga yo'naltirish tashkilotlarining kadrlar bo'yicha tarkibi doktorlik va nomzodlik ilmiy darajasiga ega bo'lgan olimlar yoki ta'lim sohasida ma'lum amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan, ta'lim muassasalarida – kamida besh yil ishlagan pedagog va injener – pedagoglardan shakllanadi.

Ularni tegishli kadrlar bilan ta'minlash psixologlar, kasbiy maslahatchilar,

psixofiziologlar, sotsiologlar va boshqalarni tayyorlashni ko'paytirish hisobiga shakllantiriladi.

### ***7.3. Ilmiy metodik va axborot ta'minoti***

O'zbekiston Respublikasida kasbga yo'naltirish bo'yicha ilmiy, amaliy, uslubiy va nazariy ishlanmalarni tayyorlash, ularni sinovdan o'tkazish va kasbga yo'naltirish tizimiga tatbiq etish masalalari o'quvchilarni kasb – hunarga yo'naltirish va psixologik – pedagogik respublika Tashxis markazi tomonidan uning ilmiy Kengashi va nashriyot bo'limi orqali hal etiladi. Ishonchli axborot-uslubiy va dasturiy ta'minotni yaratish (kasbiy talim, ijtimoiy-iqtisodiy holatlar to'g'risida umumiy xarakterga ega bo'lgan axborot-qo'llanma materiallar banki, mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari shuningdek, kasbiy xarakterdagi axborot-qo'llanma materiallar banki – qo'llanmalar, kataloglar, kartotekalar, profkartalar, professiogrammalar, psixogrammalar; kasblarning rivojlantirish istiqboli to'g'risidagi ma'lumotlar; aholining turli qatlamlari bilan kasbga yo'naltirishni o'tkazish texnologiyasi bo'yicha metodik tavsiyalar, shuningdek, individual kasbiy maslahat va kasbiy tanlov; individual test o'tkazish, kasbiy tashxisning kompyuter variantini hisobga olgan holda shaxsni psixologik tashxis qilish metodikalari majmuasi).

### ***7.4. Moliyalashtirish va moddiy – texnik ta'minot***

Kontsepsiya davlat, mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari, aholi bandligiga yordam berish Davlat jamg'armasi, nogironlarni ijtimoiy himoyalash jamg'armasi (cheklangan mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun), boshqa davlat, yoshlar va jamoat jamg'armalari, korxonalar va fuqarolarning shaxsiy mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Byudjetdan tashqari mablag'lar: maslahat va uslubiy yordamlar o'tkazish bo'yicha shartnomaviy mablag'lar, pullik xizmat ko'rsatish va boshqa yo'nalishdagi faoliyatdan tushgan mablag'lar. O'rnatilgan tartibda ajratiladigan va to'lanadigan bank kreditlari. Tashkilotlardan, muassaslardan, xususiy shaxslardan, chet el investorlaridan, hokimliklarning homiylik yordamlaridan tushgan mablag'lar.



Mablag`lardan foydalanish O'zbekiston Respublikasi hududidagi amal qilayotgan qonunlar, moliya vazirligining tegishli me`yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirish ishlarining moddiy-texnika ta`minoti uchun birinchi navbatda quyidagilar zarur:

- kasbga yo'naltirish Markazlari va boshqaga yo'naltirish tuzilmalari uchun amaldagi me`yorlar asosida tegishli ish joylarini ajratish;

- ularni elektron hisoblash, audio, video va nusxa ko'paytiruvchi texnika, jihozlar va asbob-uskunalar, aloqa vositalari, transport faoliyatining tegishli yo'nalishiga mos bo'lgan poligrafik baza bilan jihozlash.

**MUNDARIJA**

<b>Kirish</b> .....	3
1. O'zbekiston Respublikasida kasbga yo'naltirish ishlarining va bosqichlari .....	tizimi 4
2. Umumiy o'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi va mazmuni .....	10
3. Ta'lim jarayoni kasbiy yo'nalganligini ta'minlash .....	35
4. Kasbga yo'naltirish ishlarining tiplari hamda tashkiliy shakllari....	50
5. Mehnat ta'limi mazmunini kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bilan uzviyligi	67
6. Kasblarga qo'yiladigan psixofiziologik talablar .....	78
7. Kasbga yo'naltirishda mehnat resurslarini hududiy xususiyatlarini aniqlash hamda ta'lim jarayoniga tadbiq qilish .....	87
8. O'quvchilarning kasbiy layoqat, moyillik, qiziqish hamda aniqlash metodlari .....	qobiliyatlarni 97
9. Kasbga yo'naltirishda o'quvchi shaxsiga individual yondoshish metodikasi .....	110
10. Kasbga yo'naltirish yuzasidan amalga oshiriladigan tajriba – sinov ishlari va ularning xususiyatlari .....	120
Xulosa .....	125
Adabiyotlar .....	128
Ilova .....	130

## SODERJANIE

<b>Vvedenie</b> .....	3
1. Sistema i etapy proforientatsionnoy raboty v Respublike .....	Uzbekistan 4
2. Struktura i soderjanie proforientatsionnoy raboty v obsheobrazovatelnykh shkolax .....	10
3. Obespechenie professionalnoy napravlenosti obucheniya .....	protssesa 35
4. Tipy i organizatsionnye formy proforientatsionnoy .....	raboty 50
5. Preemstvennost soderjaniya trudovogo obucheniya i raboty .....	proforientatsionnoy 67
6. Psixofiziologicheskie trebovaniya pred`yavlyаемые k professiyam .....	78
7. Opredelenie i uchet v protsesse obucheniya regionalnykh osobennostey trudovykh resursov v proforientatsionnoy rabote .....	87
8. Metody opredeleniya professionalnoy prigodnosti, motivatsii i interesov i sposobnostey uchashixsya .....	56
9. Metodika individualnogo podxoda k lichnosti uchashixsya v proforientatsionnoy rabote .....	97
10. Eksperimentalnaya rabota po proforientatsionnoy rabote ego osobennosti .....	i 110
Zaklyuchenie .....	125
Literatura .....	128
Prilozhenie .....	130

## CONTENTS

<b>Introduction</b> .....	3
1. System and stages professionally orientations works in Republic Uzbekistan .....	4
2. Structure and the maintenance professionally orientations works in comprehensive schools .....	10
3. Maintenance of a professional orientation of process of training .....	35
4. Types and organizational forms professionally orientations works .....	50
5. Continuity of the maintenance of labour training and professionally orientations works .....	67
6. Psychological and physiological requirements showed to Trades.....	78
7. Definition and the account during training regional features of a manpower in professionally orientations to work .....	87
8. Methods of definition of professional suitability, motivation and interests and abilities of pupils .....	97
9. Technique of an individual approach to the person of pupils in professionally orientations to work .....	110
10. Experimental work on professionally orientations to work and his feature .....	120
The conclusion .....	125
The literature .....	128